

Odamiylik mulki (I- qism)

Tohir Malik

«
«
Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini aziz-mukarram qildik va ularni barru-bahrda -
quruqlik va dengizda (ot-ulov va kemalarga) chiqarib qo'ydik hamda ularga halol-pok
narsalardan rizqu ro'z berdik va ularni O'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal-
ustun qilib qo'ydik.
Al-Isro surasidan
»
»

GULISTON ISTA, EY KO'NGIL

Muqaddima o'rnidagi bu dastlabki bob mazkur kitobga tartib berish sabablari va maqsadlari bayonidan iboratdir.

Assalomu alaykum, azizlarim.

Sizlaru bizlarni go'zal suratda yaratgan va cheksiz ne'matlarga burkagan Rabbimiz Alloh taologa cheksiz hamdu sanolar aytamiz. Buyuk Parvardigorning buyuk irodasi ila buyuk vazifalarni yelkalarida ko'targan va sizni bizga hidoyat yo'lini ko'rsatgan suyuqlik payg'ambarimiz Muhammadga salavot va salomlar yo'llaymiz. Allohning inoyati va marhamati ila ko'p yillik niyatimizni amalga oshirmoqqa kirishyapmizkim, bu ishimizni ham Yaratganning O'zi xayrli qilg'ay. Shu paytga qadar badiiy ijodda yaxshimiyomonmi mashqlar qilib, o'zimizni sinab ko'rdik. So'ng odob bobida birodarlarimizga nafi tegar, degan umid bilan «Mehmon tuyg'ular» nomida bir kitobchaga tartib berdik. So'ng uni to'ldirib, «Imonlashish umidi» degan nomda e'tiborlaringizga havola etdik. Keyin esa farzandlar tarbiyasida foydali bo'lib qolar, degan maqsadda bir risola yozib unga «Jinoyatning uzun yo'li» deb nom berdik. Bu yo'nalishdagi urinishlarimizni endi mazkur odob risolasi nihoyasiga yetkazar, insha Alloh!

Ma'lumingizkim, o'tmishda o'tgan ustozlarimizning aksari badiiy asarlar yozish bilan birga axloqqa doir risolalar ham bitganlar. Agar ziyraklik bilan kuzatsak, o'tmish adabiyotimizning asosini odob masalalari band etgan. «Adabiyot» - «odoblarni to'plami» ma'nosini anglatishi ham shundandir. Badiiy asar qaysi tarzda, qaysi yo'nalishda yozilmasin, odamlarni tarbiya qilishga, ya'ni yaxshilik sari boshlab, yomonlikdan qaytarishga xizmat etishi lozim.

Tarixda bunday kitoblarning hisobi yo'q. Shularning ayrimlarini o'qish jarayonida kaminada undagi hikmatlar bilan birodarlarni tanishtirish mayli uyg'ondi. Rahmatli tog'am, ulug' adib Mirzakalon Ismoiliy axloq masalalariga doir bir qancha risolalar yozgan edilar. Shulardan biri - «Qizlar daftariga» kitobini yozgach, muxlislardan ko'p maktublar oldilar va uning davomi sifatida «Bunisi sizlarga, yigitlar» degan axloq kitobini yozishni niyat qilgan edilar. Ammo bu niyat amalga oshmay, armon bo'lib qoldi. Shu nom ostida bir kitob yozmoqlikni ko'p o'yladim. Hamkasblarim orasida ham bu ishga da'vat etganlar bo'ldi. Uzoq yillar davomida tayyorgarlik ko'rgan bo'lsam-da, yozishni boshlashga jur'at eta olmadim. Vaqti-soati yetibdi, shekilli, axloq mavzuiga doir to'plagan ma'lumotlarimni qaragam, yetmishdan ziyod daftarga jo bo'libdi. Allohga

tavakkul qilib ishni boshladim. Umid ulki, yozilajak satrlar amri ma'ruf va nahyi munkar vazifalarini ado eta olsa. Alloh ko'pning qatorida kaminani ham adashtirmasin.

Bir uzrim borki, muhtaram kitobxonlar bu bitikni o'qish jarayonida «menga aql o'rgatyaptimi?» degan mulohazaga borib g'ashlanmasalar. Kaminaga ma'lumki, kitobxonlar orasida mendanda aqlliroq, hikmatlarni mendanda ko'proq biluvchi, mendanda a'loroq darajadagi ilm egalari mavjud. Yana ma'lumingiz bo'lsinkim, kaminaning olimlikka da'vosi yo'qdir. Niyatim -kitobxonlar bilan fikrlashish. Fikrlarim orasida ehtimol sizlarga nomaqbullari uchrar, u holda ma'zur tutgaysiz. Ehtimol adashgan, yanglishganim holatlar ham bo'lar, u holda tavbalar qilib, rahmli va Rahmon sifatli Allohning lutfu-marhamatlaridan umidvordirman.

O'tmish adabiyotidagi ustozlar bu mavzuda yozganlarida «Ey farzand!» yoki «Ey o'g'il!» degan murojaat bilan boshlaganlar. Yoki «farzandga maktublar» uslubidan foydalanganlar. Men o'z ko'nglimga da'vat uslubini qo'llashni ma'qul ko'rdim. Chunki har bir odam birinchi galda o'z-o'zini tarbiya qilishi kerak, deb o'ylayman. Har birimiz o'z-o'zimizni, xususan, ko'nglimizni idora qila bilmog'imiz shart. Hazrat Alisher Navoiy ta'birlari bilan aytilsa, ko'ngil - badan mulkining podshohidir. Ko'ngilning salomatligi - badanning ham salomatligi, uning notoblighi - buning ham notoblighidir.

Donolar demishlarkim: «Sen o'zingni ko'rmoq istaysanmi? U holda ko'zgudagi tashqi qiyofangga emas, ichingdagi ko'zguga boq.» Biz esa... kunda necha bor ko'zguga qaraymiz. Qalbimizga-chi?

Alloh taborak va taolo marhamat qiladiki: «Aniqki, Biz jin va insdan ko'plarini jahannam uchun yaratganmiz. Ularning dillari boru, anglay olmaydilar, ko'zlari boru, ko'ra olmaydilar, quloqlari boru, eshitmaydilar. Ular chorva kapidurlar, yo'q, ular (beaql va befahmlikda) chorvalardan ham badtardirlar. Ana o'shalar g'aflatda qolgan kimsalardir.» (Mazkur risolamizda Qur'oni Karimning so'zma-so'z emas, balki ma'nosining tarjimasidan foydalanamiz. Har safar "ma'no tarjimasi", deb ta'kidlamay, masalan "A'rof surasidan" deyish bilan cheklanamiz.) Alloh subhonahu taoloning bu oyatlari biz bandalarni eng muhim ishdan ogoh etadi. Ya'nikim, musulmon kishi qalbiga e'tibor bermog'i, qalbini kuzatmog'i, qalbini o'nglamog'i va turli marazlardan saqlamog'i lozim. Kimki o'z qalbini marazlardan saqlashga e'tiborsiz ekan, uning bilgan-bilmagan dardlari yanada ko'payar. Zero, solih amallarning ajri ham qalbga bog'liqdir. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): «Ogoh bo'ling! Tanangizda bir parcha go'sht bor. Agar u sog' bo'lsa, butun jasad sog'dir. Agar u buzilsa, butun jasad buziladi. Ogoh bo'ling, u - qalbdir!»- deb bekorga xitob qilmaganlar. Ibn Mas'ud hazratlari degan ekanlarkim: «Jismingiz qanchalik sog'lom bo'lmasin, qalbingiz maraz ekan, bilingkim, Alloh nazdida, siz mitti qo'ng'izdan ham haqirroqdursiz».

Hazrat Abu Homid G'azzoliy «Mukoshafat ul-qulub» (Qalblar kashfiyoti) kitoblarida deydilarkim: «Bilki, Alloh bir bandasiga xayr ato etmoqchi bo'lsa, unga o'z nafsining qusur va ayblarini ko'ra oladigan basiyrat beradi. Kimningki basiyrati o'tkir bo'lsa, qusur va ayblari o'ziga albatta ko'rinajak. Kishi o'z ayblarini bilganda esa, ularni davolash imkoniga ega bo'ladi.

Lekin, afsuskim, insonlarning ko'pchiligi o'z qusur va ayblarini ko'rmaydi. Ahvol shundayki, ba'zan kishi bir mo'min qardoshining ko'zidagi tariqday kirni ko'radi-yu,

ammo o‘z ko‘zidagi yong‘oqday dog‘ni ko‘rmaydi. Kimki o‘z nafsining ayblarini ko‘rmoqchi bo‘lsa, to‘g‘ri, basiyratli kishi bilan do‘st tutinmog‘i lozim. Toki, bu do‘st uning ahvolini, harakat va atvorlarini ko‘z ostida tutsin. Zohiriy yoki botiniy xunuk bir fe‘lini ko‘rsa unga tanbeh bersin.»

Ulug‘ allomaning fikrlariga qo‘shimcha qilib deyishimiz mumkinki, «basiyratli do‘st» atamasini kitoblarga nisbatan ham qo‘llasak bo‘ladi. Bu o‘rinda kitoblarning eng ulug‘i, Allohning biz - bandalariga bergan ulug‘ ne‘mati - Qur‘oni Karimni, hadisi qudsiyini va Rasulullohning (s.a.v.) sahih hadisleri jamlangan kitobni hamda bularga asoslanib yozilgan donolarning bitiklarini nazarda tutaymiz. Bularni hamisha o‘qib yuruvchi, tushunib, to‘g‘ri anglovchi va o‘qiganlariga amal qilg‘uvchi kishi hech qachon adashmaydi.

Qadim-qadimdan komillik martabasiga yetganlar shunday yo‘lni tutganlar, ya‘ni: Qur‘on va hadislarga amal qilganlar va iymonli do‘stlarining nasihatiga quloq solganlar. Hazrati Umar, Alloh undan rozi bo‘lsin, «Menga ayblarimni ko‘rsatuvchi kimsaga Alloh xayr bersin!» deb duo qilar ekanlar. U muhtaram zot ko‘pincha Solmon Forsiyga, Alloh undan rozi bo‘lsin, murojaat qilar ekanlar. Bir kuni «Mening ayb va qusurlarimni ayting», deganlarida Solmon Forsiy avval u hazratdan uzr so‘rab keyin: «Eshitishimcha, dasturxonga ikki xil ziravor qo‘ydirarmishsiz. Biri kunduzi, ikkinchisi kechasi kiyadigan maxsus ikki shimingiz bor emish?» - debdilar. Hazrat Umar bu dashnomni eshitib: «Bulardan boshqa yana aybim bormi?» - deb so‘rabdilar. Solmon Forsiy «Yo‘q», - deb javob qilganlarida u sharaflil zot: «Shu ikkisi ham menga yetarli», - degan ekanlar. Hazrati Umar Huzayfadan, Alloh undan rozi bo‘lsin, ham o‘z qusur va ayblarini so‘rab turar ekanlar. Hatto bir kuni u kishidan: «Sen munofiqlar masalasida Alloh Rasulining sirdoshi eding. Menda munofiqlik alomatlaridan biron belgi ko‘rsanmi?» - deb so‘ragan ekanlar. Hazrati Umar o‘z qadr-qimmatlarining yuksakligiga va martabalarining balandligiga qaramay, o‘z nafslarini hamisha shunday shubha ostida tutar ekanlar. G‘azzoliy hazratlari ta‘kid etmishlarkim: «Odam qanchalik aqlli va daraja jihatidan qancha yuksak bo‘lsa, kibr va havo jihatidan shu daraja kichik bo‘ladi. Nafsini eng katta shubha ostida tutadigan inson ham shudir».

«Lekin, ochig‘ini aytganda, bunday xislatlarning bahosi oshib ketdi. Juda oz kishilar bunday fe‘l-atvorlarga egadirlar. Do‘stu ulfat, oshna-og‘aynilar orasida bir-biriga laganbardorlik qilmaydiganlar, birining ayb va qusurlarini naridan beri yoymaydiganlar, hasad qilmaydiganlar juda ozayib ketdi. Do‘st-ulfat, oshna-og‘aynilar ichida, hech shak-shubhasiz, hasadgo‘ylar, g‘arazgo‘ylik bilan ish yuritib, ayb va qusur bo‘lmagan bir harakatingni ayb va qusur deb gap tarqatuvchilar yohud tabiiy laganbardorligi tufayli qusur va ayblaringni yuzingga aytmaydiganlar bor. Mana shunday sabablarga ko‘ra Dovud Toiy insonlardan ajrashib ketgan edi. O‘zidan: «Nega insonlar bilan osh-qatiq bo‘lmaysan?» deb so‘ralganida shunday javob bergandi:

-Menga ayb va qusurlarimni aytmaydigan insonlar bilan yaqin yurib nima qilaman? Dindor kishilar uchun eng sevimli narsa - boshqalarning tanbehi bilan o‘z qusur va ayblaridan voqif bo‘lmoqdir.

Mana, buyuklarimizning holi!.. Afsuski, bizning zamonamizda ish tersiga qarab ketdi. Ahvol shu darajaga yetdiki, endi bizlarga nasihat qiladigan, ayb va qusurlarimizni aytadigan kishilarni eng yomon insonlar o‘rnida ko‘radigan bo‘lib qoldik. Bu - iymonimiz zaiflashganining alomatidir. Chunki yomon fe‘l-atvorlar - chaqong‘ich ilonlar

va chayonlardir. Agar libosimiz etagiga bir chayon yopishib, chaqay deb turganda bizga birov bundan xabar bersa, albatta unga minnatdor soʻzlarimizni aytamiz, sevinamiz va chayonni chertib tashlab, oʻldirishga chogʻlanamiz. Holbuki, bu chayonning zarari badangadir, beradigan azobi esa bir kun, yarim kun davom etadi. Yomon axloqning qalb sofligiga beradigan zarari esa qoʻrqinchliroqdir, oʻlimdan keyin esa abadiyan va yo minglarcha yil davom etadigan qoʻrqulikdir.

Shuni bilamizmi? Bilsak, nechun birov bizga qusur va ayblarimizni aytsa, bundan sevinmaymiz, bu qusur va ayblarni yoʻqotish bilan mashgʻul boʻlmaymiz. Aksincha, biz ham u kimsaga nasihat qilishga kirishamiz va shunday deymiz:

-Oʻzing ham shunday-shunday qilasan. Oʻzingning ham shunday qusurlaring bor!

Uning nasihatini shu tariqa qabul etamiz va teskarisini qilib, orada dushmanchilik tugʻilishiga sababchi boʻlamiz. Bu hol - gunohlar koʻpligi sabab boʻlgan qalb qashshoqligidandir. Bularning asli esa iymonning zaifligidandir...»

Mazkur satrlarni oʻqib «Toʻgʻri gaplar...» degandirsiz? Ha, barakalla! Lekin nima uchun qoʻshtirnoq orasida bayon qildik, shunga ahamiyat berdingizmi? Gap shundaki, bu aqli gaplarni biz toʻqimadik, balki Abu Homid Gʻazzoliyning kitoblaridan koʻchirdik. Qarang, bundan salkam ming yil muqaddam aytilgan fikrlar bugungi kunga mos kelib tursa? Bu nima, asrlar davomida insonlar yaxshilik sari siljimidilarmi? Iymon zaifligi to hanuz saqlanib qolyaptimi? Yoʻq, bunday xulosaga bormaslik kerak. Badbinlikka berilmoq ham oʻrinsizdir. Har zamonaning oʻziga xos fazilatlar va oʻziga xos qusurlari mavjud. Bu foniy dunyo - imtihon dunyosi ekan, har bir avlod bu imtihondan oʻziga xos tarzda oʻtadi. Har bir avlodning afzalliklari va gunohlari ham boʻladi. Shayton alayhilaʼna to qiyomatga qadar odamzotga dushmanlik qilar ekan, to qiyomatga qadar unga qarshi jihad - ruhiy jihad davom etajakdir. Agar bir birodarimizni bezori urayotganini koʻrsak, unga yordam berishga shoshilamiz. Ammo ne uchun shayton vasvasasiga tushib qolgan qarindoshimizni, qoʻshnimizni yoki doʻstimizni qutqarishga shoshilmaymiz? Yaqinda bir ulfatdagi namozxonlar shayton yoʻrigʻidagi birodarlarini insofga chaqirganlariga guvoh boʻlib edim. Bolalikdan birga ulgʻaygan doʻstlarning koʻplari iymon yoʻlida, ayrimlari hanuz shayton yoʻlidan qaytmagan ekanlar. Iymonlilari bu doʻstlariga nasihat qilishib: «yoshlaring oltmishga boryapti, shuncha yillarni aroqxoʻrlik bilan oʻtkazganlaring yetar endi. Alloh huzurida gunohkor ekanliklaring bir masala, yana bir masala - farzandu nabiralaring senlar tufayli isnodga qolyaptilar. «Aroqxoʻrning farzandi» degan malomat toshini koʻtarib yurishga orlanyaptilar», - desalar, u adashganlar: «Bizdan orlansalaring biz ulfatdan chiqdik!» -deb oʻrinlaridan turib ketishdi. Oʻzlaricha goʻyo mardlik qilishdi. Holbuki, bu mardlik emas, nodonlikning navbatdagi koʻrinishi edi. Agar ular desalarki: «Birodarlar, sizlarga rahmat, bizlarga toʻgʻri yoʻlni koʻrsatdilaring, sizlarning hurmatinglar uchun shu ondan boshlab aroq ichishni tashladik, shu ondan eʼtiboran peshonamiz joynamozga tekkuvsiz. Sajdani zinhor tark etmasmiz...» - mana shuni chin mardlik atasak boʻlardir. Ulfatchilikdagi noxush holatga guvoh boʻlgach, ustozlar bayonidagi bir ibratli voqea xayolimizga keldi:

Rivoyat qilishlaricha, Utbatulʻulom ismli bir kishi fisqu fujur ahlidan edi. Buzgʻunchilikda va sharobxoʻrlikda unga yetadigani yoʻq edi. Ana shu fasodchi va mayxoʻr odam bir kuni Hasan Basriy hazratlarining davrasiga kirib qolibdi. Hasan Basriy izdihom ahliga Hadid surasini oʻqib, tafsir qilib berayotgan edilar. «Iymon keltirgan zotlar uchun dillari Allohning zikriga va nozil boʻlgan haqqa (yaʼni Qurʼonga) moyil

bo'lish vaqti kelmadimi?! Yana ular uchun ilgari kitob ato etilgan, so'ng payg'ambarlaridan keyingi muddat uzaygach, dillari qotib ketgan kimsalar (ya'ni yahudiy va nasroniyalar) kabi bo'lib qolmaslik vaqti kelmadimi? Ulardan ko'plari fosiqdirlar (ya'ni itoatsizdirlar)», - mazmunidagi oyatni o'qiyotgan onlarida u kishi kirib keldi. Oyatni o'qiganlaridan so'ng chiroyli suhbat qildilar, shunday suhbatki, butun jamoatni yig'latdilar. Shu orada yoshgina bir yigit o'rnidan turdi va Hasan Basriyga xitoban shunday dedi:

-Ey mo'minlarning eng go'zal axloqlisi! Alloh menday fisq-fujur sohibi - gunohkorning tavbasini ham qabul qiladimi?

-Ha, azamatim, agar boshqa bunday qilmaslik sharti bilan yomon fe'l-atvorlaringni tark etsang va Allohdan afv tilasang, seni ham kechiradi.

Yigit bu so'zlarni eshitganda rangi o'chib, bir «oh» tortdi-yu, hushidan ketdi. O'ziga kelganda Hasan Basriy unga yaqinlashdilar-da, bu baytni o'qidilar: Ey Allohga qarshi yigit, osiy sang'i, Gunohkorning jazosi ne, bilasanmi? Osiylarning joyi - saqar. Yonar o'zi, Shiddatli o't ichra pishar go'zal yuzi. Mayli, o'tda yonar desang - Haqni unut... Yo o'zingni gunohlardan uzoqda tut...

Bu baytni eshitib, Utbatulg'ulom ham bir «oh» ko'tarib, hushidan ketdi. Hushiga kelganida Hasan Basriyga yuzlanib:

-Ey, ustod,-dedi.-Marhamati keng bo'lgan Alloh menday gunohkorning tavbasini ham qabul qiladimi?-deb so'radi.

-O'z-o'ziga jafo qila olgan bandaning tavbasini karamli Allohdan boshqa kim ham qabul eta olardi?- deb javob berdilar Hasan Basriy.

Shundan keyin Utbatulg'ulom boshini ko'tarib, Allohga uch xil duo o'qib, yodbordi:

-Allohim, tavbamni qabul qil, gunohlarimni afv et, menga tushunishni va o'rganishni hamda o'rganganlarimni muhofaza eta olish qobiliyatini berki, o'zlashtirganlarimni va uning ilmiy asoslarini aqlimda tutay.

-Allohim, menga shunday bir go'zal ovoz berki, mening Qur'on o'qishimni eshitgan har kimsaning - qalbi qayg'uga cho'mgan bo'lsa ham - qalbida mehr ortsin!

-Allohim, menga halol rizq nasib et va o'zim kutmagan joydan rizqlantir...

Allohga dildan qilingan bu duolarning natijasi o'laroq yigitning tushunish qobiliyati va zakosi ortdi, o'rgangan ilmiy asoslarini hech unutmaydigan bo'ldi. Uning Qur'on o'qishini eshitgan har kishi tavba qilar, yomon fe'llaridan voz kechar edi. Har kuni uyiga bir kosa sho'rva bilan ikki lochira kelardi. Bular qaerdan va kim tomonidan yuborilganini hech kimsa bilmas edi. Bu hol to uning o'limiga qadar davom etdi...

Ha, yolg'iz Alloh uchun yomon fe'llaridan voz kechib, ilohiy axloq asoslariga rioya qilganlarning hayoti shundaydir. Alloh, yomon fe'llarni tark etib, yaxshi fe'l-atvor bilan naqshlangan va go'zal amallar ado etganlarning mukofotlarini albatta beradi.

Biz guvoh bo'lganimiz ulfatchilikdagi adashganlarga bunday mukofot nasib etmadi, afsus... Bilishimizcha, ular arazlab keyingi yig'inga kelmabdilar. Ular debdilarki: «Bizning ichishimiz bilan ularning nima ishlari bor, ichib olib ularni urmasak, so'kmasak...» Dillari bu qadar qotib ketgan ekan, fosiqlik libosiga bu qadar chirmashib o'ranib olgan ekanlar... Alloh insof bersin ularga.

Hech birimizga sir emaskim, adashgan bandalar orasida o'zimiz uchun eng ardoqli bo'lmish insonlar - birovimizning ota-onamiz, birovimizning og'a-inilarimiz, yana birovimizning yaqin yoki uzoqroq qarindoshimiz, yana qo'shnimiz, hamkasbimiz... ham bor. Ehtimol ular hidoyatdan adashganlarini bilarlar, ehtimolki, bilmaslar. Bilmaganlarga bildirib qo'yish vazifamiz emasmi? Ehtimol ular iymonsizlik jaridan qutulmoqchilari ammo to'g'ri yo'lga chiqishga kuchlari yetmayotgandir. Ularga yordam qo'lini uzatib, iymonsizlikdan qutulishga ko'maklashish burchimiz emasmi?

Qur'oni Karimning «Nahl» surasida shunday mazmunli oyat bor: «(Ey, Muhammad!) Rabbingizning yo'li (dini)ga hikmat va chiroyli nasihat bilan da'vat qiling! Ular bilan eng go'zal uslubda munozara qiling! Albatta, Rabbingizning o'zi Uning yo'lidan chalg'igan (adashgan) kimsalarni yaxshi bilguvchi va U hidoyat topganlarni ham bilguvchidir.» Mazkur oyatda Alloh taolo payg'ambarimiz Muhammadga, sollallohu alayhi va sallam, va u kishi orqali da'vatchi ummatlariga Islom da'vati asoslarini va uslublarini bayon qilib bergandir.

«Fussilat» surasidagi oyati karimada: «(Ushbu Qur'on) iymon keltirganlar uchun hidoyat va shifodir» deyilgan ekan, to'g'ri yo'lni, ruh xastaligiga shifoni o'zga yerlardan qidirishlarda ma'no yo'qdir. O'tmish jamiyatida nima uchun odamlar orasidan mehr-oqibat, mehr-muruvvat, mehr-hurmat ko'tarildi? Nima uchun zulm to'foni avjiga chiqdi? Nima uchun ko'plar buzuqlik botqog'iga botdi? Sabab: cho'kayotgan odam xasga tirmashib umid qilganiday, zaif mafkuradan najot kutdilar.

Ota-onalarning tarbiya usullari, nasihatlari hidoyat va shifo bulog'idan mahrum bo'lgani uchun ham shirin meva bermadi.

Hazrati So'fiy Ollohyor «Sabotul ojiziyn» deb nomlangan durdona asarlarida shunday deydilar:

Xudo qilsa nido: «e bandayi zor,

Na kelturding, na turluk qilmishing bor?»

Mazkur baytni donishmand olimlardan Tojuddin shunday sharhlaydi: qiyomatda Xudoyi taolo bandalariga aytadi: «Ey bandalarim, mening huzurimga nima amallar bilan keldingiz va nima ishlar qildingiz?»

Tanu teringda totlig' jon yarattim,

Bahoyim qilmadim, inson yarattim.

...va yana aytadi: «Ey bandalarim, tanlaringizga aziz jon berdim, to'rt oyoqli hayvon emas, komil aql egasi inson qilib yaratdim.»

Hamisha ayladim tarbiyatingni

Nag'u qilding parishon niyatingni?

«Seni otalaring pushtida, onalaring qornida tarbiyalab, dunyoga keltirdim. Dunyoga

kelganingdan so‘ng ham turli-turli ne‘matlar bilan tarbiya qildim. Xo‘sh, nega endi niyatingni buzib, mendan boshqani do‘st tutding?»

Kommunistik jamiyat umrini yashab bo‘lgach, nazarimizda nopoklik barham topganday bo‘ldi. Ammo bu masalada xulosa chiqarishga shoshilmang, azizlar. Jamiyat yo‘q bo‘lgani bilan uning rahnamosi-shayton tirik. Shaytonga sajda qiluvchilar esa kam emas hali. Yaqinda xalqaro Nobel’ mukofoti bilan taqdirlangan moskvalik Ginzburg degan fizik olim televidenie orqali gapirib: «Xudo yo‘q, qiyomat, farishtalar, u dunyo degan tushunchalar quruq safsata», deb ochiq aytdi. Bu shunchaki bir odamning fikri emas, uning atrofida necha yuzlab yoki minglab yoki undanda ko‘p maslakdoshlar borligini unutmaslik kerak. Agar u yolg‘iz bo‘lganida bu qadar shakkoklikka jur‘at qilolmagan bo‘lar edi. Biz ayni o‘rinda xudojo‘ylik yoki shakkoklik xususida bahs yuritmoqchi emasmiz. Maqsadimiz axloq asoslariga nazar tashlash ekan, savol bermoqchimiz: «Xudoga ishonmaydigan odam boshqalarga yaxshilikni ravo ko‘rishi mumkinmi? Uni axloq bobida komil inson deya olamizmi?» Deylik, o‘sha «olim» (aslida uni «olim» deyishga til bormaydi, qo‘shirnoq orasiga olganimiz boisini anglarsiz) mukofotini olish uchun Norvegiyaga boradigan paytda onasi (xotini yoki farzandi) o‘lim to‘shagida yotibdi. Xo‘sh, u safardan voz kechadimi? Onasining yonida o‘tirib rozi-rizolik tilaydimi? Bizningcha, bunday qilmaydi. Xudoni tanimagan onani taniydimi, ayting-chi? Bu ham o‘tmish jamiyat tarbiyasining mevasi. Shukrlarkim, keyingi o‘n-o‘n besh yil orasida ko‘plar bu botqoqdan qutula olishdi. Biroq... shayton yana qancha odamlar ko‘ziga bu sassiq botqoqni zilol suvli ko‘l suratida ko‘rsatyapti ekan?

Donolar aytmishlarkim, Odam bolasi kichik gunohga qasd aylasa, shayton der: «Buni qilgil, bunda ko‘p ziyon yo‘qdir.» Odam bolasi shayton so‘ziga kirib kichik gunohni qilgach, so‘ng kattarog‘iga o‘tadi. Bora-bora ish kufriklik bilan tugaydi. Shundan so‘ng bu kishi Allohning dargohidan yiroq bo‘lib qoladi. Yuqorida bayon qilganimiz donolar fikrini isbot etmaydimi? Atrofimizga qaraylik-chi, Allohdan yiroqlashayotganlarni ko‘rmayapmizmi? Ko‘rsak, qanday chora-tadbir qilyapmiz?

Yoshing yetgan sari fe‘ling saning yosh,

Ko‘zing yoshi qani, e mag‘zi yo‘q bosh?

Hazrati So‘fiy Ollohyor baytlarida bu ma‘no bor: «Yoshing ulg‘aygan sari hanuz yoshligingdagi narsalarni tilarsan. Qartayganingni bilmay hanuz havoiiy nafs ketidan quvarsan. Ey bema‘ni bosh, yig‘lash payting kelgan bo‘lsa-da, qani, ko‘zlargda yosh yo‘q-ku?»

Bunday hollarda ko‘zda yosh yo‘qligi ham bir fojiaadir. Bu o‘rinda shoir Allohdan qo‘rqib yig‘lashni nazarda tutyapti-ki, bunda hikmat ko‘pdir. Allohning Rasuli (s.a.v.) buyuradilarkim:

«Kimki Allohdan qo‘rqib yig‘lasa, ko‘krakdan chiqqan sut qaytib ko‘krakka kirmagunicha, u ham jahannamga kirmaydi» - ya‘nikim, ko‘krakdan chiqqan sut ko‘krakka qaytib kirmaganidek, taqvodorlar ham jahannamga kirmaydilar, deyilmoqchi. «Raqqiq ul-axbor» («Nozik xabarlar») degan kitobda shunday bir xabar bayoni bor:

«Qiyomat kuni bir kishini olib kelishadi. Savoblari bilan gunohlari qiyoslanib, gunohlari

og'irroq chiqqach, shunga yarasha jazoga tortish haqida amr berilganida, kipriklaridan bir tolasi tilga kirib, deydi:

-Ey Rabbim, sening rasuling hazrati Muhammad - unga saloming yog'ilsin - «Kim Alloh qo'rqividan yig'lasa, Alloh u ko'zni jahannam otashiga harom qiladi», deb buyurgan edi. Men dunyodaligimda sendan qo'rqib yig'lagan edim-ku?!

Shunda Alloh o'sha kishini afv etadi, dunyoda Rabbidan qo'rqib yig'lagan bir kiprik tolasidagi nam tufayli uni azobdan qutqaradi. Jabroil esa:

-Falon kishi Allohdan qo'rqib yig'lagan bir kiprik tolasi hurmati, jazodan ozod qilindi,- deb e'lon qiladi".

Biz tilimizda «axloq» degan so'zni tez-tez ishlatamiz. Ammo unga sifat bermaymiz. Odam zotiga qanday axloq zarur? Albatta ilohiy axloq - ya'ni Alloh tomonidan buyurilgan axloq. Buni «Rasulullohning axloqlari» deb atasak ham bo'ladi.

Ustozlar hikoya qiladilar:

«Bir odam cho'lda ketayotib badbasharani ko'radi va undan «Sen kimsan?»- deb so'raydi. Badbashara «Men sening yomon amallaringman», -deydi. U odam: «sendan qutulishning iloji bormi?»- deb so'raganida, u: «bor, buning uchun payg'ambarimiz Muhammadning (s.a.v.) go'zal axloqiga ega bo'lishing va unga salotu salom yo'llashing kerak!»-deb javob bergan ekan.

Ana shunday go'zal ilohiy axloqqa yetishmoqlik barchamizga nasib etsin! Bu baxtga odamiylik mulkiga ega bo'lmoqlik ila erishish mumkinligini unutmamak bas. Yusuf Xos Hojib hazratlari aytadilarkim: «Qiz ermas bu yalnchuq, kishilik qiz o'l» («yalnchuq» - odam demakdir, «kishilik» - odamiylik, «qiz» - «qadrli» degan ma'noni anglatadi. Hikmatning mazmuni: «Odamning o'zi qadrli emas, odamiyligi qadrlidir».) Ana shu qadrga yetishmoqlik yo'llarini izlab ko'raylik. Siz, muhtaram kitobxon bilan bu safargi suhbatlarimiz shu xususda bo'ladi, insha Alloh.

Duo qilaylik:

-Ya Rabbimiz Alloh! O'zingga erta-yu kech zorilik qilamiz: ishlarimizni pishiq qilmog'imizni, xom qoldirmasligimizni nasib et. Riyo, kibru hasaddan va barcha axloqi zamimadan bizlarni xalos qil, ulardan bezor bo'lguvchilardan qilgin bizlarni. Axloqi hamidalar bilan ziynatlanganlar safidan bizlarga joy ber.

-Ya Rabbimiz Alloh! O'zingning kaloming va rasuling hadisi shariflariga asoslanib tarbiya kitoblarini yozgan ulug' salaf allomalar, donishmandlarni O'zing mag'firat ayla. U sharaflil zotlarning kitoblaridagi hikmatlarni anglash uchun bizlardagi aql-zakovatni ziyoda etib, ularga amal qilishga muvaffaq qil. Bizlarni zohiriy va botiniy ilmlar bilan muzayyan qilgin. Qalb va ko'ngil ko'zlari ochiq, ma'naviy-ruhoniyl olamning turli-tuman go'zal his tuyg'ulariga sohib bo'lgan insonlardan ayla. Ichki olami nurga to'lgan, iymon ziyosi bilan munavvar bo'lgan e'tiqodli, shafqatli, marhamatli, go'zal axloqli qullaringdan ayla! Omiyn, ya rabbal olamiyn!

YO SAODAT - YO FALOKAT...

Bu bob inson ro'parasida turgan ikki yo'l va tarbiya mezoni xususidadir.

Ko'chada notanish bir yigit meni bexos savolga tutib qoldi:

-Hamonki, inson taqdiri hali tug'ilmasidan ilgariyoq belgilab qo'yilgan ekan, yomonning yaxshi bo'lishiga harakat qilmog'i behuda ekanda?

Masalani tushuntirib berishga zarur ilm kaminada yetarli bo'lmasa-da, savol berilgan, javob kutilmoqda edi. Aqlim yetganicha dedimki:

-Ha, kishining taqdirini Alloh hali tug'ilmasidan ilgariyoq belgilab qo'ygandir. Ammo kishining ro'parasida ikki yo'lni ham bergan: biri - hidoyat, ikkinchisi - zalolat. Bu yo'llardan birini tanlash uchun esa unga aql, zehn va farosat ham berilgan. Ayni choqda bu aqlni quvvatlantiruvchi kalomini ham tushirgan hamda hidoyat bilan zalolatni farqlashlarida to'g'ri yo'lni ko'rsatsin, deb bandalari orasidan o'zining rasulini ham belgilab qo'ygan. Kimki aqli va qalbi bilan kalomullohni anglabdi, Rasulullohga (s.a.v.) ergashibdi - u hidoyatga yetibdi. Kimki anglamabdi, anglashga intilmabdi yoki intilishni istamabdi - shaytonning etagini tutibdi va zalolat yo'lini o'ziga ma'qul ko'ribdi. Demak, Alloh bandaga ixtiyor berib qo'yibdi.

Bolalik va yoshligi ateistlaracha tarbiya («ateist» so'zining ma'nosi «xudosiz»dir) bilan o'tgani so'zlaridan sezilib turgan notanish suhbatdosh bilan shu tarzda fikr almashdik. Men qisqa suhbatda uning fikrini o'zgartira olishga qodir emas edim. Zero, qalblarni isloh etuvchi yaratgan Egamning yolg'iz O'zidir. Ana shu uchrashuvdan keyin tarbiya mezoni va asoslari xususida o'ylab qoldim va siz azizlar bilan niyat qilganim suhbatning dastlabki bobini shu mavzuga bag'ishlashni ixtiyor etdim.

Abdulla Avloniy hazratlari yozgan ekanlar: «Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak - tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdir. Tarbiya qiluvchilar tabib kapidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahll maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdur. Zeroki, «Hassinu axloqakum» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakka amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadur... Hukamolardan biri: «Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'lidir»,-demish. Shariati islomiyada o'z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak - otalarga farzi ayn, o'z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadir...»

Mazkur fikrlarni yaxshilab anglash uchun tarixga murojaat qilaylik: o'tmishda diyorumizda bir necha marta kuchli-kuchli davlatlar qad rostlagan va ko'p o'tmay nurab, yakson bo'lgan. Afsusli yeri shuki, davlatlarning yo'q bo'lishiga tashqi dushmanlarning zarbasi emas, ko'proq ichki nizolar sabab edi. Xususan, amir Temur saltanatining tarixini eslaylik. Bu holatni tarixchilar qanday sharhlashsa sharhlashsin, lekin biz deymizki, dunyoni lol qoldirgan saltanatning yemirilishiga shahzodalarning yaxshi tarbiya ko'rmaganlari sababdir. (Bu xususda keyingi boblarning birida alohida to'xtalib o'tarmiz, insha Alloh).

Endi bizlarni bir masala ko'p o'ylantiradi: tarbiyachi kim? Ota-onami, maktab muallimlarimi? Biz bu haqda «Jinoyatning uzun yo'li» deb atalmish risolada batafsil fikr yuritganimiz sababli so'zni muxtasar qilamiz. Faqat bir narsani ta'kidlaymiz: bola «Sen tarbiyalashing kerak», deb goh u yoqqa, goh bu yoqqa oshiradigan koptok emas. Farzand tarbiyasiga ota-ona mas'ul, maktab esa bu sohada ko'makchi. Ha, aynan shunday. Chunki

farzandning oilada olgan tarbiyasiga qarab ota-onasiga rohat yoki jazo keltirishini hamma biladi. Otaning ish-amali farzandiga singsa, uning xulqida jilvagar bo'ladi.

Bolani tergab-nazorat qilish ota-ona yuzining yorug'ligini ta'minlaydi. Tarbiyadan tashqaridagi bola bebosh va yaramaslik sari og'adi. Erka bo'lib o'sgan o'g'il-qizlar xatti-harakati ota-onaga mung va alam keltiradi. Shu bois ham Abdulla Avloniy ta'kid etganlaridek: «tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» deyilmish fikrni barchamiz birdek shior sifatida qabul qilmog'imiz lozim bo'ladi.

Afsuslarkim, ayrimlarimizning ko'ngillarimiz ko'chaga bog'langan. Ishga, ulfatga muhabbat oilaga bo'lgan muhabbatdan ortiq. Choyxonalarda, restoranlarda, turli ziyofatlarda yayrashga umrimizning hisobsiz soatlarini behuda sarflaymiz. Bola tarbiyasiga esa vaqtni qizg'anamiz. Sariq chaqaga arzimas matohlarimiz farzandlarimizga nisbatan qiymatliroq. Piyolani sindirib qo'ysa ayamay uramiz, guldonni sindirsa do'pposlaymiz. Agar aka ukasini ursa yana jazolaymiz. Holbuki, kattaning kichik, kuchlining kuchsiz ustidan hokim ekanini o'zimizning aynan shu harakatimiz bilan o'rgatyapmiz: gapga kirmagan kichikni yoki kuchsizni urish mumkin!

Bola sho'xlik qilsa «hali qarab tur, dadangga aytaman», deb qo'rqitamiz. Ota kelganda bola yomonlanadi. Ayni shu holatda ota-bola orasiga dushmanlik urug'i sochilganini fahm etmaymiz. Otani jazolovchi inson sifatida ko'rsatmay, ota kelganda uni izzat-hurmat bilan kutib olishni o'rgatish afzalroq emasmikin?

Abdurauf Fitrat hazratlarining bizga bir oz keskinroq, hatto qo'polroq tuyulishi mumkin bo'lgan bayonlari bor. Birga o'qiylik: «...ko'raylik-chi, biz musulmonlar, xususan turkistonliklar, o'z farzandlarimizga tarbiya beryapmizmi yoki yo'qmi? Savolning oxiridagi so'z bunga javob bo'la oladi, ya'ni «yo'q!» Men buni shunday isbot qilaman: biz, turkistonliklar bolalarimizdan ko'ra mollarimizga yaxshiroq qaraymiz. Eshak va qo'ylarimizni farzandlarimizdan ham ko'proq yaxshi ko'ramiz, deb aytmayapman. Yo'q-yo'q, bolalarimiz jonimizdan ham aziz. Ular nazarimizda hammadan suyukli va ardoqli. Lekin baxtimizga qarshi shuni e'tirof qilish lozimki, shuncha muhabbat va mehrga qaramasdan, eshak va qo'ylarimizdan kamroq tarbiyalaymiz! Mening bu so'zlarimdan hayron bo'lmang, sabr qiling, da'vomni isbotlayman. Falon narsani tarbiyalash, ya'ni uni asta-sekin kamolga yetishtirishdir. Nazarimizda qo'yning kamoli uning semizligi va sog'lomligidadir. Eshakning kamoli uning kuchi, oyoqlarining baquvvatligi va yaxshi yurishidadir. Faraz qiling, qo'zi yoki ho'tik sotib olib uyga keltirasiz. Diqqat bilan ularga qarab, bir muddatdan keyin qo'yni semirtirib, eshakni baquvvat va yo'rg'a qilasiz, ya'ni ularni tarbiyalab, kamolga yetishtirasiz. Ammo aziz farzandlaringizga shunday diqqat bilan tarbiya bermaysiz. Bahona qilasizki, bolangiz ham kamolga yetishgan. E'tiroz bildirishingiz mumkinki, biz mollarimizni boqishga qancha urinsak, farzandimiz tarbiyasiga ulardan yuz barobar ko'proq harakat qilamiz, deb.

Bu da'voingiz ma'lum bo'lsa-da, ammo to'g'ri emas. Dalil shulkim, kimning uyida moli bo'lsa, tekshirsa ko'radiki, yil davomida uning mollaridan bittasi ham kasal bo'lmagan, ammo farzandi hech bo'lmasa, uch marta xastalikka chalingan. Bas, ma'lum bo'ladiki, u kishi molining kasal bo'lmasligiga ko'proq e'tibor berar ekan. So'zingiz to'g'ri bo'lsa ham mening da'voyimga hech zarari yo'q, chunki bolaning sog'lig'iga e'tibor berish ham farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishni bildirmaydi. Haqiqatdan agar odam qo'y va

eshakka o'xshab kamol topishi sog'liq, bilaklarining kuchliligi bilan chegaralanib qolganida edi, biz ham farzand sog'lig'i uchun bo'lgan harakatni, farzand tarbiyasi deb atardik. Tanu to'shli va sog'lom bolani kamolga yetishgan deb qabul qilardik.

Odamning kamoli faqat sog'liq va kuchdan iborat bo'lmay, balki jismonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat. Odamning jismi, aqli va axloqi turli kasallik va nuqsonlardan uzoq bo'lishi lozim. Odam ham o'z manfaatini o'ylab, ham yaqinlarini baxtiyor qilishga qodir bo'lib o'sishi lozim. Zotan, bu mantiqiy olishuvlarga nima hojat bor?»

Bu fikrlar to'qson yil muqaddam bayon etilgan, lekin ayrim jihatlaridan bugun aytilayotganga o'xshaydi, shunday emasmi? Demak, tarbiyada hali yetarli ilgari ketolmabmiz. Bugun biz bola tarbiyasi deganda uni yaxshi kiyintirishni tushunyapmiz, katta pul sarflab o'qishga kiritishni anglayapmiz...

Agar avtomashinamiz buzilib qolsa, ustaxonada bir kun yoki bir hafta o'tirishimiz mumkin, ammo farzandimiz bilan bir soat yonma-yon o'tirib dars tayyorlashga toqatimiz yetmaydi.

Birodarlarimizdan biri maqtandi: «sinfdozlarimiz bilan do'stligimizni hech buzmaymiz. Har kuni ishdan keyin falonchi o'rtog'imiznikida uchrashamiz, choy-poy ichib, shaxmat-nardi o'ynab, televizor tomosha qilib, kechqurun ba'zan o'n bir - o'n ikkigacha o'tiramiz...» Albatta do'stlikni uzmaslik yaxshi, biroq, oila bag'riga barvaqt borish undan a'loroq. Har kuni uyiga kech borsa, bolalari bu vaqtda uxlab qolgan bo'ladi. Tarbiya bilan qachon shug'ullanadi? Nazarimizda bu birodarlarimiz do'stlikni mustahkamlash haqida noto'g'ri tushunchaga egalar, oila, farzand tarbiyasi, degan tushunchadan esa butunlay mahrumlar.

Hayot - imtihon ekanligini avvalgi bobda aytib edik, yana shu mavzuga qaytsak: imtihon bor joyda burch, javobgarlik, mas'uliyat bo'ladi. Inson ana shu mas'uliyat bilan dunyoga keladi. Barchamiz zimmasiga omonat yuklatilgan, imtihonda turgan insonlarmiz. Bu dunyo nash'ali, ammo asl joyimiz emas. Biz farzandlarimiz taqdiri uchun hujayralarning eng olis nuqtasigacha, vujudning har bir zarrasiga qadar javobgar bo'lgan kishilarmiz. O'zimiz jannatga kirsagu azob farishtalari farzandlarimizni jahannam o'tiga otsalar, yuragimiz bardosh berarmikin? Agar biron kishi farzandimizning qo'lga cho'g' bosaman, desa xotirjam qarab turamizmi? O'ylab ham o'tirmasdan himoyaga tashlanamiz! Xo'sh, nima uchun jigarbandlarimizni do'zax o'tlaridan himoya qilishni o'ylamaymiz? Bu bir masala. Ikkinchi masala - do'zaxiy farzandlarni "tarbiyalagan" ota-onaga jannat nasib etarmikin? Bu o'rinda jumla tuzishda xatoga yo'l qo'ydik: ehtimol «do'zaxiy bolalarni «tarbiyalash» emas, «bolalarni do'zaxbop qilib tarbiyalash» desak to'g'riroq bo'lar? Yo'q, eng to'g'risi - «bolalarni umuman tarbiya qilmagan»...

O'zlaricha do'stlik rishtalarini mustahkamlayotgan o'sha birodarlarimiz o'ylab ko'rsinlar: qiyomatda «nega o'rtoqlaringnikida choy ichmading, nega tun yarmigacha o'tirmading?» deb so'ralmaydi. «Sen o'zingni qanday tarbiya qilding va farzandlaringga nega tarbiya bermading?» deb so'raladi. Qiyomatdagi jazoga ancha vaqt bor. Bu dunyodagi jazo ko'p kuttirmaydi. Agar farzandi giyohvandlarga qo'shib ketsa (Alloh saqlasin!), buzuqlikni kasb etsa (Alloh saqlasin!) dardini kimga aytadi? Kimni ayblaydi? Kimdan najot so'raydi?

Go‘zal xulq va tarbiyali onaning xislatlari, yaxshi fe‘l-atvori farzandlarida ham namoyon bo‘ladi. Ular ham onalarining go‘zal xislatlariga ega bo‘ladilar. Tabobat fani onadagi turli ichki xastaliklar bolada ham bo‘lishini isbotladi. Irsiyat fani onadagi ichki xastaliklar bilan birga undagi ruhiy, ma‘naviy jihatlarning ham bolada takrorlanishini isbotlagan. Bu tarbiyani bola tug‘ilmasidan oldin, hatto oila qurmasdan oldin boshlash kerak, degani emasmi?

Ota o‘z farzandlariga meros etib molu dunyo emas, odob-axloq qoldirishi kerak. Mol-dunyo merosi kundun kun kamayib, odob-axloq merosi esa oshib boradi. Bu rivoyat fikrimizning dalili:

Misr hukmdori bilan Rum hukmdori o‘zaro kelishib, do‘stlik ahdini tuzdilar va oradagi adovatga barham berdilar. Hatto Misr hukmdori Rum hukmdorining qizini o‘g‘liga nikohlab, qizini esa Rum shahzodasiga uzatdi. Ularning do‘stlik va qarindoshlik aloqalari uzoq davom etdi. Bir kuni Rum hukmdori qudasiga bu mazmundagi maktubni yo‘lladi: -Ko‘zlarimizning nurlari bo‘lmish aziz farzandlarimizning bizlardan keyin ham farog‘atda yashamoqliklari uchun hozirdan chora-tadbir ko‘rishimiz kerak. Men o‘g‘lim uchun juda ko‘p oltin jamladim. Chiroyli bog‘ va saroy barpo ettirdim. Siz ham shunday qilgandirsiz?

Misr hukmdori maktubni o‘qib tabassum qildi va bu javobni yo‘lladi: -Azizim, men sizdan ko‘ra sal boshqacharoq yo‘l tutdim. Vafosiz mol-dunyo va matoqlariga iltifot etmaganim tufayli o‘g‘limga oltin javharlar emas, ilm, hunar, odob, axloqni meros etib qoldirishni istadim. Uni ilmi, hunarli, xushaxloqli qilib tarbiyaladim.

Uni yaxshi adab libosi bilan bezadim. Mol-dunyoga qachondir zavol yetadi, ammo men qoldirayotgan merosga hech zamon zavol yetmaydi. Bu meros farzandimni har qanday balo-ofatlardan omon saqlagay...

Birga o‘ylaylik: tarbiyasiz odam jonsiz jasad kabi emasmi?

Davruga qo‘shilguvchi har bir odam avval o‘zining tashqi ko‘rinishi, qiyofasiga qarab qabul qilinadi, so‘ng esa tarbiyasi va fazilatiga qarab taqdir etiladi. Kishidagi fazilat go‘yo farzand kabidir, uni avaylab saqlash va yanada barkamol etish lozim. Har bir odam, avvalroq aytib o‘tganimizday, o‘zini o‘zi tarbiya qilishga o‘rganishi kerak. Insonning ulug‘ligi o‘zini idora va tarbiya qilish kuchiga ega bo‘lishi bilan bilinadi. Buni tushunish uchun Iysodan (alayhissalom) bir rivoyatni eslaymiz: Iysodan (alayhissalom) so‘radilar: «Sizni kim tarbiya qildi?» Javob berdilarki: «Meni hech kim tarbiya qilmadi. Johilning jaholatini, axloqsizning axloqsizligini qusur va ayb sifatida ko‘rdim. Jaholat va axloqsizligidan qochdim». Mazkurni tushunish uchun qisqa izoh lozim. «Hech kim tarbiya qilmadi» deganlarida albatta atroflaridagi odamlar nazarda tutilgan. Chunki barchaning tarbiyachisi - Rabbisi Allohdir. Alloh o‘zining elchisini jaholat va axloqsizlikni qusur va ayb sifatida ko‘radigan qilgan. Ulardan qochish esa bu illatlardan nari turish, holi bo‘lish degan ma’noda.

Kishi o‘zini o‘zi tarbiya qilishga o‘rganishi lozim, degan fikrni quvvatlash uchun Abu Hurayra (roziyallohu anhu) rivoyat qilgan bir hadisi sharifning ma’no tarjimasini o‘qiyamiz. Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilarki: «Har bir mo‘min banda o‘z

birodarining ko'zgidir. U birodarida bir aybni ko'rsa, o'zida ko'rgan shunday aybni tuzatishga harakat qilishi kerak». Ya'nikim, biz birodarimizda hasad yoki chaqimchilik illatini ko'rib turibmiz. Uni tarbiya qilishimizdan avval biz o'zimizdagi o'sha illatni tuzatishga kirishmog'imiz kerak ekan.

O'zini o'zi tarbiya qilmoq qanday bo'ladi?

Og'zaki nasihatlarini eshitamiz, kitoblarda o'qiymiz, masalan, bu kabi:

Luqmoni Hakim o'z o'g'illariga debdilar: «Qarindosh urug'lardan aloqangni uzma, o'ylab ish tut. Odamlarni g'iybat qilma, odamlar yomon ishga bosh qo'shsa, sen ularga qo'shilma. Shoshilib ish tutma, boylik deb o'zingni g'am-qayg'uga tashlama. O'z qadrini bilmagan odamdan yaxshilik umid qilma. O'tirishlarda o'z joyingni bil, odamlarning so'zlariga quloq sol, odamlar so'rasa gapir, o'zingdan ulug'lar oldiga tushib yurma, odamlar ichida boshingni quyi solib o'tirma, o'ngu chapga qarayverma, mehmonlar oldida birovga o'shqirma, mehmonga esa ish buyurma. Mast va devona odamlar bilan hamsuhbat bo'lma. Bekorchi odamlar bilan ko'chada o'tirma. O'z foydangni o'ylab obro'yingni to'kma. O'ziga bino qo'yuvchi takaburlardan bo'lma. Xusumatdan uzoq bo'l, senga ish buyursalar bajar, va'da qilsang, albatta uddasidan chiq. Hech kimni ranjitma...»

Hindistonlik donishmand esa o'g'liga bunday nasihat qilibdi: «Aziz o'g'lim, qo'lingga kirmagan yoki qo'lingdan ketgan narsa uchun qayg'urma. Har yerda kurakda turmaydigan behuda so'zlar so'zlab yurishdan yiroq bo'l. Nokas, qurumsoq kishidan qarzdor bo'lma. U bilan aslo muomala qilma, keyin pushaymon qilasan. Sharm-hayosiz va baxil kishi bilan suhbatdosh bo'lma, shunday yaramas odamlar bilan qo'shni bo'lmaslikka harakat qil. O'z kuching orqasidan non topib yegil, tekinxo'rlikka o'rganma, olijanob mard odamlar bilan suhbatdosh bo'lsang, yaxshilik bilan nom chiqarasan. Maqtanchoq va ezma odamlardan hazar qil...»

Boshqa bir donishmandning nasihati budir: «Falokatga duchor bo'lishni istamasang - mag'rur va mutakabbir bo'lma. Rohatda yashashni istasang - dilingni hirsdan pok qil. Xoru zorlikni istamasang - ta'magir bo'lma, o'zingga yaxshilik qilinishini istasang - yaxshilik qil, hech kimga ozor berma, yaxshilikni ulug' ish deb bil. Qadr-qimmating oshishini istasang - baland himmatli bo'l. Ishing pushaymonlik bilan natijalanishini istamasang - avval yaxshiroq o'ylab, dono, tajribakorlar bilan kengashib, so'ngra ishga kirish. O'zingni hammaga sevdirishni istasang - fe'l-atvoringni tuzat, adabli, tarbiyali bo'l. Obro'ga, izzat va hurmatga ega bo'lishni xohlasang - halol mehnat qil. Hammaning qoshida ishonchli, marg'ub va maqbul odam bo'lishni istasang - yolg'onchilikdan saqlan, chaqimchi, ig'vogar bo'lma, ma'nisiz, tuturuqsiz so'zlarni aytib yurishdan hazar qil. Mabodo o'ng'aysiz holda qolsang, ishingda muvaffaqiyatsizlikka uchrab, qayg'u-hasrat ichida qolsang - dod-faryod qilib yurma, sabr qil. O'ng'aysiz holdan qutulish chorasiga kirish...»

Bu kabi nasihatlar donolarning bizlarga bergan yo'l-yo'riqlaridir. Ta'bir joiz bo'lsa, kishining o'zini o'zi tarbiyalashidagi bir rejadir. Endi rejani qanday tarzda amalga oshiradi -uning aqliga bog'liq.

Yuzaki qaralsa, bu nasihatlariga amal qilish uncha og'ir emas. Aytaylik, odamlar orasida

boshni quyi solmaslik, mehmonga ish buyurmaslik... Agar bu fazilat o'zimizda bo'lmasa, tez kunda o'rganib ketishimiz mumkin. Lekin ayrim fazilatlar - axloqi hamidalar borkim, unga erishish kunlar, oylarni talab etadi. Ya'nikim, kishi har daqiqa, har soat, har kun bu sohada o'zini o'zi tarbiya qilib bormog'i talab etiladi. Deylik, bir kun tarbiya etmadimi, yaxshi fazilatni bir kun unutdimi - izdan chiqib ketishi hech gapmas. Fazilatning o'rni uzoq vaqt bo'sh turmaydi, u bizni tark etdimi, darhol o'rni illat, yomon xulq egallaydi. Ba'zan kishi yaxshi xulqqa erishishni istaydi ammo buning uddasidan chiqish yolg'iz o'ziga bog'liq emas. Yomonlar bilan hamsuhbatlik masalasi bu fikrga misol bo'la oladi. Bir kishining zulmkorligini yoki razilligini bilasiz, lekin undan nari turishning iloji bo'lmay qoladi.

O'zgaga tarbiya berishdan ko'ra o'zni tarbiya etmoq yuz chandon og'irroqdir. O'zgaga tarbiya berish uchun bilimga yoki hayot tajribasiga tayanib, toqatingiz yetganicha nasihat qilasiz. Tarbiyalanuvchi nasihatlarinigizni quloqqa olmasa, qo'l siltab qo'ya qolasiz. Kishi o'zini tarbiya qilishi uchun esa juda mustahkam irodaga ega bo'lishi kerak. Chunki o'zni tarbiya etmoqlik vujudingizga hukmronlikni da'vo etayotgan nafs va shayton bilan olishib, yengmoqlikdir.

Aqlingiz deydiki:

-Shuncha yurganing yetar, hidoyat yo'liga kir. Bugun xizmatdan qaytgin-u, tahorat ol, poklan, solih qo'shnilaringga qo'shilib masjidga chiq, peshonangni sajdaga qo'y...

Shayton deydiki:

-Masjidga chiqishga ulgurasan, yoshing oltmishdan oshsin, bugun restoranga ziyofatga taklif etilgansan, maishatingni qil.

Aqlingiz deydiki:

-Chaqimchilik qilma, gunohga botasan.

Shayton deydiki:

-Shu odamning shu ishini xo'jayinga kirib aytsang, ishdan haydaladi, uning o'rniga o'zing o'tirasan...

Aqlingiz yana deydiki:

-Xizmatchi podshohga boshqa xizmatchini yomonladi. Shunda podshoh: «Gaplaringni tekshiraman, agar to'g'ri so'zlagan bo'lsang, chaqimchiliging uchun sendan nafratlanaman, seni dushmanim deb bilaman. Yolg'on so'zlagan bo'lsang tuhmatchiliging uchun jazolayman» degan ekan, sen o'sha xizmatchi holiga tushib qolmagin.

Shayton yana deydiki:

-Bu safsatalarga quloq solma, hozir unaqa podshohlar yo'q...

Shu o'rinda bahsni shsha hal qilib beradi. Agar iroda chinakam aql bilan quvvatlangan bo'lsa - yengadi. O'zini o'zi tarbiya qilishda yana bir muhim qiyinchilik borkim, uni «muhit» deb ataymiz. Kishining atrofida qanday muhit bor? Iymonlilar, yaxshilar bo'lsa bu tarbiya jarayoni yengilroq kechadi. Zalolatdagilar bo'lsa... og'ir, juda og'ir... Shu bois kishi atrofni aql ko'zi bilan kuzatib, yomon davralarni tark etishga jazm etmog'i shart. Botqoqda turib yuvinib, poklanishga urinishdan naf yo'q.

Endi tarbiyaning asoslari nimalardan iboratligi xususida fikrlashib olsak:

Fazilatni qo‘riqlaydigan go‘zal axloqni va yaramas yo‘ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlikni donolar muhim asoslardan hisoblaganlar. Yana: va‘daga - vafo, nasibaga - rizo, har bir baxtsizlikka qarshi chidamli bo‘lish, haqiqat va to‘g‘rilikka rioya qilish...

Insonni inson bo‘lishiga bois tarbiyadir va uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste‘dodga, ilmga va mashqqa.

Hazrat Navoiy debdilarkim: «Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik -zulmkorlikdir. Noqobil odamga esa tarbiya xayfdir. Tarbiyangni ayab, unisini nobud etma, bunisiga tarbiyangni zoe qilma.

Qobilg‘a tarbiyat erur ul nav'kim, guhar,
Tushsa najosat ichra yugay kimsa oni pok.
Gar it uzumiga kishi may birla bersa suv,
Bu tarbiyat bila qila olg‘aymu oni tok.»

(Qobiliyatli kishiga berilgan tarbiya gavhar kabi qiymatlidir. Gavhar najosatga tushsa ham yuvilsa tozalanadi, qiymatini yo‘qotmaydi. Ituzum may bilan sug‘orilsa ham ituzumligicha qoladi, hech zamon tokka aylanmaydi.)

Bosh aql va ilmga to‘lib toshsa ham, axloqni sira unutmash kerak: inson o‘zidagi ma‘naviy jihatlarni, vijdon va nafsni tarbiyalashi, ehtirosini boshqara olishi, xunuk odatlarni tark etishi, ilmiy yutuqlarini insoniyat foydasiga yo‘naltirishi kerak. Yo‘qsa, u to‘g‘ri yo‘ldan ozishi mumkin. Ya‘ni Vatan va xalqini mudofaa qilishga mas‘ul harbiy odamning tarbiyasi durust bo‘lmasa Vataniga xiyonat etishdan ham qaytmas. Bemorlarni halol va xolis ravishda davolashga qasam ichgan vrach qasamini buzar. Hatto poraxo‘r va sudxo‘r mol-dunyo evaziga yurtini boshqalar qo‘liga mustamlaka qilib berishdan ham tap tortmas.

Tarbiyalash shaxsiy namuna, og‘zaki yoki yozma nasihat yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ana shu nasihatlarini olmaydigan odam baxtli bo‘ladimi? (Bu haqda ham avvalgi bobda so‘z yuritib edik, takrorini qusur emas, ta‘kid sifatida qabul qilasiz, degan umiddamiz va bundan so‘ng ham ahamiyatli masalalarda shu kabi takrorlarga o‘rin beramiz.)

Ba‘zilarga nasihat qilsangiz malol oladi, hatto g‘azablanadi.

-Qizingiz tor shim kiyib, kindigini ochib yuribdi, yaxshi emas,-deysiz. Sizning niyatingiz xolis, bu yurishda yosh qizning (Alloh saqlasin!) buzuq yo‘lga kirib ketishi hech gapmas. Ammo birodaringiz buni fikr qilmaydi, unga ayni damda sizning aql o‘rgatishingiz yoqmaydi va deydiki:

-Mening qizim bilan ishing bo‘lmasin, o‘zingning bolalaringni tarbiya qilaver.

U nodon janobi Rasuli akramning (s.a.v.) «Ikki musulmon o‘zaro uchrashganida Alloh albatta ularni bir-biridan foydalantiradi», deganlari muborak hadislaridan bexabardir balki? Mazkur hadisda deyilmoqchiki, ikki musulmonning birlashgani ikki qo‘l kabidir: bir-birini yuvib poklaydi. Bitta qo‘l chala yuvadi, o‘zidan boshqasini yuvolmaydi. Ammo

ikki qo‘l bir-birini tozalaydi.

Nodonlarga nasihat bir rivoyatni yodga soladi:

Quyosh botib, dunyo yuzini zulmat pardasi qoplaganda jilovsiz izg‘irin har tomonga yugurib, maymunlar to‘dasiga hujum qila boshladi. Bechora maymunlar sovuqdan titrar va isinish uchun chora axtarar edilar. Ular nogoh yaltiroq qurti ko‘rib qoldilar. Uni cho‘g‘ deb o‘ylab, talay o‘tin yig‘ib, atrofiga qaladilar va hadeb puflayverdilar. Daraxt tepasidagi qush ularning bu nodonliklaridan kulib: «Bu olov emas, kechalari yaltirab ko‘rinadigan qurt», desa ham e‘tibor bermadilar. Shu asnoda o‘tkinchi bir odam ahvolni ko‘rdi va qushga qarab: «O‘zingni ko‘p koyitma, ular sening so‘zingga quloq soladigan, foydasiz ishdan voz kechadiganlardan emas. Ularga nasihat qilish - qilichni toshga urish va shakarni suv ostiga berkitish bilan barobardir»,-dedi. Qushning nodonligi maymunlarnikidan qolishmas edi, u odamning nasihatiga quloq solmay, maymunlarning xatosini tushuntirish uchun daraxtdan tushib, ular yoniga keldi. Maymunlar esa... uni o‘rab olib, boshini uzib tashladilar...

Hazrat Navoiy bejiz aytmaganlar: «Telba qulog‘iga pand - quyun oyog‘iga band» - ya’nikim, nodonga nasihat qilganing - bo‘roning oyog‘ini kishanlab olishga urinish kabidir...

Ayrim birodarlarimizning nasihatga munosabatlari sal boshqacharoq. Ular nasihatni keskin rad etmaydilar, ammo iymon yo‘lidan yurishni galga solaveradilar.

- Ichmang, birodar, haromdan hazar qiling,-deysiz.
- Xo‘p, tashlayman, falon tashvishimdan qutilib olay...-deydi.
- Qimor o‘ynamang...
- Xo‘p, keyingi oydan tashlayman...
- Savob ishlarga rag‘bat qiling...
- Xo‘p... xo‘p...

O‘nlab hatto yuzlab «xo‘p», «xo‘p»... ammo ahdida turmaydi. Nasihatni davom ettirsangiz «irodam bo‘shlik qilyapti», kabi bahonalarni taxlab tashlaydi. Ehtimol chindanam irodasi bo‘shdir. Biroq, buning iymon zaifligidan ekanini anglaydimi u birodarimiz? Nasihatga ko‘nsa-da, galga tashlayotgan, amalga oshirishni orqaga surayotgan bu birodarimiz hali uzoq umr ko‘raman, har qanday savobga ulguraman, deb o‘ylaydi. Ertaga bo‘lmasa indinga albatta tuzalishiga umid qiladi. Ammo bu umid insonni mahv etuvchi tuyg‘u ekanini anglab yetolmaydi. Axir kishi savobli ishni bir kun emas, hatto bir daqiqa ham ortga surishi mumkin emas-ku! Har bir odam, yoshmi-qarimi - farqi yo‘q, «hozir yoki bir ozdan so‘ng o‘lib qolishim mumkin. Darhol tavba qilib, yaxshi odam bo‘lay, yomon ishlarimni tashlay», deyishi zarur emasmi? Loqaydlik, ayshu farog‘at bilan umr o‘tkazish, toat-ibodat g‘amini yemaslik ko‘ngilni o‘ldiradi, bora-bora insonni mahv etadi. Hazrat Navoiy ta’kid etganlaridek: «shafqatli nasihatgo‘y gapini tinglamaganning

jazosi - afsuslanmoq va o‘zini koyimoqdir». Hazrat Hofiz Sheroziy deydilarkim: «Dono qariyalarning nasihatiga baxtli yoshlarga quloq soladilar». Abdurahmon Jomiy esa bunday deydilar:

«Quloqdan dilingga gar kirmasa nur

Sichqon kavagidan ne farqi bo‘lur?»

Donolardan biri degan ekan: «Ey do‘stim, agar senda fazl daryosining dur-gavhari bor bo‘lsa, ularni nasihatlarini qabul qilib, shu nasihatlariga amal qiluvchi yaxshilarning oyoqlari ostiga to‘k. Nasihatlarining zoe ketmaydi».

Xalqimizda «Gapni gapir uqqanga - jonni jonga suqqanga» degan ibratli maqol bor. Ma’lumingizkim, hazrati So‘fiy Oллоhyor «Sabotul ojiziyn» asarlarini avval fors tilida yozib so‘ng turkiy tilda ham bayon qilganlar:

O‘zimdek xastalar bo‘lg‘aymu deb shod,

Nasoyihdin ham andak ayladim yod.

Demoqchilarkim: «Bu kitobni turkiy bilan yozganimning yana bir sababi shuki, o‘zim kabi xasta ko‘ngillar uni o‘qib quvonsinlar. Buning uchun bir oz nasihat so‘zlar ham aytdimki, o‘qiganlar o‘gitlansinlar. Zeroki, esi bor kishi oz nasihatdan ko‘p ibrat olar. Ammo bir ahmoq uchun va‘zdan katta kitob o‘qib bersang ham zarra foyda olmaydi».

Nasihat tinglamas dili saxt mahjub,

Ko‘karmas, toshga yag‘mur yog‘sa ham ko‘p.

Demoqchilarkim: «Tosh ustiga qanchalik ko‘p yomg‘ir yog‘ib suv tushsa-da, o‘t chiqib ko‘karmagani kabi ko‘ngli qotgan kishilarga qanchalik o‘gitlar qilsang ham quloqlariga olmaslar. O‘zlari uchun biror foyda ola bilmaslar».

Bu fikr Baqara surasidagi: «so‘ngra shunday mo‘jizalarni ko‘rgandan keyin ham dillaringiz qotdi. Bas, u dillar tosh kabidir», oyati karimasi bilan quvvatlanadi. Yoki Hashr surasidagi «do‘zax egalari bilan jannat egalari barobar bo‘lmas», oyati karimasini «xayrli nasihatlarini quloqqa olib, itoat etuvchilar, o‘zlarini hidoyat yo‘lida tarbiya qiluvchilar - jannat egalari, zalolatni tanlagan, nasihatlariga ters qaraganlar esa o‘zlariga o‘zlari do‘zaxni tanlagandirlar» degan ma‘noda talqin qilsa ham bo‘lar, vallohi a‘lam!

Mazkur oyati karimaning davomiga diqqat qilaylik: «Agar biz ushbu Qur'onni biron toqqa nozil qilganimizda, albatta Siz u tog‘ni Allohning qo‘rquvidan egilib-yorilib ketgan holida ko‘rgan bo‘lur edingiz». Mazkurdan «ayrim insonlarning dillari tog‘ning toshidan ham qattiqroq bo‘lgani sababli ularga Qur'on oyatlari ham ta‘sir qilmas», degan ma‘noni uqsak ham bo‘ladi. Alloh shunday kimsalardan bo‘lib qolishdan barchalarimizni, qiyomatga qadar tug‘iladigan zurriyodlarimizni ham asrasin!

Og‘zaki nasihatlarini kunda ko‘p martalab eshitamiz. Avvalo nasihatning ta‘siri nasihatgo‘yning aqliga, bilimiga bog‘liq. Shuningdek, qanday vaziyatda nasihat qilish ham muhim. Mast odamga «ichma» deb nasihat qilish - shamolga qarshi qichqirish kabidir. G‘azabga minib bironni so‘kayotgan odamning qulog‘iga ham so‘kishning gunoh ekani haqidagi nasihatlar kirmaydi. Nasihatgo‘y tarbiyasidagi odamning yoshi, aql darajasini, ayni damdagi ruhiy holatini ham hisobga olishi shart. Aynan bir mavzu,

masalan, soʻkish haqida oʻn yoshli va yigirma yoshli bolaga bir xilda, bir xil uslubda gapirilmaydi. Tarbiya jarayonida donolarning «yoshlik -beparvolik, yigitlik - bir musobaqa, qarilik esa taassufdir», degan taʼkidlarini unutmamak durust boʻladi. Nasihat deganda biz kattaning yoshga oʻgitini tushunadigan boʻlib qolganmiz. Keksaroq odamga nasihat qilish bizga gʻalati tuyuladi. Holbuki tarbiya keksalar uchun ham zarur. Tarbiya maʼlum yoshga yetgach toʻxtamaydi. Barchamiz yaxshi biladigan «Beshikdan qabrga qadar ilm egalla» deyilguvchi hadisi sharif bizlarni shunga daʼvat etadi. Alhol, ilm olish ham tarbiyaning muhim asosidir.

Nasihatning yana muhim shartlaridan biri - nasihatgoʻy nasihat qilish uchun maʼnaviy huquqqa ega boʻlishi kerak. Yaʼni u biron fazilatni egallash haqida nasihat qilyaptimi, demak bu fazilat uning oʻzida boʻlishi kerak. «Birovning haqiga xiyonat qilma», deb aql oʻrgatsa-yu, oʻzi bozorda tarozidan urib tursa, gaplarining taʼsiri boʻlmaydi.

Tarbiyachilik, nasihatgoʻylik - masʼuliyatdir. Chunki bu vazifa Alloh tomonidan buyurilgandir. Hadisi qudsiyda oʻqiyamiz: «Bandalarimning ibodatlarida menga suyumlirogʻi -mening yoʻlimda yaxshi amallarga targʻib hamda xolis nasihat qilishdir». Eʼtibor beraylik: xolis nasihat ibodatlar oʻrnida tilga olinyapti. Imom Termiziy rivoyat qilgan sharaflil hadisda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: «Insonlarga yaxshilikni oʻrgatuvchi kishiga Alloh taolo, Uning farishtalari, osmon va yer ahli, hattoki kavakdagi chumoli, dengizdagi baliqlargacha -hammasi salavot aytadi». Koʻrinib turibdiki, toʻgʻri yoʻldagi tarbiyachi - nasihatgoʻyning martabasi shu qadar baland ekan. Demak, zimmasidagi masʼuliyat undanda balandroqdir.

Ilm oʻrgatadigan dargohlar koʻp: oʻrta maktablar, litseylar, kollejlari, institutlar, universitetlar, magistraturalar, aspiranturalar... Oʻrganish, oʻrgatish, ilm olish bor, ammo yaxshi tarbiya taʼlimini qaerda oʻrganamiz? Yaʼni sevgini, marhamatni, oʻz manfaatimizdan kechib, boshqa bir insonni quvontirishni, xolis, muxlis boʻlishni qaerda oʻrganishimiz kerak? Bir-birimizni sevishtirishni, bir-birimizga hurmat koʻrsatishni qanday oʻrganamiz? Bunga ham ustoz lozim...

Maktablarda odob darslari bor... haftasiga bir soat... Sahroda haftasiga bir tomchi suv bilan sugʻorib daraxt koʻkartirish mumkinmi? Yana... maktabda «soʻkma» deb oʻrgatadilar, uyga borganida soʻkishdan boshqa narsani eshitmaydi...

Mavlono Rumiy: «Modomiki, yunonlarning falsafasini oʻrganibsan, iymonlilarning ham falsafasini oʻrgan, u ham kerak!» - degan ekanlar. Endi gap boshqalardan oʻrganish haqida. Toʻgʻri, Amerikadan yoki Yevropadan oʻrganadigan jihatlarimiz ham bor. Aytaylik, kitobga boʻlgan qiziqish kabi. Ammo inkor etadigan tomonlarimiz koʻproq. Ularning oʻzlariga xos odob-axloqlarini kamsitmagan holda agar xolis ravishda taqqoslasak, koʻp jihatdan oʻzimizniki afzal ekanini koʻramiz. Masalan: ularning olijanobliklari bizning olijanobligimiz kabi emas. Ularning mehr-oqibatlari bizlarning mehr-oqibatlarimiz singari emas...

Oʻtgan yigirmanchi asrda jadidlar tarbiya haqida fikr yuritganlarida Yevropadan koʻp narsa olishga undaganlar. Millatning ravnaqini shu bilan bogʻlaganlar. Yevropaning ilm-fanda, madaniyatda ilgʻor ekaniga mahliyo boʻlganlar. Ularning fikriga bugun toʻgʻridan-toʻgʻri ergasha olmaymiz. Chunki tarbiya sohasida Amerika ham Yevropa ham keyingi yuz yil ichida tanazzulga yuz tutgan. Buni oʻzlari ham baʼzan tan oladilar va ijtimoiy

sohalarda turli tadqiqotlar o'tkazadilar. Fransiyalik adib Alber Kamyuning «Begona» degan asariga Nobel' mukofoti berilgan. Asar qahramoni hatto o'zining onasi o'limiga ham befarq, sevgi ham uning qalbini yumshata olmaydi, xullas u har qanday mehri-muruvvatdan begona bir ruhsiz tana. Asar qahramoni oddiy bir yigit emas, balki bugungi Yevropaning ramziy timsoli. Buni o'zlari ham tan olganliklari uchun yuqori mukofotga loyiq ko'rishdi.

Biz mahliyo bo'layotgan G'arb jinoyatchilikka qarshi chora topolmayapti. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan vahshiyliklar o'sha tomonlarda tug'ilyapti va jahonga tarqayapti. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan ahmoqliklar ham o'sha yerlarda tug'ilib, yuqumli kasallik kabi tarqayapti. Bunga birgina misol: erkakning erkak bilan (gomoseksualizm), ayolning ayol bilan (lezbiyanka) nikohlanishini nima deb ta'riflash mumkin? Yetti-sakkiz yoshli qizchalarni, o'g'il bolalarni o'g'irlab, zo'rlab (pedofil), so'ng o'ldirib yuborishni qanday izohlaymiz? Axir bu vahshiyliklar ommaviy tus olyapti-ku? Yaxshi, biz bu harom ishlarga Islom dini nuqtai nazaridan baho bermaylik, Rim papasining o'zi ham bulardan tashvishda-ku? U barcha mamlakatlar boshliqlariga maktub yo'llab, erkakning erkak bilan, ayolning ayol bilan nikohlanishini man etuvchi davlat qonunlari qabul qilinishini tavsiya etdi. Ammo bu tavsiya inobatga olinmadi. Masalan, Germaniya bundestagi bu masalani muhokama etib, bunday qonunning qabul qilinishi inson huquqlariga ziddir, degan qarorga kelibdi. Ana ahmoqlik! Gap qanday huquq haqida ketyapti? Buzuqlik qilish uchun ularga kim huquq bergan? Ular Lut alayhissalom qavmiga Alloh tomonidan yuborilgan qattiq jazoga nima sabab bo'lganini bilmasmikinlar?

Xo'sh, endi aytaylik, bugunda G'arbdan nima olishimiz mumkin? Biz olmaymiz, deb rad etsakda, bu hayvoniy axloqlarni targ'ib qiluvchi omillar turli kitoblar, internet tarmoqlari, televidenie orqali uyimizgacha kirib kelyapti-ku? Ularni qanday daf qilamiz? Bu haqda hech o'ylab ko'rganmisiz? O'zimizda aytaylik, «erotik tarbiya» degan ahmaqona yo'nalish tarafdorlari bor. Ular o'smirlarning shahvoniy hirsini uyg'otuvchi suratlar, fil'mlarni ko'rsatish bilan bolalarni tarbiya qilishmoqchi. Siz bunga nima deysiz? Ularga qarshi qanday chora-tadbir qo'llashimiz mumkin? Bir birodarimiz uyidagi televizorni berkitib tashlabdi. Shu bilan maqsadga yetamizmi? Ko'chalardagi internetklublar, videobarlar, diskotekalarchi?.. Uyingizdan ancha uzoqqa joylashgan litsey yoki kollejga «o'qishga ketdim», degan farzandingizning bu joylarga kirmay kelishiga ishonchingiz komilmi? Qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' bilan osh-ovqatni baham ko'ramiz. Ziyofatlarda tinmaymiz, bir-birimizga gap bermaymiz. Ana shu suhbatlarga diqqat qilaylik: tarbiya va uning usullari haqida hech so'z yuritamizmi? Yo'q! Nari borsa birovimiz farzandimizning qaysar bo'lib borayotganini aytib shikoyat qilib qo'yamiz. Endi esimizni yig'ib olaylik! Agar sel kelsa yakka-yolg'iz holda jon saqlash mahol. Bir-birimizning yordamimizga muhtoj bo'lamiz. Qaraylik: yomon tarbiya seli yopirilyapti, o'zimizning ruhiyatimizni, farzandlarimizni, yaqinlarimizni bu balo selidan qutqarish uchun qo'lni qo'lga berish vaqti yetmadimikin? Qo'lni qo'lga berish - shunchaki quruq gap emas. Polshaliklar buni amalda isbot etishgan. Bir kun, bir soat butun mamlakat aholisi ko'chaga chiqib, qo'lni qo'lga berib, jonli zanjir hosil qilishgan va giyohvandlikka qarshi kurashish yo'lida yakdil ekanliklarini ifoda etishgan.

Keyingi yillarda ilm dargohlarida islohotlar bo'lyapti. Qandaydir inglizcha sohalarni o'rgatadigan muassasalar, jamiyatshunoslik, ruhiyatshunoslik, iqtisodiyot va shu kabi dargohlar mavjud. Yana G'arbdagi turli fondlarning bo'limlari katta-katta pullar sarf

qilib, nimalar bilandir shug‘ullanishadi. Bular yaxshidir, bular jamiyat uchun zarurdir balki.

Lekin, takror so‘raymiz, insonga qaerda axloq o‘rgatiladi? Inson qaerda axloq ilmi bilan ta‘minlanadi? Gap o‘rgatish, ilm berish haqida borayotgani yo‘q. O‘rgatmoq - qaysidir sohaga oid ma‘lumot berish deganidir. O‘quv dargohlarida ilmi, ma‘lumotli bo‘ladi, ammo odam bo‘lish... Xalqimiz bekorga «Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin», demagan. Shuning uchun tarbiyaning zarurligini yana qayta-qayta ta‘kidlaymiz. Adabni, tarbiyani olganidan so‘ng kishi haqiqiy komil inson darajasiga yetishi mumkin. O‘zimizdagi yoki chetdagi universitetda faqat ilm olish bilan cheklangan zamonaviy bir inson komil odam bo‘la olarmikin? Chinakam go‘zallik nima ekanini his eta olarmikin?

Sayyidimiz Rasuli akram (s.a.v.) «Alloh go‘zaldir, go‘zallikni sevadi», - deb marhamat qiladilar. Ha, O‘zi go‘zaldir, go‘zallikni yaratgandir va go‘zal bo‘lgan narsani sevadi. Shuning uchun insonda go‘zallik tuyg‘usi, go‘zal axloq bo‘lishi shart. Go‘zallikka maftunlik - har bir ishni go‘zal tarzda, ya‘ni go‘zal axloq bilan bajarish talab etiladi. «Alloh sizlardan ishini mukammal tarzda bajaradiganingizni sevadi. Unday insonga marhamat qiladi», deb bashorat qiladilar janobi Rasululloh (s.a.v.). Bu o‘rinda musulmon kishining ishi sifatiga ahamiyat berilyapti. Islomda bir ishni sifatli bajarishga amr bor, ya‘ni bajarayotgan ishni go‘zal ravishda qilishi shart: qilichi eng o‘tkir bo‘lishi lozim, chinnisi eng go‘zal chinni bo‘lishi zarur, imoratlari eng go‘zal obida bo‘lishi kerak. Asrlar davomida qad rostlab turishi, buzilmasligi, xarob bo‘lmasligi, mangu va go‘zal bo‘lishi shart. Xullas, qo‘l urgan har bir ishni go‘zal va mukammal qilish, eng yuksak darajada, eng sifatli tarzda, muvaffaqiyatli ado etish uchun yaxshi tarbiya berilmog‘i zarurdir.

Abu Rayhon Beruniy hazratlari go‘zallikni «tashqi va ichki» deb bo‘lib, shunday fikr bildirgan ekanlar:

-Tashqi go‘zallik, qiyofadagi jamol - bular ikkovi ham yoqimli bo‘lishi kerak, odamlar o‘zaro uchrashganlarida ushbu go‘zal jamolni ko‘rishga rag‘bat qiladilar. Lekin shakl chiroyi ona qornida ato qilinadi, uni o‘zgartirishga hech bir zot qodir emas. Ammo xulq-atvoriga kelsak, uni Allohning amrlariga muvofiq davolab, tarbiyalab, go‘zal - pokiza tutib, yomon hollarga tushirmaslik mumkin.

Ummi Dardo (roziyallohu anho) aytibdilarkim: «Kechalarning birida Abu Dardo namoz o‘qish uchun o‘rinlaridan turdilar-da, tong otgunicha: «Ey Alloh! Meni chiroyli qilib yaratganingdek, axloqimni chiroyli qil!» - deb yig‘lab chiqdilar. Shunda men u zotdan: «Ey Abu Dardo! Nima uchun tun bo‘yi qilgan duoyingiz faqat axloqingizni chiroyli va yaxshi qilish haqida bo‘ldi?» - deb so‘radim. Abu Dardo: «Bir musulmon banda o‘z axloqini yaxshilashga harakat qilaverib, oxiri shu yaxshi axloqi uni jannatga kiritadi. Agar u axloqini yomon qilaversa, shu yomon axloqi uni do‘zaxga kiritadi», - dedilar».

Islomning biror amri behuda emas. Uning amrlaridan har biri amaliy bir tadbirga bog‘langandir. Islomning go‘zalligi nasihatni nazariy holga tashlab qo‘ymay, albatta tatbiqini ko‘rsatganidadir. Tarbiya ham aynan shunday.

Islomda ajoyib bir tarbiya tizimi, ichki tarbiya, axloq tarbiyasi bor. Jamiyatning komil insonga ehtiyoji bormi, demak, Islomga ham ehtiyoji bor. Din haqida bilmay turib gapiradiganlar qaysarlik, o‘jarlik va behuda gaplarni tashlab, avval Islom dinini chuqur

o'rgansinlar. Uyatsizlik, andishasizlikdan Alloh saqlasin!

Butun dunyoda go'zal axloqqa ehtiyoj bor. Turli dinlar, guruhlar, jamoalar har xil yo'llar orqali bu go'zallikka erishish uchun harakat qiladilar, yo'llar axtaradilar. Ularning aksari adash yo'llarda sarsari bo'lib o'tadilar bu dunyodan, ayrimlari esa halokat jariga ham qulaydilar.

Insonlarni qanday tarbiyalashni Islom yaxshi biladi. So'zdan - ma'noga, shakldan - ruhga, zohirdan - botinga kirib borishni biladi. Shu bois Islom shaklga ham e'tibor beradi. Chunki shakllar alaloqibat amalda go'zal ma'naviyatni yuzaga keltiradi. Masalan, salom berilib-berilib o'zaro muhabbat paydo bo'ladi. Shu zaylda Islom muhabbatga, o'zaro birodarlikka tashviq qiladi.

Muhabbatning esa buyuk savobi bordir. Bir-birlari bilan xafalashganlarning odatlari ma'lum: salom-alik qilmaydilar va shu harakatlari bilan muhabbatni bo'g'adilar. Oqibat esa bu muhabbatni butunlay o'ldirib qo'yishlari ham mumkin. Holbuki, bir inson boshqa bir insonning to'g'ri yo'lga kirishiga vasila bo'lishi, uni jahannam yo'lidan qaytarib, jannat yo'lga boshlashi, jannatni bo'lishiga sababchi bo'lishi dunyodagi barcha narsaga ega chiqishdan ko'ra yaxshiroq va xayrliroqdir.

Musulmonlik - go'zal, ammo musulmonlar orasida qusurli, nuqsonli birodarlarimiz, opa-singillarimiz ham borki, bu bizning afsusimiz, bu bizning qalbimiz jarohatidir. Birodarlarimiz, opa-singillarimizni qusur va nuqsonlardan qutulishlariga har birimiz imkonimiz qadar ko'maklashishimiz lozim bo'ladi. Buning uchun dinni bilishimiz kerak va bu bilimni tinmay boyitib borishimiz shart. Fiqh kitoblarida «Inson foydasiga va zarariga bo'lgan narsalarni bilishi lozimdir», deb ta'kidlanadi. «Qaysi narsa mening foydamga, qaysisi zararimga - buni bilsam, dinni yaxshi bilaman», degani bu. Din - axloqni tuzatishning eng yaxshi yo'lidir.

Kishi Islomga kirdi, besh vaqt namoz o'qiyapti, degani hali Islom axloqini egalladi, degan gap emas. Namozini o'qib, g'iybatdan bo'shamaydiganlar ozmi, boshqalarga zulm qiluvchilar-chi? Poraning nomini «hadya» deb o'zgartirib, haromdan qaytmayotganlar-chi? Ha, musulmon, agar o'zini o'zi tarbiya etolmasa oqibatda bu yomon odatlarning quliga aylanib qolish ehtimoli ham bor. Kin, adovat, hasad, kibrlanish, baxillik... kabilar yomon odatlardan ekanini va bular «axloqi zamima» deb atalishini bilamiz, ammo afsuski, undan qutulishga hammamiz ham rag'bat qilmaymiz, namozimizni o'qib yuraveramiz. Bir birodarimiz boshqa birov bilan achchiqlanib qolsa, darrov portfelidan joynamozini chiqarib: «nima deyapsan, men namoz o'qiyman!» deb da'vo qiladi. Biz buni Islom axloqi, deya olamizmi? Albatta yo'q! (Bu o'rinda muhtaram suhbatdoshlarimizga uzrimizni ham aytib o'tmog'imiz lozim: illatlarni tilga olgan kezlarimizda bular Islom diniga taalluqli degan fikr zinhor xayolingizga kelmasin. Yana ta'kid etamizkim, Islom dini benuqson, qusur bizlarda bor va tanqidimiz ham dinga emas, o'zimizga, ayrim birodarlarimizga qaratilgan. Maqsad - biron bir birodarlarimizni malomat qilish emas, balki qaysi illatlardan qay tarzda qutulish masalasiga barchalarimizning diqqatimizni tortish. Ayrim nuqsonlarni gapirganimizda ba'zi birodarlarimiz o'zlarini ko'rsalar, bizdan ranjimasinlar. Chunki biz faqat bir kishiga xos nuqsonlarni tilga olmaymiz. Bir kishiga xos ayb uning o'ziga aytiladi. Adabiyotda ko'pga xos bo'lgan gaplar qalamga olinadi.)

Sahobai kiromlar Rasulullohdan (s.a.v.): «Go‘zal axloq nima, ya Rasulalloh?» deb so‘rashganida, Sayyidimiz javob qildilarkim: «Senga zulm qilganni kechir, senga bermaganga sen ber, sendan aloqasini uzgan bilan aloqa o‘rnat, bordi-keldi qil». Axloq - insonlar orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim omil ekan, bu kabi hadisi shariflarni nazardan chetda qoldirishimiz mumkin emas.

Yovuzlik, yomonlik, razolat - insondagi yomon xulqning suyuqli farzandlari hisoblanadi va uning uch manbai bor: 1.Nafs. 2.Shayton. 3.Jaholat. Nafs va jaholat mavzuiga alohida bob ajratganimiz bois, ayni o‘rinda shayton xususida so‘zlashib olsak:

Shayton - biz ko‘rolmaydigan, ammo mavjudligi Qur'oni Karimda bildirilgan maxluq. Barchamiz «Aniqki, shayton sizlarga dushmandir, bas uni dushman tutinglar», deb Alloh tomonidan ogohlantirilganmiz. Shaytonning o‘z hizbi, guruhi bor: «shaytonul ins va jin», ya’ni insonlar va jinlar toifasidan ham shaytonlar mavjud. Kishilar orasida shaytonlashgan odamlar bor, ko‘rinmaydigan jinlardan ham shaytonlar mavjud, deydilar. Shaytonning o‘z olami bor - uni «shaytanat» derlar. Sulton saltanatni boshqargani kabi, shayton shaytanatni boshqaradi.

Dunyodagi insonlar ikki hizb - guruhdan iboratdurlar: birinchisi - hizbulloh, ikkinchisi - hizbushshayton. (Bu atamalarning siyosiy yo‘nalishdagi guruh va oqimlarga mutlaqo aloqasi yo‘q. Bu o‘rinda ruhiy olam tafovuti nazarda tutilyapti.)

Shayton inson ustidan qat‘iy hukm yurgiza olmaydi. Agar insonda mayl bo‘lmasa shayton unga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi. Alloh taborak va taolo marhamat qiladi: «Albatta iymon keltirgan va yolg‘iz Parvardigorlariga tavakkul qilgan zotlar ustida (shayton) uchun hech qanday saltanat - hukmronlik yo‘qdir. Uning (shaytonning) hukmronligi faqat (uni) do‘st tutib, (Allohga) sherik qilib oladigan kimsalar ustidadir». Demak, shayton mo‘minlarga osonlikcha ta’sir eta olmaydi. Faqatgina vasvasa qiladi. Gunoh ishlarni insonning ko‘z o‘ngida birma-bir jilolantirib, ulardan birini tanlash uchun inson qalbini vasvasaga soladi. La’natlangan shaytonning Rasululloh (s.a.v.) bilan bo‘lgan suhbatida uning o‘zi buni ta’kid etadi: «...qaraganlarga ayolni chiroyli qilib ko‘rsataman. Unga ba’zi ishlarni qildiraman. Masalan, «qo‘lingni, bilaklaringni tashqariga chiqar, ko‘rsat hammaga», deyman. Ayol darhol bu amrni bajaradi. Qo‘l-bilaklarini ochib, ko‘rsatadi. Keyin bu ayolning hayo pardasini tirnoqlarim bilan yirtaman... Ey Muhammad, biron kimsani zalolatga olib borish uchun qo‘limda imkon yo‘q. Men faqat vasvasaga solaman, bir narsani chiroyli qilib ko‘rsataman, xalos. Agar zalolatga olib borish uchun qo‘limda imkoniyat bo‘lsa edi, yer yuzida «La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh», deydiganlarni, ro‘za tutadiganlarni, namoz o‘qiydiganlarni hech holi qo‘ymasdim. Barchasini zalolatga boshlardim...»

Ba’zan bir ayb ish qilib qo‘ygan birodarimiz afsus chekadi-da «shayton yo‘ldan urdi», deb o‘zini o‘zi himoya qilib ham qo‘yadi: agar shayton adashtirmasa shu aybni qilmas edi. Lekin nima uchun shayton aynan shu birodarimizni yo‘ldan ozdira oldi? Nima uchun boshqa birodarimiz shu gunoh ishni qilmadi?

Endi tarbiyada shaxs namunasining o‘rni haqida fikrlashsak. Birovga nasihat qilinganda «Falonchiga o‘xshasang bo‘lmaydimi?» yoki «falonchidan o‘rnak olsang-chi!» degan dashnomni eshitib qolamiz. Chindan ham odamda boshqa bir odamning yaxshi fazilatlariga intilish mavjud. Ba’zan buning aksi ham bo‘lishi mumkin, ya’ni

yomonliklarini egallashga intilish ehtimollari ham bor. O'tmish jamiyatda shaxs namunasiga juda katta e'tibor berilardi. Buning uchun soxta qahramonlar yasalardi. Bolaga bog'cha yoshidan boshlab Leninday bo'lish tarbiyasi berilardi. Soxtalikning qanday oqibat bilan tugagani ma'lum. Biz - musulmonlarning baxtimiz shundaki, kimning shaxsidan namuna olishimizni Allohning o'zi belgilab qo'yibdi. «Botil mokisun 'alayh» - botil o'rnak bo'la olmaydi (botil - buzuq, behuda demakdir). Ha, botil o'rnak bo'la olmaydi. Haq o'rnak bo'la oladi. Ba'zi birodarlarimiz deydilar:

-Taqsir, falonchi bunday qiladi-ku, menam qilsam-chi?

-Taqsir, falonchi hoji to'yiga aroq qo'yibdi-ku, menam qo'yaverayinmi?

Aziz birodarim, siz buning o'rniga «Payg'ambarimiz (s.a.v.) shunday qilganlar, men ham shunday qilayin», deb ayting va shunday qiling. Lekin shayton qilgan bo'lsa bu ishdan qayting. Yomon xulq shaytonnikidir, undan qayting. Yomon xulq egasi sizga o'rnak bo'la olmaydi. Bir kuni Rasululloh (s.a.v.) davradagilardan: «Qiyomat kuni menga eng yaqin bo'luvchilaringiz kimligini aytib beraymi?»- deb so'rganlarida sahobalar jim turishdi. Bu savollarini ikki yo uch marta qaytarganlaridan keyin ular: «Yo Rasulalloh, aytib bering»,-deyishdi. Rasululloh (s.a.v.): «Ular axloqda xalqqa yoqimliroq bo'lganlardir»,- deb marhamat qildilar.

Payg'ambarimizning (s.a.v.) axloqi bilan axloqlanmagan bir odam tushida Rasulullohni ko'ribdi. Ajabki, Allohning rasuli unga hech e'tibor bermabdilar. Odamning bundan ko'ngli og'rib, so'rabdi:

-Ey Allohning rasuli, mendan xafamisiz?

-Yo'q,-debdilar Rasululloh (s.a.v.).

-U holda nega menga qaramayapsiz?

-Chunki men seni tanimayman,-debdilar Sarvari olam (s.a.v.).

-Nega tanimaysiz? Men sizning bir ummatingizman. Holbuki, olimlarning aytishlaricha, siz har bir ummatingizni ona o'z farzandini taniganidan ham yaxshiroq tanir ekansiz.

-To'g'ri aytding,-debdilar Payg'ambarimiz (s.a.v.),-lekin men senda mening go'zal axloqimdan biron alomat ko'rmayapman. Va sening menga hech salot-u saloming kelmadi. Mening ummatimdan birini tanishim - unda axloqimning qay darajada borligiga bog'liq.

U odam uyg'ongach, eshitganlarini o'ylabdi va shu ondayoq Rasululloh (s.a.v.) fe'l-atvorlarini o'z hayotiga tadbiq etishga kirishibdi. Bir muddat o'tgach, Allohning rasulini (s.a.v.) tushida takroran ko'ribdi. Rasululloh (s.a.v.) darhol:

-Endi seni tanidim, sen uchun shafokat qilaman!-debdilar.

Bunday deyishlariga sabab, endi u odam Rasulullohni (s.a.v.) sevar, ul muhtaram zotning go'zal axloqiga moslashgan edi.

Fikr qilaylik: biz ham shundaymizmi? Agar bizlarga ham (insha Alloh!)

Payg'ambarimizni (s.a.v.) tushimizda ko'rish baxti nasib etib qolsa Sarvari olam (s.a.v.) bizlarni tanirmikinlar?

Abu Abdulloh Jadaliy aytdilarkim: «Oyishadan (roziyallohu anho) Payg'ambarning, alayhissalom, oilalarida xulqlari qanday edi?» - deb so'radim. Onamiz aytdilar: «Xulqda insonlarning eng go'zali edilar. Fahsh so'zlarni so'zlovchi va fahsh ishlarni qiluvchi emas edilar, bozorlarda baqirib yuruvchi ham emasdilar. Yomonlikka yomonlik bilan

javob qaytarmas edilar, aksincha, gunohidan o‘tib, kechirar edilar».

Ey ko‘ngil, biz-chi? Biz bu masalalarda qandaymiz?

Abdulloh ibn Amr (r.a.) aytadilarkim: «Rasululloh (s.a.v.) ko‘pincha: «Ey Rabbim! Men sendan tan sog‘lig‘ini, nafsning yomon yo‘llarga boshlashdan saqlanishni, O‘zingga va xalqlaringga ishonchli bo‘lishni, yaxshi axloqli bo‘lish va taqdirga rozi bo‘lishga muyassar qilishingni so‘rayman», - deb duo qilar edilar».

Biz-chi? Biz duolarimizda Rabbimizdan o‘zimiz va yaqinlarimiz uchun go‘zal axloq tilaganmizmi?

Usoma ibn Shurayj aytdilar: «A‘robiylar Rasulullohdan (s.a.v.) so‘radilar: «Yo Rasululloh! Insonlarga berilgan fazilatlarining eng yaxshisi nima?» Rasululloh (s.a.v.) javob berdilar: «Insonlarga berilgan fazilatlarining eng yaxshisi axloqdir».

Mazkur hadisi sharifdan olinguvchi ma‘no: axloqning eng yaxshi fazilat ekani va Rasulullohning (s.a.v.) ana shu eng yaxshi fazilat egasi ekanliklari. Takror va takror demoqchimizki, yaxshi xulqni o‘rganish uchun uzoqlardan ma‘no izlamaylik, Sarvari olamning (s.a.v.) hayotlarini o‘rganish bizdagi yaxshi xulqlarni tarbiya etishga xizmat etadi. Shuning barobarinda xulfofi roshidin, ulug‘ sahobalar, tobein va taba‘a tobeinlarning yaxshi xulqlari ham biz uchun o‘rnakdir. Zotan, ular Payg‘ambarimizning (s.a.v.) xulqlarini o‘zlariga singdirgan xayrli zotlardir. Shunday ekan, har birimiz ko‘nglimizga murojaat qilib deylikki:

-Ey ko‘ngil! Nazar sol, dunyodan necha-necha ajdodlar yashab o‘tishdi. Hozir ular qanilar? Sen ularning nomlarini bizning zamonlargacha yetkazib kelgan ishlarni qilishga intil. O‘shalarga amal qil. Shunda tashvishlaring ariydi. O‘tmish donolari o‘limlari arafasida nimalardan afsus-nadomatlar chekishgan bo‘lsa, o‘sha ishlardan tiyil!

Yer yuzida biror ummat, guruh, jamoat yo‘qki, Alloh u yerga bir xabarchi, bir ogohlantiruvchi yubormagan bo‘lsin. (Masalan: Nuh alayhissalom, Lut alayhissalom...) Chunki inson farzandining nasihatga, tanbehga hamisha ehtiyoji bordir. Rasuli akramning (s.a.v.) irshod faoliyatlarini avliyullohlar, murshidi komillar, ulamoi a‘zam va mashoyixi kiromlar davom ettirib keldilar. Zotan, Payg‘ambarimiz (s.a.v.) marhamat qilganlar: «Olimlar - payg‘ambarlarning vorislaridir».

Suhbatimiz davomida Payg‘ambarimizning, alayhissalom, xulqlaridan bahramand bo‘lish haqida yana ko‘p fikrlashamiz, insha Alloh. Endi har birimizning boshqalarga va boshqalarning har birimizga bo‘layotgan va bo‘ladigan ta‘sirimiz haqida ham gaplashsak.

Avvalo, bir rivoyat:

Abdurahim ismli bir yigitning go‘zal otiga Mahmud ismli yigit ishqiboz edi, «sotgin», deb ko‘p yalinar, ammo Abdurahim uning iltimoslarini rad etardi. Oxiri Mahmud otga makr-xiyla bilan ega chiqishni ixtiyor qildi. Keksa va xasta odam qiyofasiga kirib Abdurahimning yo‘lini poyladi. So‘ng go‘zal otga minib o‘tayotgan yigit qarshisiga chiqib yalindi:

-Ey marhamatli o‘g‘lim, men manzilimga yetolmay qoldim, qaragin, ehtimol yana ozgina yursam jon taslim qilarman, menga rahm qilib, otingga mingashtirib ol. Haqqingga

duolar qilay.

Abdurahim uning makrini anglamay, otiga mindirdi. Mahmud esa otni choptirib qochdi. Sal nari borgach, to'xtab, manmanlik bilan dedi:

-Ey nodon, sen meni tanimading, men - Mahmudman! Otingni sot, deb qancha yalindim, sotmading. Ana endi otingdan umidingni uz!

Abdurahim uning gapini eshitib, debdi:

-Mayli, otni senga berdim, lekin bu qilgan ishingni birovga ayta ko'rma. Chunki bu aldanchiliging, xiyla-nayranging xalq orasida tarqalsa, ko'p kishilar sening yaramas yo'lingga kirib ketishlari mumkin. U vaqtda birov-birovning holiga rahm etmaydi. Xalqimiz orasida shafqat, marhamat, muruvvat kabi go'zal xislatlar yo'qoladi. Aldamchilik, mug'ombirlik va insofsizlik kabi yaramas illatlar avj oladi. O'tinaman, qilgan ishingni hech kimga aytma, men ham yashirin tutaman.

Bu xitob Mahmudga ta'sir qilib, iziga qaytibdi, uzr aytibdi. Abdurahim esa otni unga sotishga rozi bo'lib, oralarida do'stlik qaror topibdi.

Qissadan hissa: har birimiz qanday ishni qilmaylik, kimgadir o'rnak bo'lishimiz ehtimoli borligini unutmasligimiz kerak. O'tmish jamiyatda, dinga qarshi xuruj boshlaganida eng birinchi ziyolilarni ishga solishgan edi. Ziyolilar dindan chiqib, yomonlik namunasi bilan ommaga o'rnak bo'lishgandi. Shu bois ayniqsa jamiyatdagi taniqli odamlar har bir gaplarini o'ylab gapirishlari, har bir qadamlarini o'ylab bosishlari taqozo etiladi. Agar kimsa zalolat sari qadam tashladimi, bilsinkim, faqat o'zi gunohlar olami sari ketmayapti, qaysi bir omi ham unga ergashyaptikim, uning gunohi ham zimmasidadir.

Axloq tarbiyasi - o'zimizni yaramas mayl-havaslardan saqlash, ta'bimizdagi oliy fikrlarni taraqqiy ettirib, harakatimizni to'g'ri bir nuqtaga yo'naltirish demakdir. Axloq tarbiyasining g'oyasi - insonlarning komil va go'zal bo'lishlarini ta'min etishdir. Xulosa qilib aytsak: Tarbiya - inson tabiatining butun qobiliyatlarini muntazam, mutanosib va kelishgan bir suvratda orttiradi, insonni xayrli maqsadiga yetkazadi. Tarbiya - haqiqiy hayot maktabida talabalarga ilm berishdir. Tarbiya - insonlarni fazilatli, jamiyatga foydali qilib yetishtirish uchun eng qisqa yo'ldir. Tarbiyaning maqsadi - insonlarning avloddan avlodga taraqqiy ettirib, insoniyatning umumiy yuksalishiga xizmat qildirishdir.

Mazkur bobga shu tarzda yakun yasaylikda so'ng duo qilaylik:

-Alloh bizlarni musulmon holda, musulmon bir o'lkada, musulmon ota-onadan ulug' bir ne'mat ichida dunyoga keltirgan. Bu ne'matning qadrini, qiymatini bilishni, mukammal, komil musulmon bo'lishni, musulmonlarga, insoniyatga, eng go'zal xizmatlar qilishni barchalarimizga nasib etsin. Bashariyatga eng foydali insonlardan bo'lishni ham nasib aylasin. Rabbimiz huzuriga vazifasini bajargan, Uning sevgisiga, lutfiga, jannatiga, jamoliga musharraf bo'lgan bir qul o'laroq bormoqlikni nasib aylasin. Tarbiya berguvchi - tarbiyachilardan ham, tarbiyani qabul etib, unga amal qilguvchilardan ham Alloh rozi bo'lsin! Omin, ya Rab al-olamiyn!

SEVGAN SUYGANIGA ETAR ITOAT

Bu bob ishq-muhabbat ta'rifi, uning xillari, qalbdagi jilosi bayonidan iboratdir.

Ishq-muhabbat xususida ko‘p va xo‘b yozilgan. Donolardan biri: «Muhabbat o‘zi eski narsa, ammo har bir qalb uni qaytadan kashf etadi», degan ekan. Kishining mijozi har xil bo‘lganidek, uning ishq-muhabbatga doir his va tuyg‘ulari ham turlichadir. Shuningdek, toqatlarining darajalarida ham tenglik yo‘q. Demoqchimizkim, kishi ishq va muhabbatni bir xilda anglamaydi va qalbi bir xilda yona qolmaydi. Bir kuni Iskandar Zulqarnaynga xabar beribdilarkim:

-Falonchi qizingizni sevib qolibdi!

-Sevib qolgan bo‘lsa nima qilishim kerak?-deb so‘rabdi podshoh.

-Uni o‘ldirish kerak, farmon bering, - deyishibdi.

-Birov sevgani uchun, boshqa birov esa yomon ko‘rgani uchun o‘ldirilaverilsa dunyoda odamzotdan nom-nishon qolmaydi-ku?-degan ekan podshoh.

Ajabkim, bizlar ishq-muhabbat deyilganda ko‘proq yigit va qiz orasidagi tuyg‘uni tushunamiz. Shuaroning, ayniqsa bugungi shoirlarning satrlaridagi ishq va muhabbat shundan o‘zga narsa emas. Holbuki, ishq va muhabbatning qamrovi ancha kengdir. Avvallari «ishq» deyilganda ko‘proq bandaning Yaratganga muhabbati tushunilgan va qadim adabiyotda bu o‘z aksini go‘zal hollarda topgan. Yana ota-onaga muhabbat, odamlarning o‘zaro muhabbatlari (buni «hurmat» ham deb ataymiz), ona zaminga, ona Vatanga muhabbat, kasb-koriga muhabbat, farzandlarga muhabbat...

Hazrat Alisher Navoiy ishqning bayonini bunday tasvirlaydilar:

«Ishq - porloq yulduzdir, bashariyat ko‘zining nuru ziyosi shundan. Ishq - tovlanib turuvchi gavhardir - insoniyat tojining ziynati va bahosi shundan. Ishq - tole’ quyoshidir, qayg‘uli dillar tikanzori undan gulshan. Ishq - balqib turgan to‘lin oydir, qorong‘i ko‘ngillar kechasi undan ravshan. Ishq - keng dengizdir, har to‘lqini yuz aqlu xush kemasini g‘arq qiladi. U baland tog‘dir, har cho‘qqisining o‘tkir qirradi ming zuhd-taqvo egasining boshini uchiradi. Ishq- kuydiruvchi shu'ladir, ko‘pgina jon va ko‘ngillarni xashakdek yoqadi. Ishq- alangali chaqmoqdir, ko‘pgina jonu dillarni yolqini bilan kul qiladi. Ishq - ajdahodir, olamni damiga tortmoq uning tilagi. Ishq - qahrli podshohdir, olam ahlini yoppasiga qirmoq uning maqsadi, u har qancha qon to‘kkani bilan zerikmaydi, u har qancha odamni qon qilsa ham qoniqmaydi. Ishq - yashindir, aqlu din xirmonini kuydiradi, u bo‘rondir, kuyganlarning kulini ko‘kka sovuradi. Ishq - shunchalar qaysarki, uning oldida podshoh ham gado ham teng, u shunday zulmkorki, uning qoshida iflos-fosiq ham, pokdil oshiq ham bir... Dunyo bozorining g‘avg‘osi va dunyoda bor hamma narsalarning savdoxonasidagi shovqin-suroni - ishq tufaylidir...»

Ahli shuaro: «Agar so‘zning nazm lazzatidan harorati bo‘lmasa va she‘rning ishq haroratidan kuyishi bo‘lmasa, ularni nursiz sham' va boshliqsiz to‘da deb biling», degan fikrni bayon qiladilar. Shu o‘rinda qisqa bo‘lsa-da, o‘tmish nazm gulshani xususida suhbatlashsak. Gap shundaki, ayrim birodarlarimiz o‘tmish nazmida uchraguvchi ishq bayonining barchasi Allohga ishqni anglatadi, deydilar. Bu unchalik to‘g‘ri tushuncha emas. Ko‘p hollarda shuaro oshiq va ma’shuq hijronlarini bayonini berganda yigit va qizni nazarda tutadilar. Masalan:

Qani Shirin bilan Layliki sendin noz o‘rgansa,

Qani Farhodu Majnunkim, alarg‘a ishq o‘rgatsam...

...Ko‘zum ravshanlig‘ida bo‘lg‘ay, ey Bobur, base kamliq,

Agar qoshi bila yuzin hilolu kunga o‘xshatsam.

Mazkur satrlar alohida sharhga muhtoj emasdur. Endi Hazrati Navoiy baytlariga diqqat qilaylik:

Zohid, senga huru menga jonona kerak,

Jannat senga bo‘lsun, menga mayxona kerak.

Bu bayt sovetlar davrida shoirni xudosizlar safida ko‘rsatish uchun xizmat qildirildi. Sovet davrining nodon olimlari bu baytni: «Ey bu dunyodan kechgan telba odam, senga jannat va undagi hur qizlar kerak bo‘lsa, ola qol. Menga mayxona (ya‘ni restoran) va undagi nozli qizlar kerak», deb tushuntirdilar. O‘rislarda «Har bir odam o‘zining buzuqlik darajasida aqldan ozadi», degan maqol bor. Ehtimol ul aqli noqislar baytni chindan ham shu holda fahm etgandirlar. Ehtimol atayin buzib talqin qilgandilar - bunisi bizga qorong‘u.

Mazkurda shoirlar sultoni demoqchilarkim: «Ey zohid, sening bu dunyodan, xususan ahli ayolingdan kechishingga sabab jannatdagi hurlar ekan, mayli o‘sha hur qizlar senga bo‘laqolsin. Mening esa jannatga kirishdan umidim u qizlar emas, balki Allohim chehrasini ko‘rish. Sen jannat orzusida xayol qilib yuraver, menga ma‘rifat hosil bo‘ladigan davra, ya‘ni olimlar davrasi kerak.» (Kechayu kunduz ko‘p nafl ibodatlarini bajaradiganlarni «obid» derlar. Tarki dunyo qilib ibodatga berilgan taqvodorni «zohid» derlar.)

To‘g‘ri, jannatda yashamoqlik lazzati bor. Ammo chin oshiqlar uchun eng ulug‘ baxt - Yaratganni ko‘rish. Chunki Allohning solih bandalariga jannatda ko‘rinish va‘dasi bor. Jannat yo‘liga Allohni tanigan holda kirish - shoirning maqsadi. Allohni tanish esa ilm orqali bo‘ladi. Hazrati shayx Samadoniy Boyazid Bistomiy (qoddasallohu sirrahul aziz) debdilarkim: «Orifning kamtar darajasi uldurkim, muhabbat o‘tida yonib tugangay. Bir karra ma‘rifat halovati kishining ko‘nglida Firdavsdagi ming ko‘shkdan afzaldir.» Bu fikrda shayx hazratlari ma‘rifatni jannatdagi eng oliy bog‘dan ustun qo‘yib, Firdavсни inkor etayotganlari yo‘q. Aslida bu oliy ne‘matga faqat ma‘rifat egalari yetishadilar. Demak, fikrda bu ne‘matga erishish yo‘li ko‘rsatilyaptikim, Navoiy hazratlari «mayxona» afzalligini bayon qilganlarida shu muddaoni ko‘zda tutganlar. Xalq orasida, ayniqsa mayxo‘rlikni xushlovchilar orasida qadim adabiyotimizdagi «may», «mayxo‘rlik» so‘zlarini aynan tushunib, o‘zlari uchun fatvo o‘rnida qabul qiluvchilar ham bor. Ayniqsa Umar Hayyomni mayparastlarning piri o‘rnida ko‘ruvchilar mavjud. Avvalo Umar Hayyomniki deb kelingan ba‘zi ruboiylar u zotning ijodlari mahsuli emas ekan, mutaxassislar u kishidan ancha keyin yozilgan ruboiylarni aniqlaganlar. Ikkinchidan, ul zotning asarlarida ramz mavjud. Ko‘pchilik «May ich, oqilu dono bilan ich», satrini misol qilib keltiradi. Oddiy mantiq tarozusi bilan o‘lchasak, «oqilu dono» odam aroq ichmasa kerak, agar ichsa, ayniqsa nodon bilan ichsa u oqil va dono bo‘larmikin? Atoqli olimlarimizdan Aliybek Rustamiy deydilarkim: «Kamina birlamchi manbalarni mutoaola qilgunga qadar Umar Hayyomni mayparastlarning piri deb o‘ylaganman. Abdurahmon Jomiyning «Ey bodaparastan dar-i mayxona kujast?» ya‘ni «Ey mayparastlar, mayxonaning eshigi qaerda?» Navoiyning «Kofirmen agar qilmasam

oshom qadah» kabi satrlarni o‘qiganimda bular ichkilikdan parhez qilmagan ekan, degan fikrda bo‘lganman. Vaholanki, u azizlar jamiyatni amalparastlik, nafsparastlik, xurofot, urug‘chilik va diniy taassub natijasida kelib chiqadigan illatlardan davolashga harakat qilgan haqparastlar ekan. Jamiyatni sog‘lomlashtirish fikrida bo‘lgan ulug‘ bobolarimiz ichkilik, giyohiandlikning hamma turlariga qarshi bo‘lganlar.»

Yetuk san'atkorlar, xususan, qadim shuaroning asarlari o‘qilganda uning ikki jihatini - ma’no va suvratini, ya’ni mazmun va shaklini hisobga olish va ma’noning birlamchiligini yodda tutish kerak. Alisher Navoiy hazratlari «ma’no ahli ma’noga, suvrat ahli suvratga boqar», deydilar. Binobarin, asarni to‘g‘ri tushunish uchun uning ma’nosiga yetib borish kerak. «May» so‘zi va uning ma’nodoshlari asarning suvratida kelganda ichkilikni bildiradi. Lekin ma’nosida kelganda haqiqat ma’rifati, unga bo‘lgan ishq muhabbat va uni idrok qilgandagi lazzatni bildiradi. Bu holda «may» so‘zi istiora tarzida (badiiy o‘xshatma, bir so‘zning ma’nosini omonatga olib, boshqa ma’noda ishlatish) qo‘llanadi.

Ya’ni, «may» so‘zi mazmunan «haqiqat mayi», «ishq mayi» va «vasl mayi» degan iboralarga teng bo‘ladi. Bir narsani ikkinchi narsaga o‘xshatish uchun asos kerak. «Ishq, mehru muhabbat bilan may orasida qanday o‘xshashlik bor?» degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga Abdurahmon Jomiy «Lavomi» degan asarlarida javob berib bu o‘xshashliklardan o‘ntasini bayon qilganlar:

- may o‘zining asliy o‘rni bo‘lmish xum ichida o‘zganing ta’sirisiz o‘zidan-o‘zi qaynab o‘zini ko‘rsatishga harakat qilganidek, oshiqlar ko‘nglidagi yashirin ishq ham tashqi bir sababsiz g‘alayon qilib, zuhur etishga intiladi.
- may o‘z zoti haddida muayyan bir shaklga ega emas, qaysi idishga quyilsa, shu idishning ichki shaklini oladi. Xuddi shuningdek, ishq aslan mutlaq bo‘lib, uning zuhuri muhabbat ahlining qobiliyati va iste’dodiga yarasha sodir bo‘ladi. Oshiqlar orasidagi tafovut ishqning zotiy xususiyatiga emas, ularning ko‘ngul idishiga bog‘liqdir.
- mayning ham ishqning ham siroyati (ta’siri) yalpi jarayondan iboratdir. May kishining hamma a’zolariga ta’sir qilganidek, ishq ham oshiqning qonu joniga kirib, uning butun vujudini egallab oladi.
- may o‘zining ichkuchisini, ishq sevguchini mardu saxiy qilib qo‘yadi. Ammo may masti pulni ayamasa, ishq masti jonu jahonini, boru yo‘g‘ini baxshida qiladi.
- may ham ishq ham kishini botir, qo‘rqmas qilib qo‘yadi. Lekin may botirligi oqibatni ko‘ruvchi aqlning mag‘lub bo‘lishidan bo‘lsa, ishq shijoati haqiqat nurining g‘olibligidandir. Birinchisi shaxsni falokatu halokatga olib boradi, ikkinchisi abadiy hayotu saodatga boshqaradi.
- may ham ishq ham kishi boshidan kibru havoni uchiradi va niyozu tavozuga tushiradi. Biroq, ichkilikning oqibati xorligu razolatdir, pok ishq natijasi izzatu sharofatdir.
- may ham ishq ham sirni fosh qiladi. Asrlar davomida ayon bo‘lgan haqiqatu ma’rifat sirlarini ishq yuzaga chiqargan.

- may ham ishq ham kishini behush qiladi. Ammo may behushligi nodonlik va gʻafolatning eng tuban darajasidir, ishq behushligi esa sezgirlik va ogohlilikning eng oliy martabasidir.
- mayparast mayni ichgan sari yana koʻproq ichkisi keladi, ishqparast ham ishq dardiga muhtalo boʻlgan sari yana ortiqroq berila boradi. Lekin ichkuchi borgan sari odamiylik qiyofasini yoʻqotaveradi, sevguchining esa insoniy fazilatlarini orta boradi.
- may ham ishq ham nomus hayo pardasini koʻtaradi. Biroq, ichgan oʻzidan boshqani haqorat qilib, xalqqa ozor berishdan uyalmaydi, sevgan esa oʻzgalar uchun oʻzini xoru zor etmoqlikdan or qilmaydi.

Demak, qadim shuaroning mayparastligi insonparvarlikdan, nohaqlikdan mubarro haqparastlikdan, ilmu fan sevgisiyu maʼrifat ishqidan iborat ekan. May va ishqning yuqorida zikr etilmish oʻxshash jihatlari boʻlsa-da, ammo oqibat jihatidan ular bir-birlariga tamoman ziddir. Mutlaq lazzat haqiqat muhabbatida va uni idrok etishdadir! May haqidagi soʻzni hazrat Soʻfiy Olohyor baytlari bilan yakunlasak:

Kel, e soqiy, muhabbat jomidin may,

Xaridor ilgina bergil, payopay.

Maʼnosi shulki: kel ey soqiy, muhabbat sharobini bizlarga ichirgil. Uni bu xaridor qoʻliga ustma-ust quyib bergil. Bu yerda «soqiy»dan murod - Allohning Oʻzidir. «Xaridor» - solik.

Layli va Majnunning ishq haqidagi afsona koʻpchilikka maʼlum. Hazrat Navoiy bu haqda doston ham bitganlar. Keyinroq «Mahub ul-qulub»da bir hikoyatning bayonini beradilar:

«Naql qilishlaricha, ishqning hajr oʻti Majnun joniga ulashdi, zaif badaniga haroratli u oʻtning alangasi tutashdi. Har qancha muolaja qilsalar ham foyda qilmadi - kasali ortdi, isitma tushmadi. Bemor ogʻirlashib, jon talvasasiga tushganda, kimdir bu ahvoldan Laylini xabardor qildi. Parivashni bu xabar noshod etib, oʻz devonasining holini soʻrash uchun noma yozdi. Bir odam xatni Majnunga yetkazganida, uning tanida jon asari qolmagan edi.

Shu paytda mehribonlari Layli nomasini oʻqiganlarida bemorning eshitayotgani va taʼsirlanganini sezdi. Har gal noma takror oʻqilganda, bemor taniga jon qayta kiringandek boʻlar edi. Bemor kasaldan tuzalib, sihat-salomat boshini koʻtarguncha bu xatni takror va takror oʻqidi, sogʻaygach esa tumor qilib boʻyniga taqib oldi. Ishq alangasidan Majnun kasali tuzaldi va u soʻz takroridan badani quvvatga kirdi. Bayt:

Oshiqqa garchi zaʼfu marazliqdurur mizoj,

Maʼshuq zikri ul marazigʻa erur iloj.»

(Mijozi zaif va kasal oshiqqa yagona davo - maʼshuqni yodlashdir.)

Bu rivoyatni zohiran talqin etib, «Majnun degan yigitning Layli degan qizni sevib qolishi haqida», deb tushunmog‘imiz ham mumkin. Bizningcha, rivoyatning asl ma‘nosi uning botinidadir. Ya‘ni Allohning quli Majnun - oshiqdir. Oshiq ahlining dardini dunyoviy dorilar bilan davolab bo‘lmaydi. Behush oshiqqa ma‘shuqdan maktub keldi va u o‘qildi. Maktub -Allohning kalomi. Qur'on esa shifodur. Mavlono Fuzuliyning bu bayti ehtimol so‘zlarimizni isbot etar:

Ishq dardila xusham, el chek ilojimdan tabib,

Qilma darmon kim, halokim zahri darmonimdadir.

Deyilmoqchikim: «Men bu ishq dardi bilan baxtiyorman, sarxushman. (Allohni butun qalbi ila seva olish baxtini hech bir saodatga qiyoslash mumkin emas.) Bu holimdan mamnunman. Ey tabib, sen meni davolashdan qo‘l tort, voz kech! (Axir Alloh oshig‘ini davolashga urinish -Allohdan uzoqlantirishga urinish va bu undan buyuk baxtni tortib olib qo‘yish harakati emasmi?) Sen meni davolama, tashla bu doringni, bu dori-darmonda ajalim zahri bor. Men davolansam, nobud bo‘laman. (Mening Allohdan uzoqlashganim - o‘lim bilan barobardir.) Qo‘y, shu oshiqlikimcha qolay, shu xastaligimcha o‘lay! (O‘ladigan bo‘lsam ham shu oshiqlik holimda dunyoni tark etaykim, men uchun ma‘shuqning yuzini ko‘rish baxti ham bordir.)» Ishqni «dard» so‘zi bilan ham ifodalaydilar. Ya‘nikim, «ishq dardi». Haqiqiy ishq ahli bu dunyoda ishq dardiga shifo izlamos, shuning uchunkim, bu halokatdir. Ishq dardiga bu dunyoda shifo talab etmoq - nafs xitobiga quloq tutmoqdir. Demak, qalb Alloh jamoliga mushtoq emas ekan, o‘z farog‘atiga intiq ekan.

Demak, oshiq va ma‘shuqni ikki ko‘rinishda anglayapmiz: qiz va yigit o‘rtasidagi sevgi, Alloh va banda orasidagi ishq. Bu ikki tushuncha bir-birini inkor etmaydimi? Ikkala ishq bir qalbdan o‘rin olishi mumkinmi? Yigit va qiz orasidagi ishq ixtiyorsiz ravishda tug‘iladi, yashaydi, ma‘lum muddatdan so‘ng halok bo‘lishi ham mumkin. Bu ishq yo‘lidagi aziyatlar qo‘shilish onida tugaydi. Ilohiy ishq esa o‘zgachadir va bu haqda keyinroq fikr yuritamiz. Hozir ikki ishqning bir qalbdan qay holda o‘rin olishi haqidagi rivoyatlar bilan tanishamiz. Abu Homid G‘azzoliy hazratlaridan o‘qiymiz:

Sevgi - inson tabiatini zavqlantiruvchi huzurbash lazzatga mayl etishidir. Sevgining oliy darajasi «Ishq» deyiladi. Oshiqlar o‘z ma‘shuqalarining visoliga yetishmoq uchun hech nimalarini, hattoki jonlarini ham ayamagaylar. Hazrat Yusufni sevib, tillarda doston bo‘lgan Zulayho buning yorqin misolidir. Chindan ham Zulayho ishq yo‘lida mol-mulkini, hatto go‘zalligini ham yo‘qotadi. U

etmish tuyaga yuk bo‘ladigan inju javohirga sohiba edi. Bebaho zebigardonlarini Hazrat Yusufga bo‘lgan ishq yo‘lida sarf etadi. Kimda-kim «Men bugun Yusufni ko‘rdim», desa unga qimmatli marjonlaridan birini berardi. Shu tariqa, sovg‘a eta-eta hech bir narsasi qolmaydi. Har narsani «Yusuf!» deb chaqirardi. Unga bo‘lgan cheksiz ishq tufayli «Yusuf» kalimasidan boshqa hamma so‘zlarni unutmadi. Bosh ko‘tarib ko‘kka qarasa, yulduzlar marjonday tizilib, «Yusuf» ismini yozganday bo‘lib ko‘rinardilar.

Yana rivoyat qiladilarki, Zulayho iymonga kelib, Hazrat Yusufga tekkanidan keyin, o‘zini ul zotdan chetlatishga urinadi va toat-ibodatga berilib, uzlatga chekina boshlaydi.

Endi bu ishq Ishqning haqiqiy sohibi Allohga qaratilgan edi. Ahvol shunday ediki, Hazrat Yusuf uni tunda yotoqqa da'vat etsalar, u visol onini kunduzga surar, kunduz da'vat etsa, fursatni tunga surar va shunday derdi:

-Ey Yusuf, men sizni Allohni tanimasdan oldin sevgandim. Lekin uni tanigandan keyin aslida unga oid bo'lgan sevgidan boshqasiga o'rin qolmadi. Allohdan bo'lgan bu sevgimga boshqani sherik qilmayman.»

Ikkinchi rivoyat bundan bir oz farq qiladi. Qadimdan mashhur bo'lgan shayx San'on voqeasi ibrat jihatidan juda muhimdir. O'n birinchi - o'n ikkinchi asrlarda yashagan shayx San'on (ibn Saqqo)ning otashin sevgisi haqidagi qissa dunyoga mashhurdir. Badiiy adabiyotda bu qissani birinchi bo'lib Farididdin Attor 1221 yilda «Mantiqut-tayr» asarlarida nazmda berganlar. Biz hazrat Alisher Navoiy ijod yo'llarining yakuni hisoblanmish «Lisonut-tayr» dostonlarining bugungi tilga moslashtirilgan nasriy bayonidan foydalanamiz.

Shayx San'on dargohga yetishganlardan bo'lib, ko'ngillari g'ayb sirlaridan ogoh edi. Xaloyiqqa to'g'ri yo'l ko'rsatuvchilardan biri bo'lib, Ka'badagi barcha shayxlarning shayxi edilar. Biron bir g'amgin kishi haqqiga duo qilmoqchi bo'lsalar, maloikalar qo'l ochib, «omin» derdi. Yaqin kishilari va muridlarining soni to'rt yuztaga yetar, ularning har biri shayxlarning ulug'laridan edi. Agar u zot bir duo qilsalar bormi, hatto ofat dudidan qorayib ketgan olam ham yorishib ketardi. Tushlarida biror narsa ko'rsalar bu voqea boshdan-oyoq o'nglarida ham yuz berardi. Shunday bo'ldiki, bir necha tun davomida bir tushni ketma-ket ko'raverdilar. Oqibat bu tush sabru qaror ipini uzdi. Har uyg'onganlarida o'zlarining bu hollariga tavba qilardilar. Ul zotni bezovta qilgan tush bunday edi: emishki, Rum mamlakatida sayr qilib yurarmishlar. Eng dahshatlisi shuki, bir butxonona ichida mast holda turarmishlar, mastlikdan o'sha ibodatxonona ahli kabi butparastlikka yuz tutgan emishlar. Sirlar xazinasini bo'lmish Shayx bu holdan g'oyat tashvishga tushib, o'zlariga dedilarki:

-Bu balodan saqlanib bo'lmaydiganga o'xshaydi. O'sha mamlakatni ham ko'rish kerak. Taqdir qayoqqa yetaklasa, o'sha tomon borish lozim. Boshimizga nimaiki kelsa, «yo nasib» deb qismatdan ko'ramiz.

Shu tarzda o'sha yurtga borishdan o'zga chora topmadilar. Keta turib, Ka'baga yuzlarini qo'yidilar va yuz hayajon bilan vidolashmoq uchun uni tavof qildilar. Ming hasrat bilan haram tavofini qilib bo'lgach, Rum iqlimi sari yo'l oldilar. Tariqat piriga to'rt yuz yo'l ahli hamroh bo'ldilar. Yo'lda borarkanlar halok qilgulik har xil savdolar Shayxning ko'ngillariga g'ulg'ulalar solardi. Har dam o'zga bir holatga tushar, bu og'ir ahvoldan qutulish chorasini topa olmas edilar. Ul zotning bu hollariga do'stlari hayron qolishar, ularningda aqlu hushlari boshlaridan uchardi. Pirlarining bu g'arib ahvolidan voqif bo'la olmay, «Sizga nima bo'ldi?» degan savollariga javob topa olishmagach, Shayxdan ham ko'proq iztirob chekardilar.

Ko'zlangan manzilga yetishgach, bir butxonaga duch keldilar. Ko'p sirlarni o'ziga yashirgan butxonaning toqi osmon gumbaziga yetar, uning toshlari g'am va mashaqqat tog'idan keltirilgan bo'lib, g'ishtlari dardu balo tuprog'idan yasalgan edi. Bino bolaxonasining ayvonchasidan qarab turgan fitnalar kishilarni g'oyat chorasiz holga solardilar-ki, ulardan qutulishning sira iloji yo'q edi. Binoning turli balolar maskan tutgan har darchasi ishq nuridan yorishib turar, kunguralari esa iymonga raxna solardi. Har kunguraga terilgan toshlar ishq tig'idan kesilgan boshlarga o'xshardi. Bu toshlar din ahli

boshini uchirib yuborish, olam uzra toshbo‘ron qilish uchun mo‘ljallangandek edi. Fitna to‘dasi yurib o‘tadigan darvozasining halqa va zanjirlari yuz ming nayrangdan iborat bo‘lib, ular kishilarni savdo halqasiga o‘rab devona qilar, telbalik zanjiriga o‘rab tashlar edi. Bu binoning ichida ishq o‘ti yoqilgan yuzta otashkada bor bo‘lib, ularning har birida yuz tuman savdoyilik mavjud edi. Ulardan chiqayotgan qora tutunlar butxonani ustini xuddi kufr va isyon zulmati kabi qoplab yotardi. Bu ko‘hna dunyo shuncha aylangani bilan bu xil fitnagar butxonani hanuzgacha ko‘rmagan edi.

Shu butxonani ko‘rgach, Shayx jismida harorat ko‘tarildi, ko‘ngillari iztirobdan betoqat bo‘la boshladi. Har dam u zotga xastalik yuzlanib, ko‘zlari o‘ngida qandaydir o‘zga bir olam namoyon bo‘la boshladi. Har tomon oshuftavor qarab yurganlarida ko‘zlari beixtiyor bir tarafga tushdi: qarshilarida yuziga parda tortgan go‘zal paydo bo‘ldi. Bu parda go‘yo uning quyoshdek yuzini berkitib turgan ufqdagi kamalakka o‘xshardi. Shu payt shamol kelib, uning yuzidagi pardani ko‘tarib yubordi va bu quyosh nuri har tomonga yoyilib ketdi. Uni quyosh deb atamoqlik ham kamlik

qilur, chunki yuz quyosh ham unga devona bo‘lib, uning husni shami atrofida parvonadek edi... Jismi gulgun bo‘lib, kiygan ko‘ylagi go‘yo gul uzra gul edi. Din ahliga qirg‘in keltiruvchi kofirdek qotil ko‘zidan barcha bahra olishni istardi. Kimki uning sochi zunnorini xayol qilsa, bu soch uning dinu iymonini poymol etardi. Husnining shu'lasini davronga o‘t solsa, otashin la‘lidan jonga o‘t tushardi.

Xullas, ana shu tarso (xristian) qizi bir go‘zal shaklda turardi. Bundan Shayx ko‘ngillarida chaqmoq chaqilgandek bo‘lib, jonlari shu'la dengizida g‘arq bo‘ldi. Qattiq hayajonda «la havla...» duosini qayta-qayta takrorlab, «tavba!» deb yoqa ushladilar. Ammo u qiz o‘z ruxsoring shu'lasini bilan Shayxning tavbayu duosini kuydirib yubordi. Shayx o‘zdan ketib, tuproqqa yiqilayozdilar. Bu damda qo‘llaridagi xassalari xuddi uy ustuni kabi gavdalarini suyab qoldi. Shundan so‘ng hayratga cho‘mdilar, hayajonning zo‘ridan xassalari va jismlariga shikast yetib, holdan ketdilaru yerga quladilar...

Oxir-oqibat ul zotning toza jonlariga ishq tushdi: qon kabi kirib, butun vujudlarini qoplab oldi. Goh behol bo‘lardilar, goh o‘zlariga kelardilar, yo‘ldoshlari esa bu ahvoldan lol qolishardi.

Bu o‘rinda moziydan bugunga bir nafasga qaytsak: diqqat qilaylikki, Shayxni behol qilgan narsa - uning qalbidagi Allohga bo‘lgan Ishq o‘rnini tarso qiziga bo‘lgan mahliyolik egallay boshladi. Bu ham Allohning irodasi. Shayxni imtihon qilish barobarida bizlarga ham bir o‘rnakdir. Shayxlarning ulug‘i martabasiga yetgan taqvo egasiki vaqti kelganda shayton vasvasasini - nafsini yenga olmadimi, bizlar har qadamimizni o‘ylab bosishimiz shart ekan. Allohning muhabbatiga yetishish oson emasligini bir nafas ham unutmashimiz lozim ekan. «Men namoz o‘qiyapman, ro‘za tutyapmanmi, demak, Allohning mehrini qozondim, shu holimcha o‘laman va to‘g‘ri jannatga boraman», degan xayolda xotirjam yurish esa nojoiz ekan. Allohning imtihoni, shayton bilan olishuvimiz to jonimiz chiqquniga qadar davom etajagini unutmashimiz yanada yaxshi. Hazrat Xoja Ahmad Yassaviyning: «Shayton g‘olib, jon chiqqarda shoshdim mano...» deyishlari bejiz emas...

Yana rivoyatga qaytsak:

Tun mamlakati kunni qoraytib, atrofni o'sha butxonadagi kufr zulmati kabi qorong'ulik qopladi. Shayxning boshlariga shu tun kabi qora qismat tushgan, ul zotning tobe' kishilari ham qora musibat buluti bilan o'ralgan edilar. Ularning hammalari o'sha mug'dayri (majusiylar ibodatxonasi) tuprog'ida, tuproq emas, balki balolar tog'ida qoldilar. Shayxning boshlariga tushgan qora tunni hali hech bir odamzot ko'rgan emasdi... Tun osmonda baxtsizlik pardalarini yoydi... Osmon ko'zlaridan yulduzlar sochib, Shayx ahvoliga motamdan nishon bildirardi... Ishq Shayxning jism ila jonlariga o't yoqqan, kufr dinu iymonlariga o't solgan edi. G'arib hollariga yig'lab dedilarkim:

-Har dam qayg'u-musibatim ortib bormoqda. Ey falak! Menga nelar qilmoqdasan? Tinchligimni buzib, ishq sari boshlading, yonar yuz o't ichra meni tashlading.

Ko'nglimga avval ravshan quyoshni ko'rguzib, keyin uni yashirgancha, g'am shomiga tutqun etding! G'am shomigina emas, balki osmon bo'shlig'idagi yaratilish chehrasini qaro qilding! G'am do'xaxining dudi olamni tutib ketdi... Jismim, a'zoyi badanim, sezgilarim va aqlu hushim ishqdan shunday parda yopindilarki, go'yo ularning hech biri mavjud emasdek, ishq zulmidan hammasi nobud bo'lgandek tuyulmoqda...

...boshimni cheksiz g'amdan qutqarmoq uchun toshga urib tilka-pora qilmoqlikka quvvat qani?!

...o'zimni qo'lga olishga, aqldan ozishimga to'sqinlik qiladigan hush qani?!

...ishq tadbirlarini aytib beradigan, vayron bo'lgan ko'ngulni tinglaydigan aql qani?!

...dardimga chora qiladigan yoki bag'rim porasiga davo beradigan sabr qani?!

...holim g'amini yeyuvchi ko'ngil qani?! Axir u ham hozir o'lik sonida-ku!..

...bir nafas urguchalik tag'in jon qani?! Ko'ngil kabi uni ham izlab topa olmayman!..

-Menga bu yo'l ne balolik yo'l edi?! Axir bundan battarroq'i bo'lishi mumkin emas-ku! Umrni bu yanglig' xoru zor ko'rguncha hargiz tirik bo'lmaganim yaxshiroq emasmi?! Bir xatar chaqmog'i tushib, vujudimdan asar qoldirma nima qilardi?!

-Do'stlar! Menga madad bersangiz - jam bo'lib men zorni o'ldirsangiz nimangiz ketardi!.. Toinki bu olam orimdan, bashariyat ahli esa afg'onu zorimdan qutulsin.

Birodarlar, jonimga qatl tig'ini uring! Kuydirib, kulimni har tomonga sovuring! Toki jahonda bu yanglig' rasvo bo'lmayin! Har dam yuz marta o'lgandan ko'ra bir yo'la o'lib qo'ya qolganim ma'qul!

Shayxning bu musibatli holiga do'stlari hayron qolishar, uning dardidan har dam qon yig'lashar edi. Bu g'amgin va chorasiz kishilarning har biri Shayxga turli maslahatlar berishar, ammo Shayx bu pandlarni fahmlamas, nozik so'zlar ma'nosini ham anglay olmas edilar. Ular Shayxga aql mezoni bilan xitob etgan bo'lsalar, Shayx ularga ishq yo'sinida javob qaytarar edilar:

...birlari dedilar: -Ey sir ahlining peshvosi! Bu baloni daf' etish uchun namoz o'qimoq shartdir.

Shayx dedilar: -Bu ma'nida so'z aytma! Men telbaman, telbaga esa aql o'rgatmaydilar.

...birlari dedilar: -O'rningizdan turing-da, tahorat ila poklaning va kishilarni toat-ibodat

etmoqqa ishorat qiling.

Shayx dedilar: -Ko‘z yoshimdan o‘zga suvim yo‘q, bag‘rimdan har dam ko‘zlarimga qon yoshlari keladir.

...birlari dedilar: - Afzali g‘usl qilmoqlikdir, u ko‘ngilni pok etishdan tashqari g‘amdan ham qutqarajak.

Shayx dedilar: - Men yo‘qlik dengizida g‘arq bo‘ldim. Mendan yana nima istaysan?

...birlari dedilar: - Tasbehga mashg‘ul bo‘ling-da, bu parishon holatdan o‘zingizni qutqaring.

Shayx dedilar: - Tasbehimning tori uzildi, uning o‘rniga zunnor ipini bog‘ladim...

...yana dedilar: -Safarimiz tamom bo‘ldi, Vatan sari yo‘lga tushsak durustroq bo‘lardi.

javob qildilar: - Ehsanli Alloh o‘zi muruvvat ko‘rsatib, bu butxonani menga haqiqiy vatan etibdir.

...yana dedilar: -Sizning avvalgi vajhu holatingiz - e’tiqodingiz qani? Zuhd va ibodatda o‘tkazgan pokiza vaqtlaringiz qani?!

javob qildilar: - Holatim - butxonada turmoqdan iborat, bordi-yu vaqtu soatim yuzta bo‘lsa ham hammasi shundayligicha kechardi.

Qavm o‘sha kechasi yuz bor kuyina-kuyina Shayx ahvolidan iztirob chekdi. Ular Shayxga ta’nalar qilishar, ammo Shayx bularga parvo qilmasdilar. Ular Shayxga o‘gitlar berishar, ammo ul zot bularni fahmlamas edilar.

Ertalabgacha butxonadagi kishilar g‘avg‘o qilib, din ahlining bu holini tomosha qildilar. Ular din ahli rasm-rusmlarini masxara qilish bilan o‘z dinlari tariqatidan lof urib, maqtanib qo‘yishardi. Shayx hamrohlarining baxtsizlikka duchor bo‘lganlari bir fojia bo‘lsa, butxona ahlining bu savdodan sevinishi fojia ustiga fojia bo‘lib tushmoqda edi. Butxona ahli ular bilan diniy qoidalar xususida bahs yuritishganda Shayx o‘z qavmlariga e’tibor bermay, butxona ahli yonini ola boshladilar. Bunday mudhish hol musulmonlarga ko‘p malollik yetkazdi.

Tongda butparastlar o‘zlarining katta qo‘ng‘iroqlarini chaldilar. Butxona ahli Shayx ishqi va ahvoli haqida mojaro qo‘zg‘ab, millatiga quvvat bag‘ishlovchi bu holdan shod bo‘lishardi. Musulmonlarning esa bundan hijolatlari tobora oshib boraverdi. Bechora Shayx butxonadagi bolalarga ham masxara bo‘ldilar. Oshiqu zor, g‘arib bir holda ko‘zlarini tarso qizi tomon tikkancha yo‘l uzra yuztuban bo‘lib yotaverdilar. Kishilar tahqirlab, va masxaralab bosib o‘tsalar ham mutlaqo parvo qilmas edilar. Chekkan azoblaridan g‘oyibu hozirlarning ham, ingrashlaridan mo‘minu kofirlarning ham rahmi kelardi. Oqibat shu bo‘ldi-ki, muridlar nomusga chiday olmay pirlarini yolg‘iz tashlab, turli tomonlarga tarqab ketishga majbur bo‘ldilar.

Shayxning kunduz kunini shu tariqa qaro qilgan va uni din yo‘lidan chiqarib, kofirlar

butxonasi ichida rasvo aylagan o'sha olamga o't soluvchi tarsozoda esa parda orqasida oshiqu zoriga, giriftoriga yashirincha boqib turardi. Garchi u Shayxning diniga qasd qilib, uning jonini talon-taroj etgan bo'lsa-da, o'zini go'llikka solib, hech narsa bilmagandek tutardi.

Bir oy mobaynida Shayxning g'am ichida qolgan jismlari tuproq bilan teng bo'layozganida o'sha zolim kofir - ishvagar xulqli go'zal yana o'sha joyida ko'rindi. Nozli husni bilan olamga o't solganicha o'z giriftori holidan xabar olmoqchi bo'lib bu savolni berdi:

-Ey Islom yo'liga yetakchi, din va Islom ahliga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi pir! Senga Ka'ba tavofini qilish hunar edi, nechun butxona eshigida vatan tutding?! Seni din elining madadkori deyishardi, kofirlar butxonasiga nechun asir bo'lding? Agar safar ahli biror yerga tushib, u yerni manzil etsa, bir kecha o'sha yerda bo'lib, ertasiga boshqa yoqqa ketadi. Sen Shayx esa bir oydan beri bu yerda turib, butxona tuprog'ini maskan etding. Kofirlar butxonasida yashashdan va zulmat ahliidan tilagan maqsading nima ekan?

Shayx jahonni bezata oladigan bu jamolni ko'rib, jon olguvchi so'zlarini eshitgach yana behush bo'ldilar. Butxona ahli ul zotni o'ldi, deb gumon qildi. Kufr ahli Shayxning boshiga kelib, uning ishqiga ofarinlar aytishdi. Boshlarini tuproqdan ko'tarib qarasalarki, badanlarida hali jon bor ekan. Shayxning ishqidan sanam hoida ham o'zgarish yuz berib, o'z ishq bilan qatl etilgan Shayx oldiga qadam qo'ydi. Xastaning dimog'i maqsad isini sezgach, gul yuzliga qarash uchun asta ko'z soldi. Visol zavqi uni o'z holiga keltirgach, zolim kofir unga shunday savol qildi:

-Biz Shayxdan hol-ahvol so'rab, uning qanday kayfiyatda ekanligini bilmoq uchun savol so'ragan edik. Ammo Shayx zavq zo'ri bilan behush bo'ldi. Endi u yana o'z holiga qaytdi, savolimizga javob bersin.

Shayx so'zlarini «Ey ko'nglimga qiyomat solgan!» deb boshlab, arzlarini bayon qildilar va so'ngida dedilarki: «Seni dardimdan xabardor ayladim. Agar chora qilsang - sen uchun oson, agar qatl qilsang ham jonimning hayoti bo'ladi.»

Sho'x unga dedi:

-Ey oliy sifatlar egasi bo'lgan murshid! Senda na hayo bor ekan va na adab! Axir seni «Shayx» deb ataydilar-ku, oq soqolingdan uyalsang bo'lmaydimi?! Yoshing to'qson bilan yuzga borib qolibdi. Seni qari desa ham, yosh desa ham bo'ladi. Yosh bo'lsang - hali aqling kirmabdi, qari kishi esa bu xil so'zlarni o'zining xazon faslida aytishi yarashmaydi...

Sho'xi sarkash shu ma'noda Shayxga dashnom bergach, shartlarni bayon etishga o'tdi: -Agar kimki mening vaslimni tamanno aylasa, u to'rt ishni bajarishga rozi bo'lishi shart: u may ichishi, mast bo'lib zunnor (xristianlarning belga bog'lab yuruvchi chilviri mazkur dinga tobe' ekanlikning belgisi sifatida zikr etiladi) bog'lashi, Qur'onni o'tda kuydirishi va butparastlar diniga kirmog'i kerak. Bu to'rt narsa ishqning sharti - shukronasidir. Uning yana ikkita jurmonasi (jarimasi) bor. Chunki bu foniylilik to'rt yo'li bo'lsa, yana ikki yo'l o'sha to'rtning ifnosi (fanoda butunlay yo'qolish, o'zini mahv etish) demakdir. Ulardan dastlabkisi -bir yil davomida cho'chqaboqarlik qilish bo'lsa, ikkinchisi - shu davr mobaynida otashgoh o'tining parvonasi bo'lishing, ya'ni otashgohda o't yoqishing lozim... Agar mening vaslimga talabgor bo'lib, yoningda bo'lmog'imni istasang aytganlarimning barchasini qabul qilmoqing shart. Qurbing yetmasa, erta kunni kech

qilmasdan yo'lingdan qolma!

Hushdan ayrilgan Shayx dedilarki:

-Ey xasta jonim ofati! Pariruxsor yor neki amr etsa, devona oshiqiga ne ixtiyor! Nimaiki talab qilsang, buyuraver, chunki sen hokimsan! Agar bajarmasam, jafo tig'ini bo'ynimga ur!

Bu so'zlar jafokash qizga va butxona ahliga ma'qul tushib, butxona ichini jannat kabi bezatdilar. Uning to'rida osmon barobar yuksak taxt o'rnatdilar. Tarso qizi unga shavq bilan chiqib keldi. Shayxni esa iymonlari yuzini qaro qilish maqsadida to'planganlar o'rtasiga olib kirdilar. Atrofdagi butxona qo'ng'irog'i va arg'anun (organ - butxonadagi cholg'u asbobi) ovozi yangrar, go'yokim bu Shayx dilida o'layotgan diniga motam kuyi edi.

Olamda hech qachon bu yanglig' razil ish bo'lgan emasdi. Kashishlar (xristian dinidagi tarkidunyo qilganlar) har tarafdin saf tortib o'tirishardi. Ogoh murshiddan Qur'onni so'radilar, otashgohdan o't olib kelib qo'yidilar. Zunnor va salib (xoch, ya'ni xristianlar bo'yinlariga osib yuradigan krest) muhayyo etilgach, tarso qizi yuz afsun bilan o'rnidan turdi. Taxtdan tushib Shayx oldiga keldi. Uning yoniga o'tirib, qadah to'la mayni ichdi. So'ng qadahni limmo-lim to'ldirib Shayxga tutdi-da dedi:
-Oxirigacha ich, ey olijanob kishi! Bilki, bir tomchi qolsa ham hisobga o'tmaydi!

Ishqqa berilish oqibatida ayni damda Islom va iymondan chekingan Shayx beixtiyor ravishda dilnavoz uzatgan qadahni olib, mayni ichar ekanlar, ko'zlaridan yosh dumalardi. Shunday ichdilarki, boshlaridan dud chiqib, may o'tida butun borliqlari kul bo'ldi. Yana bir necha marta may tutganlaridan so'ng ul zotning ishlari aqllariga jabr eta boshladi. Boda hushlarini yanada o'tmas qilib qo'ygach, qizga vasldan muddao izhor etdilar.

Tarso qizi esa unga: «Shoshilma, sen shartlardan birinigina bajarding», - deb kufr elining oliy tabaqasiga ishora qildi. Kufr elining ishlari sohasida mohir bo'lmish bu kishilar Shayx iymonlarini kufrga taqdim etdilar va ul zotni o'z dinlariga kiritdilar. Ul zotning xirqalarini yechib olib, yalang'ochladilar, so'ng esa may hovuziga solib cho'miltirdilar... Keyin o'z kiyimlarini kiydirdilar. Shayx but oldida sajda qildilar, xirqalarini olovda kuydirdilar va nihoyat... Kalomullohni ham o'tga tashladilar. Gardun ul zotning boshiga solmagan hech bir rasvolik qolmadi. Ular Shayxga kecha-kunduz may ichirib masxaralayverdilar. Ul zot bir saxar afg'on qilib, faryod urib qizdan vasl talab qilganlarida u sho'x shartni oxirigacha bajarishni, ya'ni bir yil davomida kunduzlari cho'chqa boqib, tunlari otashxonada o't yoqishni talab qildi.

Shayx talabni bajara boshladilar. Tunlari kufr o'tini ravshanroq yoqish bilan vaqt o'tkazib, tongda to'ng'izlarga ro'para bo'lardilar.

Endi ul zotni bu rasvolik botqog'ida vaqtincha qoldiraylikda, so'zni Ka'ba tarafdin tinglaylik:

Shayxning bir foniy muridi bo'lar edi. Shayx karvonni qaerga boshlasalar bu solik (shogird) ham o'sha manzilda unga hamroh bo'lguvchi edi. Ammo Shayx Rum sari safarga chiqqanlarida u shogird o'zga mamlakatda edi. Vaqtiki kelib, u Makkaga qaytdi. Shayxim atrofida panoh istay, deb xonaqoh tomon yuzlandi. Ammo qarasaki, xonaqoh

xarob, pirining izi ham yo‘q. Bilsaki, to‘rt yuz taqvodor uyatdan har tomon tarqab ketganlar. Shogird so‘rab-surishtirib, bo‘lgan mash‘um voqealardan xabar topdi. U Shayx muridlarining xalifasi bo‘lgani uchun turli tomonlarga xabarchi yuborib, to‘rt yuz taqvodorni atrofiga to‘pladi va ulardan yana so‘rab-surishtirib pirining ishq, may ichgani, zunnor bog‘lagani, Kalomullohni o‘tga tashlagani, endi esa o‘t yoqib, cho‘chqa boqayotganini eshitdi. Eshitdi-yu, birodarlariga xitob qildi:

-Ey or-nomusni saqlashda to‘ng‘izlardan ham battar bo‘lgan kishilar! Shayx sizning piringiz edilar, sizlar ul zotga murid edingizlar. Pirimizning irshodlaridan barchaga umid najoti yetardi. Faqr aro muridlik qilish sharti shunday: agar kimki qutlug‘ tabiatli bo‘lib, murshid bo‘lsa, uning muridlari ham unga o‘xshash bo‘lishlari kerak.

Agar u o‘zining yaxshi-yomon

kunlarida nima ish qilsa, siz unga taqlid etishingiz lozim. Siz vafosizlarga faqr tartibi odatlari hayf! So‘fiylar kiyadigan xirqayu o‘raydigan salla ham hayf! Tinchlik payti yolg‘on lof urib, Shayxga sodiqligingizni isbot etishga tirishgansiz. Boshlariga og‘ir ish tushganda esa o‘zingizni ul zotdan nari tortasiz. Shayxingizga bevafoqlik qilib, butxonaga tashlab kelibsiz. Xudodan qo‘rqmay, eldan uyalmay shayximizni yolg‘iz qoldirib qaytibsiz. Shu sifat bilan yana o‘zingizni yaxshi fikrli, to‘g‘ri ish tutuvchi deb hisoblaysiz, bir-biringizni yana «darvish» deb ham ataysiz. Zuhdu tasbehu ridongizdan uyat sizga! Kavush, salla va hassangizdan uyat sizga! Agar Shayx itboqarlik qilib, bir necha it parvarish etganlarida edi, unga charxdan bu yanglig‘ jafu yetgan paytda itlaridan vafo ko‘rgan bo‘lmasmidilar?! Axir ulardan ba‘zilari yo‘qolib ketsa, ba‘zisi qolar, uning atrofida jilmasdan turar edi-ku! Uning muxoliflari bilan goh urishib, goh esa uning motamida ulishar edi! Agar insondan vafo yiroq bo‘lsa, vafo bobida unday kishidan it yaxshiroqdir. Bordiyu sizlarda mardonalik, ixlos da‘vosi ichra oqillik, donolik bor bo‘lsa edi shayximiz boshlariga bu yanglig‘ balo tushganda, ya‘ni u birov ishqiga muhtalo bo‘lib, o‘zini har jafoga duchor etganida siz vafo bilan turmog‘ingiz shart edi. Ammo barchangizda unga hamdardlik qilishdan o‘zni chetga tortish zohir bo‘lib, faqr ichra yuz nomardlik ko‘rsatdingiz. Kishi «erman» deb lof urgani bilan er bo‘la oladimi?

Jonga oziq bag‘ishlovchi shogird shu tarzda so‘zlarni ayta tursin, biz bugungi kunimizga qaytaylik:

Musulmon birodarimiz boshiga bir ish tushsa yoinki buzuq yo‘lga kirib ketsa, biz buni ko‘ra-bila turib o‘zimizni qanday tutamiz? Ko‘pincha indamay kuzatamiz. Nari borsa «unday qilma» degan mazmunda ozgina pand-nasihat qilamiz. Ayrimlarimiz esa birodarimizning buzuqlik botqog‘iga botayotganini ko‘rib, «battar bo‘lsin!» - deb quvonamiz ham. Shogirdning so‘zlarini bu o‘rinda biz atayin bo‘ldik. Siz ham bir oz sukut saqlab o‘ylang. Ehtimol birodarga vafo bobida qusurlarimiz bordir. U holda shogirdning necha yuz yil avval aytgan gaplari bizlarga ham tegishli, bizlar uchun ham ibratdir. Shu o‘rinda hazrati Shayx Abu Said Xarrozning (quddisa sirruhu) so‘zlarini eslash foydalidir: «Tushimda ko‘rdim, ikki farishta samodan tushdi va mendan «Sidq nimadir?» - deb so‘radi. Men: «Ahdga vafodir»,-dedim. Ikkisi ham «Sadaqta» (Rost aytding),-dedi va osmonga qaytdi.»

Shogird birodarlarini koyigach, «Bir yerda o‘tirish bilan ish bitmaydi», deya o‘rnidan turib Rum sari, din va iymonni yondiruvchi o‘sha manzil tomon yo‘lga chiqdi. Jamoat unga ergashdi. Cho‘lu biyobonlarni bosib o‘tib, cho‘chqaboqar Shayx manziliga yetib

bordilar. Shayxda na Islom, na iymon maslagidan asar qolgan, na aql, na zuhdu taqvo andishasidan nishon qolgan edi.

Shayx shogirdlarini tanimay, ulardan yuzlarini teskari burdilar, cho‘chqalar to‘dasi yurgan tomonga qaradilar. So‘fiylik yo‘lini tutuvchi solik bu holni ko‘rgach, shayxi uchun ko‘ngli buzilib oh urdi. So‘ng shaharga qaytib, butxona boshlig‘ini topdi va maqsadini aytdi. Keyin ibodatga berilib, kecha-kunduz iltijo yoshlarini to‘ka boshladi. Iztirob bilan ko‘p-ko‘p duolar qildi va nihoyat Alloh uning duosini qabul etdi...

Tong shamoli mushk hid taratib esa boshladi. Xudo farzini to‘g‘ri ado keltirib, sajdadan uzoq vaqt bosh ko‘tarmadi. So‘ng ashoblari hamrohligida Shayx tomon yo‘lga tushdilar.

Bu paytda Shayxdan ham gumrohlik daf‘ bo‘lib, ul zotga g‘oyibdan ogohlik yetgan edi. Kofirlar kiyimini tashlab, bellariga bog‘langan zunnorni uzib tashlagan edilar. Ko‘zlari hijolat yoshlarini oshkor etib, ohu nadomat alangasi avjda edi.

Shogirdlar kelishgach, Shayx ko‘ngillariga ulug‘lik yetishdi. Hazor-hazor shukrlar aytishib, shodmon bo‘lishdi. Shayx g‘usl qilib, xirqa kiygach, barchalari Ka‘ba sari yo‘lga chiqdilar.

Ular yo‘lda bora tursinlar, biz tarso qizi sari qaytaylik:

U pari noz uyquda yotar ekan, bir tush ko‘rdi. Tushida quyosh osmondan pastga tushib, Isodan (alayhissalom) shunday xabar yetkazdi:

-Ey vafo bobida xomu noraso! Zamona ahlining murshidi bo‘lgan Shayx San'on sening butxonangga mehmon bo‘lib keldi. Ammo sen mezbonlik odatini bilmasdan, mehmonning boshiga ne kunlarni solmading?! Hozir u butxona mehmonligini tark etib, mezbonlik qilish uchun Ka‘baga yo‘l oldi. Uning orqasidan yetib, diniga musharraf bo‘l, undan kechirim so‘rab, uning jufti haloli bo‘l!

G‘ayridin qiz Shayx oyog‘ining izi bo‘lishni istagan holda uyqudan uyg‘ondi. Qilgan ishlari yodiga tushib, noshod ko‘ngliga o‘tlar tutashdi. Oh urganicha o‘rnidan turib, Ka‘ba ehromi sari yo‘lga tushdi. U zor yig‘lab borar, ko‘zlaridan osmondagi yulduzlar kabi yoshlar to‘kildirdi. U Shayx tomon xuddi yel uchirgan toza gul bargi yanglig‘ tez yurib borar edi. Charx esa qilgan ishlari uchun kinakashlik ko‘rsatmoqda edi. Ayniqsa, bu kinakashlikning biyobon ichra shiddati haddan oshib, qizni vahima, qo‘rquv va hayrat bosib kela boshladi. Unga bu nihoyasiz cho‘lu biyobonda kasallik va ojizlik yuzlandi. U Yaratganga yobordi:

-Yo Rabbim! Ojizu sargashta bir holda ko‘z va ko‘nglim qoniga belanganman. Zaifu bechoradurman, rahm qil! Bekasu ovoradurman, rahm qil! Garchi mening gunoh va jinoyatdan o‘zga narsam yo‘q bo‘lsa-da, sendan boshqa panohim ham yo‘qdir!

Kimsasiz va chorasiz qiz o‘z holiga zor-zor yig‘ladi. Uqubat shunchalik o‘z kuchini ko‘rsatdi-ki, holsizlanib, tuproqqa yuztuban tushdi. Hushidan ketdi. Tuprog‘ ustida xoru dardnok bo‘lib yotib qoldi.

Yuqori martabali Shayxga bu hodisa kashf bo‘ldi. Nainki ul zot, hamrohlik qilayotgan muridlari ham bu sinoatdan xabar topdilar. Shayx ular hamrohligida izlariga qaytdilar. Sarvinoz yotib qolgan yerga yetib kelishgach, Shayx uning hushsiz boshini qo‘yinlariga

oldilar. Qiz o'ziga kelib, Shayxni ko'rgach, xasrat yoshlarini to'ka boshladi. Zaiflikdan uning nolasi og'zidan bilinar-bilinmas chiqar, yuzi uzra bag'ridan sizg'igan parcha-parcha qonlar oqar edi. Qiz Shayxga dedi:

-Ey shiori taqvo va panohi din bo'lgan kishi! Sizdan qaysi til bilan kechirim so'ray olaman?! Agar menga shum baxtim bebosh bolalardek tosh otsa ham boshimga siz kabi oliy daraxt soya solib turibdi. Garchi gunohim haddan tashqari ko'p bo'lsa-da, sizdagi lutfu ehson undan ham ortiqroqdir. Qilgan beadabliklarimni bilib, sizning uzringizni istab, qora yuz bilan huzuringizga keldim. O'sha paytda nimaiki yomon ish qilgan bo'lsam, bular mening o'zimning yomonligim, yurtim va dinimning yomonligi tufaylidir. Huzuringizda yana ancha sirlar aytmoqchi edim, ammo umr oshiqib shoshilmoqda, fursat esa nihoyatda oz...

Shu taxlit u o'zining Islom diniga bo'lgan shavqini bayon etib, Iso alayhissalom aytgan nishonalarni birma-bir bayon qildi va nihoyat dedikim:

-Poyma-poy so'zlarimni shu yerda tugataman. Tezroq iymonimni keltiring, bir nafaslik vaqtim qoldi.

Shayx yuziga ko'z yoshlarini oqizib, tarso qiziga iymon arz etdi. Qiz iymonga oshno bo'lgach, oh urgancha o'z jonini topshirdi.

Alqissa, Shayx qizni ishq ayvonida dafn etib, din va iymon ahli go'ristoniga qo'ygach, Ka'baga qaytdilar. Allohga o'tmishdagi ishlaridan uzr so'rab, arz qildilar va nihoyat uzrlari qabul bo'lib, qazo ul zotni o'z yorlariga qo'shdi...

Qissadan hissa: Erkak va ayol orasidagi ishqning beqarorligi xususida hayotda ko'p misollarga duch kelganmiz. Bugun «sevamano sevaman, sensiz menga dunyo qorong'u!» deb oh-voh qilib yurganlar ertaga qarasangiz «beting qursin!» deb bir-biriga teskari qaraydi. Ba'zan esa oila buziladi. Ishqning bu kabi beqarorligi bizni unchalik ajablantirmaydi. Ammo Allohning Ishqidan yuz o'girishni fojia deb bilamiz. Albatta valiyalar yoki ularning muridlariga xos bo'lgan Ishq martabasi hammaga ham nasib etavermaydi. Chunki har bir odamning zehni, toqati, qobiliyati har xil. Agar bir xilda bo'lganida edi, barcha baravariga hofizi Qur'on, valiyulloh darajasiga yetar edi.

Erkak va ayolning ishqini bir-birini ko'rish bilan boshlanadi. Ya'ni, tashqi ko'rinish birlamchi bo'ladi. Tashqi ko'rinishga maxliyolik ichki olamdagi qusurlar yuzini to'sadi. Allohga bo'lgan Ishq butunlay o'zgacha: banda hali Allohni ko'rmas turib unga oshiq bo'ladi. Ta'kid etamiz: har bir banda o'zining imkoni darajasida oshiq bo'ladi. Birlari o'zlaridagi nafsni yengishga kuch topa oladi, birlari esa bu borada ojizligicha qoladi. Birlarining toqati yarim yil yo undan ko'proqqa yetadi, birlari so'nggi nafasigacha Alloh Ishqi bilan yashaydi. Allohga qul bo'lmoq zavqini totish baxtiga erishadi.

«Allohga yo'l ikkitadir: xavosniki (xoslarniki) va avomniki», -deydilar.

Muso alayhissalom yaylovda bir cho'ponga duch kelibdilar. Cho'pon butun vujudi bilan Allohga sig'inib, munojot qilib der ekankim: «Ey Xudojon! Sen qaerdasan? Kel, sochlaringni tarayin, choriqlaringni tikib berayin, nainki o'z jonim, balki qo'ylarim, farzandlarim ham senga fido bo'lsin. Qaerdasan, borib, dastyoring bo'lsam, sut-qaymog'im bilan qorningni to'ydirsam. Boshing og'risa boshingni silasam, yuz-qo'lingdan o'psam, oyoqlaringni uqalasam...»

Muso alayhissalom bu munojotni eshitib, cho'ponni koyib dedilarkim: «Ey ahmoq, bu gaplarni aytib, sen endi kofir bo'lding. Xudoning chorig'i ham, to'ni ham yo'q. U yemaydi, ichmaydi. Uni o'zingga o'xshatma. U go'yo quyosh, sen esa bir chivin...»

Shularni aytishlari bilan Parvardigordan u zotga vahiy keladikim: «Ey Muso! Nima qildingki, bandamni mendan ayirding. Qo'y, aytaversin. Sen bandalarning dilini Parvardigorga ulash uchun yuborilgansan, ajratib tashlash uchun emas. Biz har odamga, har bir elga o'z darajasida, o'z tilida muhabbat izhor etishga imkon berdik. Hindlarni hind tilida, sindlarni sind istilohida so'zlatdik...»

Endi xoslarning ishqidan ayrim rivoyatlar bilan tanishsak:

Robi'ai-Adaviyyadan (rahmatullohi alayho) so'radilar:

-Qaydan kelursan: Bul jahondan nechuk ketursan?

Javob berdilarki:

-U jahonga keturman.

-Bu dunyoda naylarsan?

-Pushaymon yurgayman. Chunki foniyydir, boqiy emasdur.

-Haqni sevarmisan?

-Bali.

-Shaytonni dushman tutarmisan?

-Yo'q.

-Nechun?

-Shuning uchunki, ko'nglimda Rahmon sevgisi shunchalik to'lib turgayki, shayton dushmanligi sig'mas.

Boshqa bir rivoyatda Robia' derlarkim: «Bir kun tushimda Payg'ambar (s.a.v.) janoblarni ko'rdim.

-Yo Robia'! Meni sevgaymisan? - deb marhamat etdilar.

-Yo Rasulalloh! Sizni kim sevmagay?! Lekin. Haq sevgisi meni shunchalik chulg'ab turgayki, hech do'stlik-dushmanlik joyi qolmagandir, - dedim.»

Shu o'rinda noto'g'ri tushunchadan saqlanishimiz kerak. Ya'ni Allohga va uning Rasuliga (s.a.v.) bo'lgan Ishqni bir-biriga zid qo'ymaslik lozim. Chunki Allohga bo'lgan Ishqni Rasulullohga bo'lgan sevgidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi. (Bu haqda yana so'z yuritamiz.) Rivoyatda Robia' Allohga bo'lgan Ishqning oliy darajasini ta'kid etish maqsadida shunday deganlar.

Bir kuni Iso alayhissalom bog'dagi daraxtlarni sug'orayotgan navqironga duch keladilar. Yigit hazrati Isoga: «Rabbimdan menga bir zarra sevgi so'rab ber», - deb arz qiladi. Iso alayhissalom: «Allohdan bir zarra sevgi so'rab bersam, sen unga bardosh berolmaysan», - deganlarida, yigit: «U holda zarraning yarmisini bersin!» - deb yalinadi. Hazrati Iso:

«Yo Rabbim! Bu navqiron yigitga zarraning yarmisicha sevgingdan ato et!» - deydilaru yo'llarida davom etadilar. Oradan bir muddat o'tib, yana ayni shu yerga kelganlarida o'sha navqiron yigitni bog'da ko'rmay, qaerdaligini surishtiradilar. Odamlar:

-U aqldan ozib qolib, toqqa chiqib ketgan, - deb javob berishadi.

Hazrati Iso o‘sha yoshni o‘zlariga ko‘rsatishni so‘rab, Allohga munajat etadilar va uni tog‘da bir qoyaning ustida samoga termulganicha o‘tirgan holida topadilar. Salom beradilar, lekin yigit salomga alik olmaydi. Shunda:
-Men Isoman! - deya sado beradilar.

Vale Alloh vahiy yo‘li bilan hazrati Isoga buyuradiki:

-Ey Iso! Qalbida zarraning yarmisicha mening sevgim bo‘lgan kimsa insonlarning so‘zini qanday eshitsin?! Izzatim va Jalolim haqqi aytaman, agar bu yigitni arra bilan arralasang ham sezmaydi.

Bu o‘rinda ham, avvalgi holatda ham Allohga bo‘lgan Ishqning darajasi nisbat misolida keltirilyapti. Albatta bu oliy maqomga hamma ham erisha olmaydi. Kim oshiqlikning bu martabasiga erishibdi - bu dunyoning chin baxtiga yetibdi.

Er bilan ayol orasidagi sevgi o‘zaro bo‘lganidek, Alloh bilan banda orasidagi Ishq ham o‘zarodir. Bandaning Allohni va uning Rasulini sevishi - ularga itoat etishi, amrlarini bajarishi demakdir. Alloh bandasini sevishi esa, undan rozi bo‘lishi, uni afv etishi demakdir. Har bir banda toqati yetgan qadar Alloh Ishqi bilan yashashini aytdik. Ammo bilibmi, bilmaymi aldanib qolish ehtimollari borki, bundan ehtiyot bo‘lmoq zarur. Ulamo derlarkim: «Kim uch narsani da’vo qilsa-yu, uch narsadan o‘zini poklamasa, u aldangan bo‘ladi:

- Allohning o‘rtaga qo‘ygan axloq asoslariga rioya qilish zavqli ekanidan lof ursayu lekin dunyo sevgisidan voz kechmasa.
- Amallarni yolg‘iz Alloh uchun qilishni sevishini aytsayu lekin insonlarning unga ta’zim qilishidan mamnun bo‘lsa.
- Allohni sevaman desayu lekin nafsini tarbiya qilmasa, u kimsa aldangan bo‘ladi.

Aldanib qolishdan barchalarimizni Alloh asrasin. Endi har birimiz dunyodan ozgina muddatga uzilaylikda o‘z ko‘nglimizga murojaat etib ko‘raylik:

-Ey ko‘ngil! Sen Alloh meni sevadimi, sevmaydimi, deb qiziqyapsanmi? Xo‘sh, buning o‘lchovi bormi, bor bo‘lsa nimadan iborat? Sen Allohga qalban naqadar bog‘liqsan? Allohga bo‘lgan ishqing qay darajada - o‘lchov mana shudir. Bilkim, sening Allohga bo‘lgan muhabbating Allohning senga bo‘lgan muhabbatidir. Bu insonning botinidagi tuyg‘ularga bog‘liq. Ana shu tuyg‘ular maydonga kelsin, qalb nurlansin, deb zikr qilinadi. Zero, Allohning «Bas, Meni eslangiz, Men ham sizlarni eslayman», degan va’dasi bor. Bu amal naqadar go‘zal!

Ishq haqida har bir kishi aqli yetgan darajada fikr bildiraverishi mumkin. Ammo Ishq tufayli Allohning do‘sti - valiyulloh martabasiga yetganlarning yoki donish ahlining ustozlari sanalmish muhtaram zotlarning fikrlari bizlar uchun muhimroqdir, degan to‘xtamga kelib, ayrimlari bilan tanishib o‘tishni lozim ko‘rdik. Izoh sifatida deymizkim, mazkur fikrlar bir-biriga o‘xshamasa-da, biri ikkinchisini inkor etmaydi, aksincha, to‘ldiradi.

Dedilarkim: «Haq sevgisi nishoni uch narsa ila belgili bo‘lur: kishi saxovatda dengizga

o'xshar, shafqatda quyoshga o'xshar, tavozu' va maskanatda (miskinlik) tufroqqa o'xshar. Har ish

mujohada (nafsnı yengish yo'lida kurashish) birlan bo'lmog'i kerakkim, undan Allohning fazli ko'rilgay. Har kim Haqni bildi, uning savolga ehtiyoji qolmadi.»

Hazrati shayx Harisi Muhosibiy (quddisa sirruhu) aytganlar: «Allohning muhabbatiga loyiq zotlarda o'n ikki xislat saqlanmog'i lozim: 1. Na yolg'on, na rost gapga qasam ichmaslik. 2. Yolg'ondan saqlanmoqlik. 3. Va'dasidan qaytmaslik. 4. Maxluqqa la'nat o'qimaslik. 5. Hech kimni duoyi bad qilmaslik (ya'ni qarg'amaslik). 6. Zulm ko'rsa tahammul (sabr) etmoqlik. 7. Haromlardan saqlanmoqlik. 8. O'zini hech kimsadan ulug' ko'rmaslik. 9. Hech kimsaning xotirini sindirmaslik (ranjitmaslik). 10. Muridni injitmaslik. 11. Qazo kelsa sabr va shukr qilmoqlik. 12. Alloh farzlarini bajo keltirmoqlik.»

Insha Alloh, bu xislatlar xususida alohida boblarda so'z yuritarmiz, hozir esa ko'nglimizga yana bir murojaat etib ko'raylik:

-Ey ko'ngil! Fikr qil: nahot bu shartlarni bajarish og'ir bo'lsa?! Bu shartlarni ado etib Alloh sevgisiga yetishmoq uchun senga nima yetishmaydi? Aqlmi? Zehnmi? Irodami? Jur'atmi? O'yla! Alloh senga aql ham zehn ham bergan, ammo bu aql, bu zehnni nimalarga sovuryapsan? Iroda, jur'at, toqat... hammasini bergan-ku?

Endi hazrati shayx Shujo' Kirmoniyning (q.s.) ishq shartlaridan biri bo'lmish sidq (poklik, rostlik) xususidagi so'zlariga diqqat qilaylik:

«Sidq alomati uchdir: *uning oldida dunyoning tuproqchalik ham qadri bo'lmas, ya'ni oltin va kumushni tuproq o'rnida ko'rgay. *Xalqning maqtovi-yu, dashnomi uning oldida barobardir, na maqtovidan sevingay va dashnomidan og'ringay. *Shahvatni ichidan chiqargay, ochlikdan xushnud va shod bo'lgay, andoqkim, dunyo ahlining to'qlikdan shod bo'lgani kabi.»

Mazkurga bu ta'rif ayni mosdir: «Siddiqlar (ya'ni Haqgo'ylar) Haqning jamolini ochiq ko'rish umidi bilan yashaydilar va shuning bilan matlubdilar (sevimidurlar),-deydilar hazrat Navoiy. - Ularning Haqni ko'z bilan mushohada qilish umidlari o'zni unutish darajasiga yetgan va bundan ham o'tib, halok bo'lish maqomiga ko'tarilgan bo'ladi. Agar hodisalar bo'roni osmon gulshanining bir qabatini uchirib ketsa - ular bexabar va agar yulduzlar gul bargini har tomonga sovursa, bularga asar qilmaydi. Ularning hislari Haq jamolini ko'rish tashvishi bilan ishdan chiqqan, shavq-zavqlari esa unga bo'lgan ishqlarining hujumi ostida yo'qolib bitgan.»

Hazrati Yahyo Bin Muoz (q.s.) debdilarkim: «Muhabbat nishoni uldurki, yaxshilikdan kekkaymas, jafodan egilmas»

Ishqning shartlaridan yana biri zuhd (taqvodorlik) xususida hazrati imom Ahmad Hanbal (q.s.) fikr yuritib uni uch xilga ajratibdilar: «Birinchi - haromni tark etmoq, bu avom zuhdidir. Ikkinchi - halolning ham ko'pini tark etmoq - bu xoslarning zuhdidir. Uchinchi -Allohdan chalg'itadigan hamma narsani tark etmoq. Bu - oriflarning zuhdidir.»

Hazrati shayx Abu Said Xarroz (q.s.) debdilarkim: «Banda qachonki Allohga qaytgay va Alloh amriga yopishgay, o'zini va Haqdan boshqasini unutgay. «Qaerdan kelursan va ne istarsen?» deb so'rasalar, «Allohdan!» der, boshqa javobi bo'lmagay. Banda bu sifatli bo'lsa, nafsini o'ldirgan bo'lur. Ne so'zlasa, uning so'zi Haq so'zi bo'lgay, ne eshitsu ham, faqat o'sha bo'lg'ay! Zero, o'zi ul yerda bo'lmagay va aytarki: «men kimman, bilmayman, naylarman, qaydaman...»

-Nimani istaysan? - deb so'rasalar, aytarki:
-Alloh!

-Nimani bilursan?-deb so'rasalar, aytarki:
-Alloh!

Butun a'zoyi badani ham aytur: «Alloh!» «Alloh!» Zero, uning butun vujudi Alloh bilan to'lg'undir va Allohsiz joyi yo'qdur.»

Hazrati shayx Abdulloh Muhammad Fazl Balxiy (q.s.) debdilarkim: «Muhabbat - isordir (ya'ni o'zini ayamay bag'ishlash). Uning to'rt ma'nosi bor: *zikri doimiy bo'lib, shuning bilan shod bo'lmoq, *Haq bilan uns (do'stlik) tutmoq, *dunyo ishlaridan butkul uzilmoq, *Haqdan to'suvchilardan uzilmoq.»

Hiroflik mashhur shoir va shayx Xoja Abdulla Ansoriy bunday yozibdilar:
«Ko'ngilxushligi va uning faqr yo'lida hurmatga sazovor bo'lishi dilda Undan (Allohdan) o'zga, yodda jonondan (Allohdan) o'zga narsa bo'lmasligidir. Har bir ko'ngil shunday sifatga ega bo'lsa, uni ko'ngil deb bilgil. Yo'qsa, dengiz yoki kon bo'lsa-da, undan voz kechgil. Unga maskan bo'lgan ko'ngil -ko'ngildir, yo'qsa, gulshan bo'lsa ham gulxandir.»

Biz bir narsaga e'tiborimizni qaratishimiz lozim: yuqorida zikr etilgan talablarga ul muhtaram zotlarning o'zlari to'la amal qilganlar. Bizga ibrat bo'lguvchi ul zotlar Allohning marhamatiga erishsalar-da, o'zlarini tuproq qadar deb bilganlar. Holbuki, oramizda shunday birodarlarimiz borki, besh mahal namozni chala-chulpa o'qishni o'rganib olib, jannatga yo'llanmani qo'lga kiritdim, deb xayol qiladilar va hech kimga so'z bermay gerdayib yuradilar. Shunday kimsalarga «Islom nimadir?» deb savol berib ko'raylik. Ularning javobini eshitguncha o'zimiz deylikki: Islom - hayotning yashash bir tarzidir. Islom - namozmidir? Ha. Ammo faqat namoz emas. Ro'za tutmoqlikmi? Ha. Ammo faqat ro'za tutmoqlik emas. Hajmi? Ha. Ammo faqat haj degani emas. Ishqsiz bularning barchasi quyoshsiz osmon kabidir. Endigi rivoyat balki Ishq nimaligini bilishni istamayotgan ayrim birodarlarimizga ibrat bo'larmikin?

Bir murid shayxi Boyazid Bistomiyni (q.s.a.) tushida ko'rdi va so'radi: «Munkar va Nakirdan qanday o'tdingiz?» Shayx dedilar: «Munkar va Nakir «Rabbing kim?» deb so'raganlarida men: «Borib, Allohdan so'rang, «Boyazid sening kimingdir?» deb. Ul ne desa Boyazid o'shadir. Ul «Boyazid bandamdir» demagunicha mening ming karra «Rabbim Allohdir!» deb aytmog'imning foydasi yo'q.»

Ishq ahlining o'lim bilan uchrashuvi ham o'ziga xosdir. Mavlono Jaloliddin Rumiy o'zlarining o'limlarini «Shabi arus», ya'nikim, «nikoh oqshomi» - kelinni ko'radigan, lazzat oladigan, hayajonlanadigan, visolga erishadigan oqshom, deb ataydilar.
«O'lganimda mening orqamdan yig'lamang, «alvido!» demang. Men ajralishga emas,

uchrashuvga ketyapman», - deganlar... E'tiqodli, oshiq bir insonning so'nggi nafasлари...

Yana mavzuga qaytsak: «Dard (ishq) ahlining nafasi bir o'tdirki, qattiq ko'ngilni yumshatadi va diydasi qattiq odamni ham yig'latadi. Kuyganlarning dami shunday yelki, u manmanlik xashagini sovuradi va jaholat tuprog'ini supuradi, - deydilar hazrat Navoiy. - Do'st diydorini ko'rishni istasang - oshiq bo'l. Buning uddasidan chiqmasang - oshiqlar atrofida bo'l. Agar senda u o'tning sho'lasini ko'rish havasi bo'lsa, bir uchquni sen tomonga yuzlansa basdir. Ishq bir o'tdurki, oning shu'lasidin bir sharar, Tushsa gardun pardasig'a o'rtar andoqkim, harir, Senki jisming parda toridin dag'i bo'lg'ay nahif, Tushsa ul yanglig' choqin tuzgaymu ul tori haqir.» (deyilmoqchikim, Ishq - bir o'tdir, agar uning shu'lasidan bir uchqun osmon pardasiga tushsa, uni mayin shoyidek o'rtaydi. Sening jisming tori esa, ana shu parda ipidan ham nozikdir. Agar unga o'shanday chaqin tushsa, bechora tor chiday oladimi?)

Hazrat So'fiy Oллоhyor ishq masalasida ko'p satrlarni bizga meros qoldirganlarkim, o'qisak, uqsak, amal qilsak sharaf topgumizdir. «Onang yo singling bo'lsa-yu, ularda Allohning dardi bo'lmasa, ular sening boshingni oluvchi dushmaning. Kimki, Ishq dardidan bexabar bo'lsa, o'g'il-qizing bo'lsa ham xasmingdir, dushmaningdir.» Kamina bu o'gitni shunday tushunadi: yaqinlaring qalbida Ishq bo'lmog'i uchun avvalo sening o'zing Allohni butun borlig'ing bilan seva olishing kerak. Chunki farzandlaring nimani o'rgansa ham avvalo sendan o'rganishadi. Agar ularga Ishq dardi o'zga ustozlar orqali o'tsa-yu, sening o'zingda bu dard bo'lmasa, u holda yaqinlaringning eng katta dushmani o'zingsan.

«Sabotul ojiziyn»da o'qiymiz:

Muhabbat jomidin topsa kishi bahr,

Na qilsun mol-mulki Movarounnahr. deyilmoqchiki: birov muhabbat jomidan bahra olib, uning bir qultumini ichdi, deguncha molu-mulkka, garchi u molu-dunyo Movarounnahr mulkidan ko'proq bo'lsa-da, nazar-pisand qilmas. Muhabbat jomidan ichgan kimsaning istagi faqat ma'shuqiga (Allohga) qaratilgan bo'ladi.

Ko'ngil mulkiga bir oliy sifatdur,

Muhabbat ganji bog'i ma'rifatdur.

Deyilmoqchiki: ko'ngilning davlati va mulki shundayin bir yuqori sifatdirki, uni so'z bilan vasf qilib bo'lmaydi. Chunki, ko'ngil muhabbat bog'i va xazinasining manbai va Allohning nazargohidir. Shunday ekan, uni bayon qilish qachon mumkin bo'lgan?

Rizoyi hazrati Ma'bud o'shanda,

Jami'i istagan maqsudlar anda. deyilmoqchiki, Haq taoloning rizosi o'sha ko'ngilda, istalgan niyatlarning barchasi o'sha ko'ngil uyida bo'lsa, albatta bularni vasf qilish mumkin emasdir.

Aningdek mulkning sultoni bo'lsang,

Na hojat yer yuzining shohi bo'lsang. deyilmoqchiki, sen shu ko'ngil mulkining shohi bo'lsang, yer yuziga sulton bo'lishlikka aslo hojat qolmaydi. Zeroki, dunyo podshohligi - foniy, oxirat shohligi - boqiy.

Alhol, hazrati shayx Ibrohim bin Adham (qoddasallohu sirrahul aziz) qissalarini eslash o'rni keldi.

Balxning podshohi Ibrohim bin Adhamning qirq nafar oltin qalqonli quli dabdaba bilan uning oldida borar, yana qirq nafari esa ortida yurar edi. Bir kecha saroyda yotsalar tomning tepasida dupur eshitildi. «Ul nimadur?» - deb tovush bergan edilar, «Tuyani qidirapman» degan sado keldi. «Tuyani tomning ustida qidiradilarmi?» - degan edilar, javob keldiki: «Ey g'ofil, Allohni shohi ko'rpalar ichida qidiradilarmi?»

Bu so'zni eshishlari bilan ul zotning jonlariga o't tushdi. Tongga qadar uxlay olmadilar. Ertalab mutaassir bo'lib taxtga o'tirdilar. Arkoni davlat va qullari kelib, qo'l bog'ladilar. Shu zamon haybatli zot eshikdan kirib kelib, taxt yoniga bordi. Biron kishi biror so'z so'zlay olmadi. Tillari tutildi. Ibrohim bin Adham: «Ketgil, bu saroy menikidir, sen telbamisanki, bu yoqqa kelding?» - degan edilar, ul zot: «Bul karvonsaroydur. Sendan avval kimniki erdi?» - dedi. «Otamniki, undan oldin bobomniki edi», - deb javob berdilar. Yana savol berildi: «Ular ne bo'ldilar?» Javob qilindi: «O'ldilar...» Deyildi: «Demak, mening aytganimdek, bul karvonsaroy emasmidirki, birisi kelib, birisi ketar?»

O'shal zot Hizr alayhissalom edilar. Ibrohim bin Adhamning dardlari zo'raydi. Tasalli topmoq umidida shikorga chiqdilar. Unda saroy ahliidan ajralib, yolg'iz ketar ekanlar: «Intabeh!» (Ogoh bo'l, uyg'on!) degan ovozni eshitdilar. So'ng yana «Intabeh!» deyildi. Uchinchi marta esa «Intabeh, qoblan tantabeh!» («o'lmoqdan avval uyg'on!») - deyildi. Buni eshitganlari zamon dunyodan qo'l tortdilar. Otni ilgari surdilar. Ro'paralaridan bir kiyik chiqdi. Qo'lga kamon olgan edilar, kiyik tilga kirdi: «Yo, Ibrohim! Hazrati Haq taolo seni ov qilmoq uchun dunyoga keltirdimi? Boshqa ishing yo'qmi?» Shu so'zlarni eshtar ekanlar yana bir ovoz keldiki: «Sen ov qilmoq uchun yaratilmading!» Bu sas ul zotni titratdi. Ko'zlariga malaklar ko'rindi. Yig'lay boshladilar. Shu qadar yig'ladilarki, kiyimlari ho'l bo'ldi. Jonu dil bilan nasuh tavbasini qildilar. (Nasuh tavbasi - sof, xolis holda, qayta gunoh qilmaslik ahdi bilan qilinuvchi tavbadir.) Shu holda ketar ekanlar, o'z odamlaridan bo'lmish bir cho'ponga uchradilar. Cho'ponning chakmoni va telpagini kiyib olib, qo'ylarini unga bag'ishlab yubordilar. Ul zotning bu hollariga malaklar nazar qildilar: «Podshohlik libosini yechib, jannat va jamolulloh oshig'i oxirat libosini kiydi», dedilar.

Ishq ana shundaydir...

-Ey ko'ngil! Diqqat ila quloq tutgilkim, ehtimol senga ham «Intabeh, qoblan tantabeh!» nidosi kelayotgandir. Ehtimol qalbing quloqlarini, qalbing ko'zlarini nafs pardalari to'sib olgandir?! Ziyrak bo'l! Qalbingga boq!

Yana «Sabotul ojiziyn»ga qaytaylik:

Agar xandalcha bo'lsa mehri ag'yor,

Bo'lur botin ko'zi mahjubi asror.

Deyilmoqchiki, agar bir ahlillohning ko'nglida qalampir urug'ichalik Allohdan boshqaning muhabbati bo'lsa, o'sha kimsaning ko'ngil ko'zi Alloh taoloning sirlaridan pardalanadi. Ya'ni u kishiga Alloh taoloning sirlari yopiq bo'ladi.

Nechukkim, zarrayi xas tushsa ko'zga,

Qilur, albatta, ko'rmakliking o'zga.

Chunki, masalan, agar zarradek biror narsa ko'zga tushsa, albatta, ko'zning ko'rishini o'zgartiradi. Uning ko'rihi narsa tushmasdan ilgari gidek bo'lmaydi. Shuning kabi yuqoridagi baytga qaytilsa, bir ahli muhabbatning ko'ngliga Allohdan boshqa narsaning muhabbati tushsa, albatta, Alloh taoloni sevmog'i o'zgaradi. Shu sababdan ahlillohning ko'nglida zarra miqdori Allohdan g'ayrining muhabbati bo'lmaydi. Ertayu kech Alloh rizoligi talabida bo'ladi.

Ibodot bandaning manzuri bo'lsa,

Beh ul erning uyinda huri bo'lsa.

Bir bandaning zavqi va ishq Allohning ibodatida bo'lsa, uning uyida bir hur qiz bo'lsa ham, o'sha go'zal qizga maylu muhabbat bildirmas. Hamisha Allohning Ishqida bo'lib, toatu ibodatini qilur.

Rivoyat qilurlarkim, bir zohid ibodatda edi, ayol o'tib, xayoli bo'lindi. Tanbeh berib dediki: «Men Alloh bilan band edim, sen uni buzding.» Ayol dediki: «Men ham Alloh bilan band edim, sizning bunda o'lturganingizni sezmayman.» Ishqning quvvatiga o'zingiz baho bera qoling.

Rus adibi Lev Tolstoyning Islomga muhabbat qo'ya boshlagani haqida ma'lumotlar bor. Lenin uning nasroniylikdan chiqqan hisoblagan, ammo Islomga munosabatini tan olmay, uni xudosiz hisoblab, «rus revolyutsiyasining otasi», deb ta'riflagan edi. Yozuvchini nasroniylarning qabristoniga qo'yishmagan. U o'z bog'iga dafn etilgan, qabri tepasida xoch qo'yilmaganini avvalgi risolamizda batafsil bayon etib edik. Lev Tolstoyning «Tarki dunyo Sergiy» deb nomlangan asari bor. Nima uchundir uni «Avliyo Sergiy» deb tarjima qilishgan. Holbuki u avliyo (svyatoy) emas, aynan dunyodan kechgan (отщел'nik) kishidir. Bir vaqtlar e'tiborli oilaning farzandi sanalmish bu odam ofitserlar orasida baobro' bo'lgan. Uning sevgilisiga podsho tomonidan ko'z tashlangach, u dunyodan nafratlanadi va voz kechadi. Ha, u dunyodangina voz kechadi, Yaratganga oshiq bo'lish martabasiga yetadi. Zero, tarkidunyochilik boshqa, oshiqlik boshqa. Bu ikki tushuncha bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, bir narsa emas. Yozuvchi bayonidagi Sergiy boshqalar kabi rohiblikni tanlamaydi, balki undanda battarini - yolg'izlikni afzal biladi. Xarob kulbalarda hayot kechiradi. Uni yo'ldan urgisi kelgan birodarlari turli nayranglar ishlatadilar. Oxiri bir qizni uning kulbasiga kiritadilar. Tunda shayton vasvasasidan qutulish uchun Sergiy boltani olib o'z panjasini chopib tashlaydi. Bu voqea bayoni necha yuz yil avval bitilgan yuqoridagi baytning isboti kabi tuyuladi.

Kel, e tolib, ko'zing ibrat bilan och,

Muhabbatsiz kishidan qush bo'lib qoch.

Muhabbat ahlining jo‘yoni bo‘lg‘il,

O‘shalkim, uchradi, qurboni bo‘lg‘il.

Deyilmoqchiki: sen hamisha Allohni sevuchilarni izla. Banogoh ular senga uchrab qolsalar, yo‘llarida fido bo‘lib, o‘zingni qurbon qil. Zero, ahlillohni topmoq - Xudoning o‘zini topmoqlikdir. Demak, o‘zni qurbon qilmoqlik - Allohga nisbatandir.

Ulug‘larning fikrlaridan aqlimizni quvvatlantirib biz ham bir-ikki so‘z aytmoqlikni niyat qildikim, Alloh adashtirmagay.

Inson har kuni o‘ziga rizq bergan, sog‘liq va aql bergan, turli-tuman tunganmas ne‘matlar bilan ne‘matlantirgan Allohni mutlaqo tanishi, bilishi kerak. Bu - ishqning poydevori, avvalidir.

Maryam surasida «Shaytonga ibodat qilmanglar», deb ogohlantirgan Rabbimiz nafsga sig‘inish, unga but kabi qulluq qilish haqida Josiya surasida marhamat qiladikim: «(Ey Muhammad), havoyi nafsini o‘ziga «iloh» qilib olgan va Alloh uni bilgan holda yo‘ldan ozdirib, quloq va ko‘nglini muhrlab, ko‘z oldiga parda tortib qo‘ygan kimsani ko‘rganmisiz?»

Ayrim insonlar ba‘zan Allohga sig‘inmay, itoat etmay, shaytonga itoat etib, uning vasvasasini bajarishadi. Ba‘zilar nafsiga tobe’ bo‘lib, uning xohishlarini ijro qiladilar. Bu qabihliklardan o‘zni saqlash va yolg‘iz Allohga itoat etish, uning amru farmonini bajarish, faqat Allohga sig‘inish - Ishqning tamali hisoblanadi.

Ishq - aql va mantiqqa uyg‘un. Biz ko‘proq amallarimizning tashqi tomoniga ahamiyat beramiz. Holbuki, botini muhimroqdir. Islomda niyat va ixlos asos hisoblanadi. Ishq ham aynan shu ikki buloqdan suv ichadi. Masalan, ikki kishi aynan bir ishni bajaradi. Lekin biriniki qabuldir, ikkinchisniki esa yo‘q. Nima uchun? Negaki, o‘sha birinchisining niyati xolisdir, ikkinchisining xayoli boshqa narsada, niyati buzuq. Zohiran bir xil amal bajaradilar, ammo Allohga bo‘lgan muhabbatlari bir xilda emas. Shunga ko‘ra, biriga mukofot beriladi, ikkinchisiga esa jazo. Ishq xolis samimiyatni talab etadi. Zohirparastlikni esa qabul etmaydi. Ichki poklikni, botiniy samimiyatni talab etadi.

Valid ibn Abu Valid va Abu Usmon Madaniydan Uqba ibn Muslim rivoyat qiladilar:

Abu Hurayradan (r.a.) «Janobi Rasulullohdan (s.a.v.) eshitib, xotirangizda yaxshi saqlangan hadisdan aytib bering», deb iltimos qilindi.

-Mayli, yaxshi eslaganimni ayta qolay, - dedilaru hushdan ketdilar. So‘ng o‘zlariga kelgach: -Rasulullohning (s.a.v.) o‘zlari bilan mendan bo‘lak biror kimsa yo‘qligida aytgan hadislarini so‘zlayin, - deb yana hushdan ketdilar.

Nihoyat hushyor tortganlaridan so‘ng bu hadisni aytdilar:

-Rasululloh (s.a.v.) o‘shanda marhamat qildilarki, Alloh taolo qiyomat kuni barchani hisob-kitob qiladi. To‘planganlar tiz cho‘kkan ko‘yi, navbatlarini kutadilar. Eng avval uch toifa odam chaqiriladi: Qur‘onni ko‘kragida jamlagan kishi, mol-dunyosi ko‘p bo‘lgan kishi va shahid bo‘lgan kishi.

Alloh taolo Qur'onni yod olgan kishidan:

- Payg'ambarga nozil etilganlarni senga o'rgatmadimmi?-deb so'raydi.
- Menga bildirding, yo Rab!
- Senga o'rgatilgan ilmga muvofiq harakat qildingmi?
- Ha, yo Rabbim! Kecha-kunduz Senga ibodat qildim.
- Yolg'on gapiryapsan, - deydi Alloh taolo.
- Sen yolg'on gapiryapsan, - deyishadi farishtalar ham.

Shunda Alloh taolo deydiki:

- Boshqalarning: «Falonchi o'qigan odam, ilmi», deb maqtashlari uchun o'qib-o'rgangan eding, seni shunday deyishdi ham.

Undan keyin mol-dunyosi ko'p bo'lgan kishi o'rta olib chiqiladi. Alloh taolo undan:

- Men senga yetarlicha mol-dunyo bermadimmi, hatto hech kimga muhtoj bo'lmaydigan darajada seni boy qilib qo'yamadimmi? - deb so'raydi.
- Ha, yo Rabbim, - deb javob qiladi u odam.
- Senga berilgan molni nima qilding, qanday sarflading? - deb so'raydi Alloh taolo.
- Qarindoshlar haqlariga rioya etdim, sadaqa qildim, zakot berdim.
- Yolg'on gapiryapsan, - deydi Alloh taolo.
- Sen yolg'on gapiryapsan, - deyishadi farishtalar ham.
- Shunda Alloh taolo deydiki:
- Sen «Odamlar meni saxiy deb atasin», deya shunday qilarding. Seni shunday atashdi ham.

Shundan so'ng shahid bo'lgan kishi olib kelinadi. Janobi Haq undan:

- Sen nima uchun o'ldirilding? - deb so'raydi.
- Yo Rabbim, Sening yo'lingda qurbon bo'ldim.
- Yolg'on aytyapsan, - deydi Alloh taolo unga.
- Sen yolg'on so'zlayapsan, - deyishadi farishtalar ham.

Shunda Alloh taolo deydiki:

- Mening amrimni ado etish uchun emas, odamlarning «Falonchi jasur ekan», deyishlari uchun kurashding. Odamlar seni shunday deyishdi-ku?»

Abu Hurayra (r.a.) davom etib aytdilarki:

«Janobi Payg'ambarimiz (s.a.v.) shundan keyin mening tizzamga urib qo'yib:

- Ey Abu Hurayra, qiyomat kuni Allohning maxluqlaridan jahannam olovida birinchi yonadiganlari ana shu uch odamdir,-dedilar.»

«Tanbehul g'ofiliyn» asarida ta'kid etilishicha, bu uch toifaga avval jannat ko'rsatiladi. Ular «jannatga tushamiz», deb quvonib turishganda do'zaxga hukm bo'lishadi va «bizga jannatni ko'rsatmay turib to'g'ri do'zaxga tashlaganing durust edi», deb yig'lashadi. Demak, niyati xolis bo'lmaganlarning jazosi qattiqroq bo'lar ekan. Niyat xolis bo'lmoqligi uchun esa qalbda ozmi-ko'pmi Ishq bo'lmog'i shart.

Mazkur sharafli hadis Muoviyaga aytilganda u: «Bu uch kishining boshiga shunday kulfat tushsa, boshqalarning holi qanday bo'larkin?» - deb uzoq yig'lagan, so'ng Hadid

surasini o'qib degan ekan-ki:

-Allohning Rasuli (s.a.v.) rost so'zlabdilar. Chunki Alloh taolo: «Kimki dunyo hayoti va uning ziynatini istasa, ularga amallarning (savobini) shu (dunyoda) mukammal berurmiz va ular (dunyoda) ziyon ko'rmaydilar. (Ya'ni savoblari uchun ajrni ham shu dunyoda olib, oxiratda benasib bo'lurlar.) Ana o'shalar uchun oxiratda do'zaxdan boshqa (narsa) yo'qdir. (Ularning) savobli ishlari habata (barbod) va qilib yurgan amallari botil bo'lur», - deya marhamat qilgan-ku!

Ishq - Allohga ishonish, Allohni tanish, Uni izlash, roziligini topish ekan va bu xolis samimiyatni talab qilar ekan. Buni «ma'rifatulloh» yoki «irfon» ham derlar. Irfon egasini esa «orif» yoki «orifun billah» ham derlar. Ya'nikim, xolis niyat ila Allohni tanigan, Allohga yetgan. Bu maqomga yetganlarni «eran» ham derlar, ya'nikim, o'zining yuqori darajadagi ishq tufayli Allohga yetishgan. So'radilar: «Orif kim?» javob berdilarkim: «Orif uldurki, hech narsa uning mashrabini (tabiatini) bulg'ay olmas, har qanday kadar unga sof bo'lur. Har kim xalqqa orifdir, Haqqa johildir. Har kim xalqqa johildir, haqiqatan orifdir. Orifning nifoqi johilning ixlosidan a'lodir.»

Turklarning ulug' shoiri Yunus Emro «Izlamagin olislardan, ko'nguldadir maqomi», deb yozgan ekanlar. Demoqchilarkim, «Sen Allohu taoloni uzoqlardan, osmondan yoki boshqa tomonlardan izlama, uning maqomi sening ko'nglingdadir. Ko'ngling, ya'ni qalbing muhabbat bilan Allohni bilish va unga yetish ishq bilan yonib-o'rtanadi. Uni sevish va har bir narsani uning rizosi uchun qilish asosiy maqsad - Alloh tomonidan sevilgan qul bo'lish baxtiga yetkazadi.»

O'ylaylik: birov «Mercedes»ni sevadi, unga erishmoq uchun tunu kun harakat qiladi. Tinim bilmaydi. Hatto Olmoniyadagi zavodiga ham borib keladi. Bu uning ko'ngil ishi. Nafsi shunday buyurdi - qildi. Afsus bilan deymizki: Alloh roziligiga erishish uchun ham shunday intilsa edi...

Xos oshiqlar kimningdir sevgisiga, maqtoviga, shuhratiga, xayru-ehsoniga ahamiyat bermaydilar. Ular faqat va faqat Alloh tomonidan sevilishni xohlaydilar. Va faqat shu yo'ldagina harakat qiladilar.

Hazrati Rasululloh (s.a.v.) yahudiy ruhoniylarni Islomga da'vat etganlarida, ular: «Biz Allohni sevamiz, biz Allohning sevimli qullarimiz. Bizning o'z dinimiz bor, o'z e'tiqodimiz bor, nega sening oldingga kelishimiz, senga bay'at qilishimiz kerak? Senga tobe' bo'lishga bizda hojat yo'q. Biz Allohni taniymiz va sevamiz», - deganlarida Alloh taolo tomonidan bu oyati karima nozil bo'lgan: «Ayting, (ey Muhammad!) «Agar Allohni sevsangiz menga ergashinglar. Shunda Alloh sizlarni sevadi va gunohlaringizni mag'firat etadi.» (Oli Imron). Bundan murod: «Siz, ey Muhammad (s.a.v.), Allohning sevgili qulisiz va rasulisiz. Sizga ergashsinlar. Shunda Alloh ham ularni sevadi», - degan mantiqli hukmdir. Allohning bir qulini sevmqlik sharti keskin tarzda ma'lum shartlar vositasida maydonga chiqadi. Xo'sh, bir qulning Alloh tarafidan sevimog'ining asosiy sharti nima ekan? Rasulullohning (s.a.v.) yo'llaridan yurmoq, har ishda hazrati Payg'ambarimizga (s.a.v.) taqlid qilmoq, u muhtaram zot kabi harakat qilmoq, tavsiyalarini bajarmoq va u zoti sharifni yaxshi ko'rmoq, sevmqlik vositasi bilan bo'lar ekan. Oriflar (eranlar) mazkur shart va vositalarni amalga oshirgan Allohning suyuqlik bandalari edilar. Deydilarki:

Ey Allohim, meni mendan ayirma,
Meni aslo jamolingdan ayirma.
Baliq joni tirik erur suv ichra,
Ilohi, baliqni ko'ldan ayirma.

«Meni ishqing daryosidan tashqariga chiqarma. Baliq suv bilan tirik bo'lgani kabi Ishq ahli Allohning sevgisi, jamoli bilan tirikdir», degan ma'noni uqamiz mazkur satrlardan.

Ishq ahlining zimmasida ikki vazifa mavjud bo'ladi:

Allohni bandalarga sevdirmoq.
Bandalarni Allohga sevdirmoq.

Albatta, bandalarga Allohni sevdirmoq go'zaldir. Masalan, bolaga biron shirinlik bersangiz, totib ko'rgach, uni yoqtirib qoladi. Bandalarga Allohni sevdirmoq unchalik qiyin emas. Aytadilarki, banda haqiqiy komillik yolg'iz Allohga oid ekanligini, o'z nafsida yoki boshqalarda ko'rinadigan komillik esa yolg'iz Allohdan kelishini idrok etayotganda Allohni sevgan bo'ladi. Ammo bandalarni Allohga qanday yo'l bilan sevdirmoq mumkin? Ta'kid etamizki, buning uchun banda Rasulullohga (s.a.v.) ergashadi, Rasulullohning sunnati saniyyalariga tobe' bo'ladi, sunnati saniyyaga muvofiq kamolga yetishadi. Sunnati saniyyaga ergashmoq har xil bid'atlardan saqlanmoq, hazar qilmoqlikni talab etadi.

Avvalgi bobda ibrat xususida aytib edik. Rasulullohni (s.a.v.) qanday sevisish lozimligi borasida ham tarixda biz uchun ibratlar ko'p. Hazrati shayx Uvays Qaroniy (qoddasallohu sirrahul aziz) ibratlarini eslashning o'zi kifoya. Uvays Qaroniy hazratlari Rasulullohni ko'rmay turib ham sevganlar. Kofirlar Uhud jangida payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v.) janobimizning tishlarini sindirgani xabarini eshitib, bundan g'oyat qalban kuyib, o'z og'izlaridagi barcha tishlarini sindirgan ekanlar. Hazrati Uvays avval bir tishlarini tosh bilan urib sindirib, «Payg'ambarimizning (s.a.v.) singan tishlari balki bu o'rindagisi emasdir», deb boshqasini sindirdilar. Shu zaylda barcha tishlarini sindirib chiqdilar. Ikki jahon quyoshi - Payg'ambarimiz salavotullohu alayhi va salomuhu janobimiz Uvays Qaroniy hazratlarining madhida «Yamandan menga Alloh oshig'ining isi kelur», - deb marhamat etganlar. Bu mo'jizani qarangki, Rasululloh (s.a.v.) bu oshiqni ko'rmay turib, u haqda eshitmay turib bilganlar. Sahobai guzin (suyukli sahobalar) Rasululloh janobimizdan Uvaysning qaerda ekanini so'raganlarida «Yaman viloyatining Qarn qishlog'ida», - deb marhamat etdilar.

-Yo Rasulalloh! Uvays zoti risolatpanohlarini (ya'ni Sizni) ko'rganmi? - deb so'radilar.

-Ko'rgan va lekin zohirda ko'rmagan, - deb marhamat qildilar.

-Bul qanday oshiqdirki, Sizni ko'rmas?

-Ikki sababi bor: birinchisi - hol g'alabasidan, ikkinchisi - shariat azamatidan, ya'ni ko'zi ojiz onasi bor uyni yolg'iz qoldirib kelmadi. Shariat amrini tutdi, onalik haqiga rioya etdi.

Rasuli akram janobimiz oxirat dunyosiga rihlat qilar ekanlar, hazrati Umar va hazrati Aliga (r.a.) muborak muraqqa'larini (kiyimlarini) berib, Uvays hazratlariga eltmolikni vasiyat qildilar va hazrati Uvaysning ko'rinishlarini ta'rif etdilar: «Badani yunglidir, o'ng qo'lining panjasida oppoq, bir tangachalik xol bordir. Mendan salom aytingiz. Muraqqa'ni kiyib, ummatimni duo qilsin...»

O'rni keldikim, ulug'larning Alloh rasulini sevmolik haqida aytganlarini eslamok lozim:

«Bir kuni tushimda Payg‘ambarimiz alayhissalomni ko‘rdim. Mendan: «Alloh seni qaysi xislatlaring tufayli do‘stlaring orasida balandroqqa qo‘yadi, bilasanmi?» - deb so‘radilar. Men «yo‘q», deb javob berganimda, shunday deb marhamat qildilar: «Solih kishilarga xizmat qilishing, musulmon birodarlaringga o‘git berishing, mo‘minlarni va mening sunnatimga ergashganlarni sevganing va mening go‘zal axloqimga ega bo‘lganing tufayli!» (Hazrati shayx Bishri Hofiy, qoddasallohu sirrahul aziz).

«Alloh sevgisining alomati Qur'on sevgisidir. Qur'on sevgisining alomati Payg‘ambar sevgisidir. Payg‘ambar sevgisining alomati uning sunnatiga va go‘zal axloqiga tobe’ bo‘lmoqdir. Sunnatga tobe’ bo‘lishlikning alomati oxirat hayotini unutmastir. Oxirat hayotini unutmastirning alomati dunyoga hirs qo‘yishdan, harom va g‘ayrimashru' daromad yig‘ishdan qochishlikdir.» (Hazrati shayx Sahl bin Abdulloh Tustariy, quddisa sirruhu.)

«Allohning lutfi bo‘lmasdan bir kimsa Unga yetisholmas. Allohga yetishishning yo‘li uning Rasuli hazrat Muhammadga (s.a.v.) tobe’ bo‘lishdir.» (Hazrati shayx Junayd Bag‘dodiy, qoddasallohu sirrahul aziz.)

Alloh nasib etsa, keyingi boblarda ham Rasulullohning (s.a.v.) go‘zal xulqlariga ergashish masalasiga qayta va qayta murojaat etajakmiz. Alhol, birgalashib, ko‘nglimizga yana deylikki:

-Ey ko‘ngil! Oyati karimada aytilgani kabi Rasulullohga (s.a.v.) ya‘ni Allohning sevgan bandasiga o‘xshab harakat qil! Alloh o‘z habibini sevgani kabi Unga ergashgan, Unga muvofiq amal qiladigan, o‘zini Unga o‘xshatadigan, o‘zini Unga o‘xshatadigan kimsani ham sevgaydir. Buni unutm!

Endi ayt-chi: Alloh itoat etganni sevadimi yo sarkashnimi? Ibodat qiluvchini sevadimi yo osiy bo‘lgannimi? Yaxshilik qilganni sevadimi yo zulmu yomonlik yo‘lida yuruvchinimi? Ha, buning javobi aniq, buni hamma yaxshi biladi. Alloh itoat etganni, savob ishlar qilganni sevadi. Bu haqda Qur'oni Karimning Baqara surasidagi oyatni qayta-qayta o‘qib, uqib ol: «Albatta, Alloh yaxshilik qiluvchilarni, ibodatini jonu ko‘ngildan ado etgan bandalarini sevadi.» Yana Alloh rasulining (s.a.v.) so‘zlarini unutm: «Kim mening axloqimni ihyo etsa (takrorlasa, tiklasa), meni sevganidir. Kim meni sevsa, qiyomat kuni jannatda men bilan birgadir.» Payg‘ambarimiz (s.a.v.) marhamat qilganlarkim: «Insonlarning axloqi buzilganida va ixtiloflar avjiga chiqqanida Alloh rasulining go‘zal axloqini namoyon qilgan odamga yuz shahidning savobi beriladi.»

Ey ko‘ngil! Sen shunday savob egasi bo‘lmoqlikka intil! Rasulullohning (s.a.v.) «Kim mening go‘zal axloqimga tobe’ bo‘lmasa, unga shifoatim haromdir», - degan so‘zlarini hech qachon unutm va shifoatlariga umid qil.

Rasululloh (s.a.v.) marhamat qilganlarkim: «Siz bir odamni ko‘rsangiz, u odam ko‘kda uchsa, yo suv ustida yursa yohud olov yesa va yo shunga o‘xshash ba‘zi narsalarni qilsa, lekin Alloh farz qilgan amallarni ado etmasa va Payg‘ambarning go‘zal axloqiga ergashmasa, bilingizki, u kimsa yolg‘onchi va nayrangbozdir.»

Ey ko‘ngil! Sen undaylarga hargiz yaqin bo‘lmagaysen! Har on Rasululloh (s.a.v.) huzuridaman, deb o‘ylagilki, harakatlaringda ul zoti sharifning sunnatlariga zid holat

chiqib qolmasin. Musibatlarga duchor bo'lganda chida va sabr et. Gunohkorlarga va Payg'ambarimizning yo'llaridan chiqqanlarga mag'firat tilab duolar qil...

Ey ko'ngil! Sen biror mansab umidida bo'lsang yoki biron marhamat ilinjida yursang albatta boshlig'ing so'zlarini jon qulog'i bilan eshitasan, uning buyruqlarini oshig'i bilan bajarishga urinasan. Agar talaba bo'lsang, ustozingning aytganlariga itoat qilasan, imtihonlardan o'tish uchun dars tayyorlaysan.

Alloh aytganlarini bajarish, vazifalarini ado etishda barchamiz ham ana shunday rag'bat namoyish etamizmi? Tahorat qil, namoz o'qi! Kimdir o'qiyda, kimdir o'qimaydi. Ro'za tut! Birov tutadi, boshqasi yo'q. Zakot ber! Hamma ham beravermaydi. Yaxshilik qil! Bir odam bu amrga itoat etadi, yana biri yuzini ters o'giradi. Zulmu munofiqlik qilma! Kimdir zulmdan hazar qiladi. Yana kimdir uchun zulm - hayotining mazmuni. Zino qilma! Birov nafsini tiya oladi, yana birov bu fahshni a'lo deb biladi. Ota-onani hurmat qil! Kimdir ota-onasining duosini oladi, yana kimdir la'nat tamg'asini afzal biladi. Aroq ichma! Bir toifa bo'g'zini pokiza saqlaydi, boshqa toifa shayton siydigini icha-icha to'ymaydi. Yolg'on gapirma! Birov rostlikni shior qilib yashaydi, boshqasi yolg'on gapirmasa go'yo o'lib qoladiganday bo'laveradi. Xo'sh, bularning qay biri Alloh uchun sevimli?

Mavzuni davom ettirishdan oldin bir masalaga qisqaroq tarzda bo'lsa ham izoh berib o'tishni lozim topdik:

Biz ishq ahli - orif (eran)lar haqida juda-juda kam bilamiz. Darvishlar haqida esa undanda kam bilamiz, bilganlarimizning ancha qismi esa xatodir. Ularni Sovet davridagi xudosizlarning kitoblari yoki kinolaridangina bilamiz. Darvishlar bizning nazarimizda gadolardir, yirtiq-yamoq kiyuvchi, isqirt yuruvchi ishyoqmas bir shaxsdir. Agar shu fikrda qolsak, u muhtaram zotlarni haqoratlagan bo'lamiz.

To'g'ri, darvishlar hashamdan, xususan yasan-tusandan voz kechganlar, ya'nikim, dunyo sevgisidan yuz o'girganlar. («Darvish» atamasining ma'nosi - dunyoni sevmagan pok, sofdil kishi, demakdir.) To'g'ri, hayotda ozmi-ko'pmi o'zini bechorahol, benavo ko'rsatib, tekinxo'rlik bilan kun ko'ruvchilar bo'lgandir. Ammo ularga qarab turib, darvishlarni yomonotliqqa chiqarishimiz insofdan ham, aqldan ham emas. Tarixdan ma'lumki, ular ko'p yerlarga Islom yetib borishiga xizmat qilganlar. Masalan, Xoja Ahmad Yassaviy hazratlarining darvishlari Bolqonga qadar borib u yerliklarni musulmon bo'lishlariga xizmat qilishgan. Darvishlar uzoq o'lkalarga da'vat uchun, ma'rifat uchun ketishgan. Ular ochlikdan, kambag'allikdan, kasalliklardan va boshqa qiyinchiliklardan qo'rqishmagan. Mutavoze', xushaxloq, birovga zarari yo'q, o'z maslagida sobitqadam bo'lganlar.

Darvish karvonlar o'tadigan tog' yonbag'irlarida, daralarda, so'qmoqlarda joylashadi. O'tgan-ketganga yaxshilik qiladi, siylaydi. Kechalari uyida mehmon qiladi. Mehmonlar ko'payib borsa, binoni kengaytirib, xonaqohga aylantiradi. Nihoyat, kechagi kimsasiz so'qmoq odamlar yashaydigan manzil-maskanga aylanadi. So'ng esa shaharga... So'ng esa darvishlar boshqa manzillarga ketadilar. Ba'zi shaharlar aynan shu tarzda barpo bo'lgan. Darvishlarni hatto nasroniy aholi ham yaxshi ko'rgan, hurmat qilgan. Nega? Chunki ulardan hech kimga ozor yetmagan. Halol yeb, halol turganlar. Toza ko'ngil, shirinso'z, tabassumli, yaxshilikni sog'inadigan, ishchan insonlar bo'lganlari uchun ham

sevganlar, hatto ba'zilar ularga ergashganlar. Darvishlar butun kuch-g'ayratlarini xolis Alloh roziligi uchun sarflaganlar. Darvishlar faqat insonlarga emas, balki hayvonlarga ham xizmat qilganlar. Masalan, qo'tir bir itni ko'rib, ichi achiydi, uni olib, davolaydi. Nega? Chunki maxluqni Xoliq rizosi uchun yaxshi ko'radi, undan muhabbatini darig' tutmaydi. Itga qilingan yaxshilikdan o'ziga foyda tegishi, savob yetishini biladi. Vaqti kelib, Allohning marhamati bilan bu ulug'lar haqida to'g'ri va yaxshi asarlar bitilgay, avlodlarimiz bu boradagi haqiqatni anglab yetgaylar, insha Alloh!

Yana mavzuga qaytsak: Alloh sevgisiga yetishmoqlikning asosiy shartlaridan birinchisi - Uning rasulini sevmog' ekan. Keyin esa musulmon musulmonni sevmog'ligi shart. (Shuning barobarinda ota-onani sevmog'ligi ham shartkim, bu haqda alohida bobda so'z yuritamiz.) Bir-birlariga nisbatan samimiyatli, chin qalbdan muomala qilganlarni Alloh sevadi. Yonidagi birodariga yoki qarindoshiga yoki ota-onasiga muhabbati bo'lmagan kimsaning «Rasulullohni sevaman!» «Allohg'a ishqim baland!» deyishi quruq gapdan boshqa narsa emas.

Bu sevgilardan tashqari «xizmat qilish» degan tushuncha ham bor. Ya'ni sevgi izhori bilan ish bitmaydi. Banda Alloh roziligi uchun ota-onasiga, xalqqa... xizmat qilishi shart. Savob ishlarni amalga oshirishi zarur. Xalqning og'irini yengil qilishga hissa qo'shmog'i lozim. Ya'ni ariqlar, hovuzlar qaziydi, tozalaydi, ko'priklar quradi... xullas, xizmatlarning turi ko'p. Qay biriga qurbi yetsa, bajarishi kerak. Hassa tayanib kelayotgan otaxon yo'ldagi mushtday toshni hassalari uchi bilan chetga surib qo'yadilar. Bu ham xizmat. Yaxshi tarbiya ko'rgan bola keksa onaxonni katta ko'chadan yetaklab olib o'tib qo'yadi. Bu ham xizmat...

Qul Allohning roziligini topish uchun turli yo'llar axtaradi. Tadbirlar o'ylaydi. Alloh roziligiga bois ishlar esa ko'pdir. Shu qadar ko'pki, maxluqotning hisobi qadar emas, mahluqotning nafasi hisobi qadar ko'p, deydilar oriflar. Tasavvur qiling, bir odam qancha nafas oladi? Endi esa butun jonzotlarning bir daqiqada, bir soatda, bir kunda, oyda... olgan nafaslarini tasavvuringiz doirasiga sig'dira olasizmi?

Yo'l haqida so'z ketganda tariqat tushunchasini chetlab o'tsak yaxshi bo'lmas. Ayrimlar shariat va tariqatni bir-biriga zid, hatto dushman sifatida qarshi qo'yadilar. Bu to'g'ri emas. Gap shundaki, «tariqat» - yo'l, aniqrog'i so'fiylik yo'lini anglatadi. So'fiylik tarixida esa turli tuman yo'llar ko'p va ular orasida adashgan hatto zararli oqimlar ham bo'lgan. Biz Naqshbandiya yoki Yassaviya tariqatlarini eshitganmiz. Ha, «bilamiz», emas, aynan «eshitganmiz». Holbuki tarix Qodiriya, Suhravardiya, Kubraviya, Bektoshiya, Mavlaviya, Qalandariya... kabi ko'plab tariqatlarning faoliyatiga guvoh bo'lgan. Chishtiya tariqatining Hindistonga, Sunusiya tariqatining Afriqaga Islomni yoyishda xizmatlari bor. Ayrim tariqatlar oz muddat faoliyat ko'rsatganlar. Ayrimlari esa yuz yillardan beri mavjuddirlar. Ma'lumki, tariqat ahlining o'z pirlariga muhabbatlari baland. Faqat pirlari buyurgan yo'ldan yuradilar. So'fiy Ollohyor hazratlari piri jang maydonidagi qo'mondonga qiyos qiladilar. O'xshatish o'rinli, ammo qo'mondonlarning darajalari, aql-zakovotlari turlicha bo'ladi. Bir qo'mondon lashkarni g'alabaga yetaklasa, boshqasi mag'lubiyat botqog'iga yetaklaydi. Ana shu ikkinchi toifadagi «pirlar» tariqat ahlining pokiza nomlariga dog' tushirib qo'yishgan. Bahouddin Naqshband hazratlari tariqati agar shariatga zid bo'lsa bu kunga qadar yashab kelmagan bo'lardi. Biz mazkur bitikda tariqat, so'fiylik olami haqida batafsil fikr yuritmoqlikni maqsad qilib qo'yganmiz. Chunki bu o'ziga xos murakkab ilmdir va bunday ilm kaminada yo'q

hisobida. Shu bois ma'lumot sifatida tilga olib o'tyapmiz. So'fiylik tarixida yomonliklari bilan zikr etilgan, hatto kofir deb e'lon qilinganlar ham borki, shulardan ikkitasini «Sabotul ojiziy»ga Tojuddin Yolchiqui tomonidan yozilgan sharh asosida bayon qilib o'tsak zarar qilmas, biz ojiz bandalarni xato yo'llardan asrashga xizmat qilar, insha Alloh!

G'araz, e bandalar, nozir o'lunglar,
Yamon yo'l firqag'a hozir bo'lunglar.

Sharh: maqsad shuki, e bandalar, yomon yo'ldan yurguvchi guruhlar holidan bayon qilayin. Sizlar esa hoziru nozir bo'lingizlar.

Bani Odamda bordur bir firqa
Tutarlar o'zlarin ahli tariqa.

Sharh: Odam bolalari orasida bir turli guruh bordir. Ular o'zlarini ahli tariqat sanab, «bizlar ahli jazbamiz», -derlar. O'zlari jazbaning ma'nosi va uning necha xil bo'lishini bilmaydilar. Faqat tariqat ahlidanmiz va zikri jahriyadanmiz, deya baqirib devona bo'lib yurishadi.

Alar shar'i nabiyning dushmanidur,
Alarning oti, ya'ni «ravshaniy»dur.

Sharh: sifatlanmish guruhlar Payg'ambarimiz (s.a.v.) shariatining dushmanidir. Bularning hollari kofir butidan ortiqroqdir. Ammo mazhablarining oti mazhabi Ya'rab ibni Safvon Ravshaniydur (Ravshaniy - Balxdagi bir qishloqning nomi).

Alar o'zlarig'a «orif» qo'yib ot,
O'qurlar omiylarg'a yaxshi abyot.

Sharh: bu botil mazhab ahli bir-birlarini «orif» atab, u shunday avliyo, shundayin holli, derlar. Bir uyga yig'ilishib oxirat holni ko'rsatuvchi abyotlar va hikmatlarni omiylarga aytib va turli daf'u nog'orayu boshqa cholg'ularda ohanglar chalurlar. Xotinlar va besoqollar nafis tovushlar bilan o'zarlar. Bir zamondan so'ng ba'zilarining dimog'iga shayton o'sirgach, aqlaridan ozib, hushdan ketishadi. Lekin aytishlaricha, aqldan ozib hushdan ketishlari bir tur doridandir. Safro o'tini gulxanga qo'yib undan tutun chiqib dimoqlariga kirkach, hushsiz bo'lishadi. Ammo shayxlari hushlarini yo'qotmay doim og'izlariga asal solib turishadi. Bu asal boyagi giyoh tutinining haroratini qaytarib turadi. Ul mal'unning g'arazi - ko'rkam xotin yoki besoqol hushsiz bo'lgach, uni jimo' qilishdir.

Valekin aytushur behuda ma'niy,
O'zining yo'lig'a solmoqqa ya'niy.

Sharh: ammo bu firqaning shayxlari o'tgan avliyolar va ularning hollari haqidagi behuda gaplar bilan omiylarni rag'batlantirib, o'zlarining botil yo'llariga solmoq va kiritmoq havasida bo'ladilar.

Alarda bo'lmagay hech yaxshi niyat
Ayolu ahlida bo'lmas hamiyyat.

Sharh: o'sha majlisda bo'lganlarning yaxshi niyatlari yo'q. Bir-birlariga oshiq bo'lib yurishadi. Xotinlari va oilalariga kuyunchak bo'lishmay, balki qaysi birining xotini qo'lga tushsa, o'shani jimo' qilishadi. Shundan so'ng «men Alloh ishqida mast bo'lib, nima narsa bo'lganini bilmadim», -deyishadi. Va yana ayturlarki, Alloh taolo hazrati ko'zlariga goh ko'rinib, goh ko'rinmas emish. Olimlarni dushman ko'rib namozni

yoqtirmaydilar. Yana deyishadiki, ularning majlisida har kim bir kecha o'tirsa, qirq yillik ibodat savobini toparmish. (Shu o'rinda mazkur sharh muallifi Tojuddin Yolchiqul bu mazhab holini ko'rib o'rganish uchun ularning bir necha majlislarida o'tirganligidan afsus-nadomatlar chekib, tavbalar qiladi, Allohdan uzr so'raydi.)

Jami' jonvorlar tushsa ko'zga,
Hamiyyatlik bo'lur to'ng'izdin o'zga.

Sharh: dunyodagi barcha hayvonda g'ayrat va kuyunchaklik bordir. Yolg'iz to'ng'izda bu narsalar yo'q.

Alarning fe'lidur to'ng'izga o'xshash,
Shariat munkaridur og'zig'a tosh.

Sharh: bu mal'unlarning fe'li to'ng'izlarga o'xshashdur, chunki to'ng'iz kabi bularda ham rashk yo'q (xotinlarini qizg'anmaydilar). Shariatni inkor qilish bularning odatidur. Olimlar o'git qilib, xatolarini aysalar, uni so'kib «kofir» derlar. Ro'zani ikki-uch kun keyin boshlab, jamoatdan ikki kun burun bayram qilishadi. Shayxlari guruhdagilarning nimaiki narsasini xush ko'rib qolsa, tilanchilik bilan olishadi. Yana nodon muridlar aytishadiki: «Molimizning yarmi shayximiznikidir. So'ramayin olsa ham, bizlar rizo bo'lmasak ham haloldir».

Alarning fe'lini kim yaxshi bildi,
Bo'lub kofir, yonar o'tga yiqildi.

Kimki, ularning qilmishlarini bilaturib yig'inlariga o'zi borsa va xotinu ahlini yuborsa, yonar o'tiga tushganidir. Ya'ni ul kimsa kofirlardan bo'lib, jahannamda mangu qoladi.

Bo'libdur yana ham bir firqa paydo,
Oti mo'min, vale nafsiga shaydo.

Yana Ravshaniy mazhabi kabi bir guruh paydo bo'libdi. Ismlari «mo'min»dir, ammo o'zlarini o'zlari aldaguvchilardir. O'zlari «mo'min» deb atasalar-da, ammo ichlarida kofirdirlar.

Yig'arlar porayi bo'yni yuvonni,
Solurlar o'rtaga qizu juvonni.

Bir guruh bo'yni yo'g'on giyohni yig'ib majlislarida o'tga qo'yib yoqadilar. Majlislariga qizlar va besoqol bolalar ham keltiriladi. Tutayotgan giyohning tutuni burunga kirib, kishini hushsiz qiladi. Shayx bo'lmish kimsa doim sirka va nordon narsalarni ichib turgani uchun unga tutun ta'sir qilmaydi. Shundan so'ng istagan qiz yoki besoqolni jimo' qiladi.

Agarchi Ravshaniy ermas, bu - Avbosh,
Vale bu ish shariat hukmdin tosh.

Buni «mazhabi Abbas ibni Ubayda Xarufiy Avboshiy» derlar. Ravshaniy mazhabidan boshqadir va yomonroqdir. Lekin har ikkisining mazhabi shariat hukmidan tashqaridir. Har ikkisi kofirdir («Avbosh» - Sheroz yaqinidagi shahar ismidir).

Abulhasan Xirqoniy hazratlari «Odobu so'fiy» nomli kitoblarida yozishlaricha, mazkur bu ikki guruh zamona oxirida chiqib juda ko'p bo'lishar. Yana mazkur kitobda yozilmishki, bu ikki guruh yo'ldan ozganlardir va yo'ldan ozdiruvchilardir. Shariat ahli oldida uyatlidir. Ishonsinlar, deb necha aqlsizlar ul mazhabning tobelari Xoja Ahmad

Yassaviydan naql qilurlar, ya'ni «bizning silsilamiz Xoja Ahmad Yassaviy», derlar va shu bilan xaloyiqni aldamoq istarlar. Ajab! Xoja Ahmad Yassaviy Alloh taoloning do'sti (valiy) bo'lsa-yu, bunchayin bid'at va yovuz ishlarni qiladimi?! Aslo! Ulug' avliyodan bundayin kufr ishlar kelmas! Nozimi kitob aytadiki, Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari shariatning quyoshi, ya'ni komilu mukammal erdilar. Ul zotning nomini bulg'ab kelayotgan bu guruh Allohning rahmatidan yiroq va ularning ishlari ahli sunnat va jamoat ishidan ayrilgandir. Shuning uchun ular kofirdirlar. Payg'ambarimiz alayhissalom marhamat qiladilarki: «Qiyomat kun bo'lsa, «omanno bihi va sadaqno» - jon bilan tan bir-biriga qo'shilib qabrdan tursalar, har kim o'zining yaxshi ko'rgan guruhi bilan bo'ladi».

Bu satrlarni o'qib: «tarix bayoni ekan», deb e'tiborsiz bo'lmang. Kamina huquq idoralaridan birining xodimidan diyorimizda shunday guruh mavjudligini eshitgan edim.

Poytaxtda o'qiyotgan bir yigit ta'til kunlari qishlog'iga kelganida uni shunday davraga olib boradilar. Yigit hushsizlikda o'z onasi bilan qo'shilib, so'ng o'ziga kelganida dahshatga tushadi va u yerdan chiqib o'zini o'zi o'ldiradi...

Demoqchimizki, so'fiy bo'lish, bu yuqori martabaga yetishish oson emas. Shuning uchun aytadilarkim: «Ogoh bo'l, ey so'fiy! Sen ahli holdan bo'lib, «so'fiy» ismi bilan atalading. Va tariqat yo'liga kirishingda zurafo ahli huzurinda «so'fiydir», deb fikr qilinding. Shul isming va shu yo'lingda sobit bo'l. Chunki «so'fiy» isming tariqat yo'liga kirib, Alloh taoloning xos qullari jumlasidan ekaningni bildirur. Agar shul ismingda sobit bo'lmayin nafsi havolaringga berilib, so'fiy ismingga xiloflik qilsang, qiyomat kunida buning uyati qandayin bo'larkin!? Qiyomatda o'zingni «so'fiy» ismidan mahrum qilib, «E, zolim!» yoki «E, fosiq!» yoki «E, osiy!» - deya undashar. Bunday ismlar bilan undalmog'ingda chidab bo'lmas xo'rlklar bordir...»

«Ishq ichra kuyib-yonmaganni ishqqa berilgan dema! Kim jonini fido qilmas ekan, uni oshiq sanama, - deydilar hazrat Navoiy. - Ishqqa muftalo bo'lgan kishi ko'nglidan chiqqan o't vayronani yondirib yuboruvchi ajdar dami kabi qudratlidir... Kimki Ishq aro o'tga aylansa, ajablanmang, chunki o'tga nimaiki tushsa, u ham o't bo'lib yonadi. Ishq bir o't kabi uning vujudini chulg'ab oladi, negaki, olov atrofida aylangan kishi o'rtanmay qolmaydi. Ishq bilan o'ynashib bo'lmaydi. Jisimga o't tushsa, u seni quyundek sargardon qiladi. Ishq osmonida qaysi yoqqa chaqin tushsa, u shu ondayoq jonni shu'la selobiga g'arq qilib yuboradi. Ishq chaqmog'i xonumonini kuydirib yuboradi, xonumon nima degan gap, butun jahonga o't qo'yadi!...»

Demak, ishq haqida lof urish bilan Ishqqa yetishib bo'lmas ekan. Kim buni anglabdi - yo'llari ravondir. Agar so'zlarning eng rosti - Alloh taoloning So'zi, yo'llarning eng chiroyligi - Muhammadning alayhissalom Yo'llari ekanini bilib, bu haqiqatni qalbimizga muhrlab olsak hayotning yo'llarida adashmaymiz.

Mazkur bobni Ishqning muhim asoslaridan biri bo'lmish bandaning bandaga muhabbati haqidagi sharaflil hadislar bilan yakunlaymiz:

Abu Hurayra (r.a.) aytadilar: «Rasululloh: «Allohga qasamki, sizlar musulmoni komil bo'lmaguningizcha jannatga kira olmaysiz. Musulmoni komil bo'lishingiz uchun bir-biringizga muhabbat qo'ymog'ingiz shart. O'rtalaringizda muhabbat paydo bo'lishi

uchun salomni oshkora beringiz va bir-biringizga jahl qilishdan saqlaningiz. Chunki jahl - tarashlaguvchidir. Ya'ni u sochni tarashlamaydi, balki dinni tarashlaydi.»

Bu xususda hazrat So'fiy Ollohyor nasihat qilib derlarki:

Kel, e mo'min, hamisha xush inon bo'l,
Musulmon bo'lsa har kim mehribon bo'l.
E, mo'min muvahhid, sen har doim musulmonlarga yaxshiliklar bilan yordam berguvchi bo'l. Har kishiki, musulmon bo'lsa, unga shafqatli bo'l.

Ochilg'aysan ani ko'rganda guldek,
Tavozi ayla xizmatkor quldek.
Musulmonni ko'rganingda yuzing guldek ochib, tabassum qil. Xo'jalarning qullaridek tavozi bilan uning xizmatida bo'l.

Kishilarning o'zaro muhabbati barcha fazilatlarining debochasi sanaladi. To'g'ri, bunday muhabbatsiz ham hayot kechirish mumkin va buni yomon turmush kechirish hisoblamaydiganlar ham bor. Ammo bizningcha, bu kishining asta-sekin o'lishidir. Agar daraxt shoxi kesilsa o'rnidan yangi navda o'sib chiqishi mumkin, ammo birodarlik muhabbati jaf o'rrasi bilan arralansa keyin asliday ko'kararmikin?

Abdulloh ibn Abbos aytadilarkim: «Ne'matlar (yaxshiliklar) inkor qilinishi va rahmdillik uzilib qo'yilishi mumkin, ammo ko'ngillarning bir-biriga yaqinligidek narsani biz ko'rmadik.» Deyilmoqchikim: ko'ngillarning yaqinligi mustahkam bo'lsa, inkor ham qilinmaydi va uzilib ham ketmaydi. Chunki odamlardan eng avval ko'tariladigan narsa - ko'ngillarning yaqinligi ekan. Mujohid ibn Jubayr deyilar: «Rasulullohning (s.a.v.) sahobalaridan bir kishi meni uchratib, yelkandan ushladilar-da: «Men seni yaxshi ko'raman», - dedilar. Men u kishiga: «Meni sizga yaxshi ko'rsatgan Alloh taolo sizga ham O'z muhabbatini qo'ysin!» - dedim. Shunda u kishi Rasulullohning (s.a.v.) «Bir odam birovni yaxshi ko'rsa, yaxshi ko'rganligini uning o'ziga bildirsin», degan hadislarini eshitmaganimda seni yaxshi ko'rishimni o'zingga aytmagan bo'lardim», - dedilar».

Nechundir biz bu hadisga kam amal qilamiz. Ochiq aytishga uyalamizmikim? Holbuki, bunday muhabbat izhorini munofiqlar o'zlariga bayroq qilib olganlar. Ishlari bitgunicha yaxshi ko'rishlarni tinmay takrorlaydilar, so'ng esa...

Alhol bir rivoyat tinglamoqqa hojat sezildi:

Bir podshoh otda sayr qilib borayotganida unga bir xayolparast gado oshiq bo'lib, ohu vovaylo bilan afg'on boshlab, g'avg'o-to'palon ko'tardi. Ming turli nolalar qilib, bir maskanda muqim tura olmay o'zini o'chib qolgan gulxan kuliga bulg'ayverdi.

Shohga bu ma'lum qilingach, u oshiqni sinamoqchi bo'ldi. Otni gado tomonda yonib turgan gulxan sari burdi va amr qildiki: «U gumrahni sudrab keltiring va boshini izing!» Gadoni sudrab keltirdilar. Shoh uni qatlg'a amr etdi. Bundan gado vahimaga tushib, qocha boshladi. Qo'rquvdan hushi boshidan uchib har tomonga yugurardi. Mulozimlar esa uni quvishdan to'xtamadilar. U lovullab yonayotgan gulxan tomon beihtiyor yugurdi va o'zini yo'qotgan holda o'tga tushib, kuyib ketdi.

Shohning bu imtihonidan maqsadi shunday edi: agar gado chindan ham oshiq bo‘lib, o‘z da’vosida sodiq qolsa, qatl hukmini qabul qilishi kerak edi. Shunda shoh otidan tushib, undan so‘ramoqchi, ahvolidan ogoh bo‘lmoqchi va sadoqati evaziga uni o‘ziga musohib va yaqin xizmatkor qilmoqchi edi...

Rasululloh (s.a.v.) «Ikki kishi bir-birini yaxshi ko‘rsa, ularning afzali shu birodariga muhabbati qattiqroq bo‘lganidir», - deb marhamat qilganlar (Anas ibn Molikdan). Yana marhamat qilganlarkim: «Alloh taolo toatida bo‘lgan bir birodarini Alloh uchun yaxshi ko‘rsa va uning o‘ziga «Men seni Alloh uchun yaxshi ko‘raman», -degan bo‘lsa va ikkalasi ham jannatga kirishga muvaffaq bo‘lishsa Alloh toatida bo‘lgani uchungina yaxshi ko‘rganing darajasi ikkinchisining darajasiga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi» (Abdulloh ibn Amrdan). Yaxshi ko‘rishning shartlari ko‘p. Shulardan biri - janjallashmaslik. Bu xususda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilarkim: «Bir-birlaringni yaxshi ko‘rsang, u bilan janjallashma.

Har ikkala tomonga yomonlikni qo‘zg‘atadigan harakatni ham qilma va uning haqida surishtirma. Chunki surishtirgan kishing uning dushmani bo‘lsa yo‘q narsalarni gapirib, oralaringizni buzib qo‘yishi mumkin» (Maoz ibn Molikdan).

Nizomiy Ganjaviyning «Muhabbatsiz kishi misoli muzlik, yuz joni bo‘lsa ham o‘likdir o‘lik», hikmatlari bekorga aytilmagan. Ana shunday odamlarni xalq orasida «Tirik murda» deb ham ataydilar.

Birodarlar orasidagi muhabbat mavzuini mehr-muruvvat bobida ham davom ettirish niyatimiz bor. Bu bejiz emas. Insonga hos bo‘lgan barcha fazilatlar Ishq bulog‘idan suv ichadi. Bu hayot suvidan bebahra kishi illatlar botqog‘iga botgan bo‘ladi. Bular hususida insha Alloh, batafsil suhbatlar qurarmiz. Endi birgalashib duoga qo‘l ochaylik: -Alloh barchalarimizning qalblarimizni nurlantirsin! Zanglarini aritsin, pardalarini olib tashlasin, orif qul bo‘lmoqlik baxtini bersin. Ma‘rifatullohga, ishqullohga, muhabbatullohga erishtirsin, Alloh oshiqalaridan bo‘lmoqlik baxtini bersin. Allohga, diniga oshiqalarcha xizmat qilishni o‘zimizga, to qiyomatga qadar tug‘ilajak zurriyotlarimizga nasib etsin. Allohning huzuriga o‘zi sevgan va o‘zi rozi bo‘lgan bandasi bo‘lib bormoqlikni nasib etsin. Rabbimiz bizlarni jannati va jamoli bilan siylasin. Rizvoni akbariga vosil qilsin! Omiyn!

HURMATI VOLIDAYN - FARZ AYN

Bu bobda ota - ona va farzand munosabatlariga doir axloq hamda muammolar haqida so‘z yuritiladi.

Ota-onasini hurmat qilmagan farzand o‘z farzandlaridan hurmat talab qilishi noloyiqdir, deyдилar. Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Unda «qaytar dunyo» degan iboraga qanday qaraysiz? Imom Muslim rivoyat qilgan bu hadisi sharifdan qanday ma‘no uqamiz: «Otalaringizga mehribon bo‘linglar, shunda sizlar ham farzandlaringizdan mehr-muruvvat ko‘rasiz».

Endigi rivoyatni ko‘p eshitgan bo‘lsangiz ham takrorlaylik: Bir odam uzoq umr ko‘rib o‘g‘lining joniga tegibdi. O‘g‘il otadan qutilish maqsadida uni tog‘u toshga tashlab kelish

maqsadida qopga solibdi-yu, orqalab yo'lga tushibdi. Charchab bir daraxt ostida to'xtaganda qopdagi otasi kulaveribdi. O'g'il bundan ajablanib, kulish sababini so'rganida ota debdi: «Men ham otamni qopga solib tog'u toshga tashlab kelish maqsadida orqalagan edim. Tasodifni qaraginki, xuddi shu yerga kelganimda men ham dam olish uchun to'xtagan edim...»

Yana bir rivoyat: o'g'il ko'zlari xiralashib qolgan, ovqat yeyayotganida qo'llari qaltiraydigan qari otasining izzat va hurmatini bajo keltirmas edi. Bir kuni chol bechoraning qo'llari qaltirab, osh suzib berilgan chinni kosani tushirib, sindirib qo'ydi. Buni ko'rgan kelini nordon gap aytib uning ko'nglini vayron qildi. O'g'il esa otasini hovli etagidagi zax xonaga ko'chirdi. Kelin endi qaynotasiga eski yog'och kosada taom beradigan bo'ldi. Bundan ko'ngli ozor topgan qariya vafot etib ketgan kampirini eslab, zor-zor yig'lardi. Uning yolg'iz yupanchi va suyanchig'i besh yoshli nabirasi edi. Bola bobosining yoniga kelib o'tirardi, ma'sumona so'zlari, yoqimli qiliqlari bilan bobosining ko'nglini ovlab, uning g'am va alamlarini bir oz bo'lsa-da, yengillatardi.

Bola qo'lga pichoq olib bir yog'ochni yo'nib o'tirganida otasi: «O'g'lim, nima qilyapsan?» - deb so'radi. Bola yumushidan bosh ko'tarmagan holda javob berdi: -Dadajon, oyim eski yog'och kosada buvamga ovqat beradilar. Men ham yog'och kosa yasayapman, katta bo'lганиmda oyim bilan sizga shu kosada ovqat beraman.

Go'dakning bu ibratli gapi otaga ta'sir qildi. U darhol zax xonada yotgan otasi huzuriga kirdi, tiz cho'kdi, ko'z yoshi to'kib, uzr so'radi...

Bu barchaga maktab bo'lguvchi voqea bayoni. Bayonning xotimasini bu kabi ijobiy tarzda yakunlamay, «go'dakning gaplari otasiga ta'sir etmadi, chol o'sha zax xonada xorlik bilan o'lim topdi», desak ham bo'ladi. Chunki qalbi tosh farzandlar ham bor va ularni bir gap bilan insofga kelishlariga ishonish qiyin. Nachora, insofga kelmasalar o'zlari ekkan bemehrlik daraxtining achchiq mevasini o'zlari yeydilar. Bu jazo uzoq kuttirmaydi. Bugun atroflarida emaklab yurgan shirin farzandlarining yog'och kosada taom tutish onlari g'oyat tez kelganini o'zlari ham bilmay qoladilar.

Bunga o'xshash ibratli voqealarni ko'p eshitganmiz. Endi bo'lib o'tgan haqiqiy voqealardan aytay:

Moskva televideniesida bir ko'rsatuv namoyish etildi. Sakson uch yoshdagi sog'lom onani ellik yetti yoshdagi o'g'il jinnixonaga jo'natdi. Maqsad - uyga ega chiqish. Shu ko'rsatuvda bir jurnalist ayol Checheniston urushida ko'rganlarini so'zlab berdi. Grozniy shahri rus askarlari tomonidan vayron etilgach, ko'chalarda boshpanasiz qolgan himoyasiz qariyalar najot umidida tentirab yurisharkan. Ular asosan rus millatiga mansub qariyalar ekan. Ular yo'lda uchragan jurnalistlarga murojaat etishib, Rossiyaning boshqa shaharlarida yashayotgan farzandlari, qarindoshlari manzilini berishib, ularga xabar yo'llashlarini o'tinib so'rasharkan. Jurnalist ayolning o'zi o'nlab shaharlarga qo'ng'iroq qilibdi, xatlar yozibdi, ammo hech kim kelmabdi, otasi yoki onasini yoki qarindoshini olib ketmabdi. Sakson yoshdan oshgan ko'zi ojiz bir kampirni jurnalist ayolning o'zi harbiylar yordamida Moskvaga keltiribdi. Shunda ham u mushtiparni o'g'li oilasi bag'riga olmabdi...

Shu voqealarni bayon qilib bo'lgach, jurnalist ayol chechenlarning qariyalarini misolga

keltirdi. Ularning birontasi biron qariyani e'tiborsiz qoldirmabdi. Bemorlarni opichib bo'lsa ham xatarli yerlardan olib chiqisharkan. So'nggi tishlam nonni yoki so'nggi qultum suvni qariyalarga berisharkan...

Qariyalarni opichib yurishlarini eshitib, sharaflil hadislarning biri yodimga tushdi: Hofiz Abu Bakr Bazzor Budayda otalaridan rivoyat qiladilar: Bir odam ziyoratda onasini ko'tarib yurib tavof qildirayotgan ekan. Payg'ambarimizdan (s.a.v.) «Onamning haqqini ado qildimmi?» - deb so'rabdi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): «Yo'q, bir oh tortishining haqqini ham ado qilganing yo'q», degan ekanlar».

Mazkurning yana bir go'zal davomi ham mavjud: Abu Burda ibn Abi Muso Ash'ariyning aytishlaricha, Abdulloh Ibn Umar bir yamanlik odamning o'z onasini opichlab, xonai Ka'bani tavof qildirib yurganini ko'rdilar. U odam bir baytni ohang bilan o'qirkan:

Onai zorim uchun bo'ynimni egkan tevaman (tuyaman),

Tevaga mingan onam horsalarda, men charchamam.

U shuni o'qib turib, Abdullohga qaradi-da: «Ey Abdulloh ibn Umar! Mana shu xizmatim bilan men onamning xizmatini qila oldimmi?» - deb so'radi. «Yo'q, bu xizmatim seni tug'ish vaqtida onangni qiynab tutgan to'lg'oqlarining bittasiga ham barobar emas», - dedilar».

Siz ehtimol Chechenistondagi voqeani o'zga din va o'zga millatga bog'lab xulosa chiqararsiz? Asti unday qilmang. Chunki oqibatsiz, noqobil farzandlarni barcha millatlarda uchratamiz. Ota-onasiga bemehr, noqobil farzandlarning dini ham, millati ham yo'q, desak adashmaymiz. Fikrimizning dalili uchun o'zimiz guvoh bo'lgan bir voqeani bayon qilish niyatimiz bor. Ammo undan avval yana sharaflil hadislarga murojaat etaylik:

Bir yigit Rasulullohga (s.a.v.) shikoyat qilib dediki:

-Otam qarib, juda bevosh bo'lib ketganlar. Aqlan ozganlarmi, deb qo'rqaman. Uyimga kelib, qo'llariga nima ilinsa, shuni olib chiqib ketaveradilar.

Sarvari koinot (s.a.v.) otani chaqirtirdilar. Huzurlariga kelgan qari, bechorahol, ust-boshlari xarob odamdan: «O'g'lingning gaplari to'g'rimi?» - deb so'radilar.

-Ha, to'g'ri, - dedi chol. - Men o'g'limni o'zim tarbiya etganman. Onasi barvaqt vafot etgan edi. O'zim yemay - o'g'limga yedirdim, o'zim kiymay - o'g'limga kiydirdim. Qariganimda boqar, deb umid qildim. Ammo u berahm chiqdi. Mendan xabar olmaydi. O'zim uyiga kelib, qo'limga ilingan narsani olib chiqib sotamanda puliga ovqat olib yeyman. Yo Rasulalloh! Shu ishim durustmi yo durust emasmi?

Otaning bu gaplarini eshitib Rasululloh (s.a.v.) o'g'ilning yelkasidan mahkam ushladilar-da, dedilar: «Topgan narsalaring, hatto sening o'zing ham otangning mulkidir. Agar topgan mulking yetmasa, otang sening o'zingni sotib pulini yemoqlikka haqqi bor. Sen o'ylamaginki, topgan mulklarimga o'zim molikmanu otamning unga aloqasi yo'q, deb. Hammasiga otang egadir!»

Yana shu mavzuda bir hadis:

Bir qiz onasidan shikoyat qildi:

-Onamning aqlari o‘zlarida emas. Uyimga kelib to‘polon qiladilar, tinchlik bermaydilar.

Rasululloh (s.a.v.) onani chaqirtirdilar. G‘oyat qari, bechorahol ona dediki: «Yo Rasulalloh(s.a.v.)! Sabr qilayin desam, qizim xabar olmaydi. Hatto bolalarini yubormaydi. Yolg‘iz o‘zim pashshalarga yem bo‘lib yotaman. Na o‘lib qutulaman, na rohat ko‘raman. Qizimning beparvoligi shunchalik.

Rasululloh (s.a.v.) dedilar:

-To‘qqiz oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat seni qornida tarbiya etgan kim? O‘lim jari yoqasiga kelib seni tuqqan kim? Seni ikki yil emizgan kim? Seni balog‘atga yetkazib uzatgan kim? Shu onang! Agar shu onangni rozi qilmasang, jannat senga harom! Tavba qilsang - qilding, yo‘qsa yarim mulkingni olib beraman.

Qiz tavba qildi...

Dersizki, Islomning dastlabki yillarida dinni yaxshi anglamaganlar orasida shunday berahmlar bo‘lgandir. Ehtimol shundaydir. Ammo «Qariyalar uyi» deb nomlanmish joylarda o‘z o‘limlarini kutib yotgan bechoralarning bolalari-chi? Bundan o‘ttiz - qirq yil avval bunday uylarda o‘zbeklarni ko‘rsak ajablanardik. Endi ajablanmaydigan bo‘lib qoldik. Holbuki, biz ajablanish nima ekan, faryod urishimiz kerak! Otasi yoki onasini shunday joyga yuborgan ablahning yoqasidan olishimiz kerak. O‘sha ablah qaysi birimizning yaqin qarindoshimiz, yon qo‘shnimiz, yoki mahalladoshimiz, yoki birga ishlaydigan hamkasbimiz-ku? Nega indamaymiz?

Ey ko‘ngil! Sen jamiyatdagi ana shunday fojiaga shohidsan. Nechun jimsan? Nechun bundaylar bilan murosa qilasan? Nechun ularning dasturxonini atrofida o‘tirib, taomidan yeysan? Sen qariyalar uyidagi bechoralarning ko‘zlaridagi yoshlarni ko‘rmabmiding? «Ota-onaning yig‘lashi boladan norozi bo‘lganlaridan dalolat beradi va bu esa katta gunohlardandir», degan hadisi sharifni bila turib, nechun ularni ogoh etmaysan? Ota-onaga oq bo‘lishning gunohlarning eng kattalaridan biri ekanligi haqidagi Rasulullohning (s.a.v.) muborak so‘zlarini nega yetkazmaysan u nodonlarning ongiga?

Oq bo‘lish - ota-onaga ozor berish, ranjitish va buyruqlarini bajarmaslikdan iboratdir. Ota yoki onaning noqobil farzandiga qarab «seni oq qildim», deb e‘lon qilishi shart emas ekan. Dillari og‘rinishining o‘ziyoq farzandning oq bo‘lishi, deydilar. «Oq bo‘lish»ning lug‘aviy ma‘nosi - ajralishdir. Ya‘ni farzand ota-onasidan tiriklayin ajrallyapti, demak. «Qariyalar uyi»da otasi yoki onasiga joy hozirlayotganlar unutmasinlarkim, ular ayni choqda do‘zaxdan o‘zlariga o‘tli joy tayyorlayaptilar. Zotan, do‘zaxning «hasrat qudug‘i» deb nomlangan eng yomon joyi ota-onasini xorlaganlar uchun ekanligi mo‘tabar kitoblarda alohida zikr etilgan.

Muborak umra safari chog‘ida ko‘ngillarni xira qiluvchi voqea yuz berdi: farg‘onalik bir odam onasini qutlug‘ ziyoratga olib boribdi. Albatta bu tahsinga loyiq ish. Ko‘pchilik ota-onasini shunday ulug‘ ziyoratlarga olib bormoqlikni niyat qiladi. Ayrimlar esa bu kabi ziyorat ota-onalariga nasib etmay vafot etib ketganlaridan armonda yuradilar. Farg‘onalik yigitning onasiga bo‘lgan qo‘pol, qo‘rs muomalasi barchani ranjitdi. Ona bechora umrida birinchi marta qishlog‘idan chetga borishi bo‘lsa kerak, samolyotga yoki

avtobusga qanday chiqish, o'tirishni bilmay taraddudlanadi, ba'zan shoshib qoladi, ba'zan nimagadir ulgurmaydi. O'g'il esa unga yordam berish o'rniga do'q uradi: «meni sharmanda qilyapsiz!»- deydi. Bilmaydiki, uning sharmandaligi onasining harakatida emas, balki o'zining fe'lida, muomalasida. Ko'pchilik «onangni bu yerga olib kelib xunuk muomala qilganingdan ko'ra, o'z uyingda shirin muomala bilan ko'nglini olsang savobliroq bo'larmidi! Onani ko'pchilik huzurida behurmat qilishing - Ka'bani vayron qilish gunohi bilan barobar emasmi?» - deb to'g'ri tanbeh berdilar. Ehtimol o'g'ilning asosiy niyati onasini ziyoratga olib kelish bo'lmagandir. Bunday deyilishga sabab: ularning bu maskanda qarindoshlari ko'p ekan. Yigit ular bergan sovg'a-salomlar bilan ovora bo'lib qoldi. Balki onani olib kelishni o'sha qarindoshlar talab qilishgandir. Shu talab bo'lmasa yigit onani olib kelishni xayoliga ham keltirmas... Yana Xudo biladi...

Poytaxtning Shayxontohur tumani sudida bundanda ayanchliroq voqeaga shohid bo'ldik: ota qizini sudga berib, og'ir jazo berishni talab qilyapti. Ajablanyapsizmi? Biz ham dastlab ajablangan edik, so'ng g'azablandik. Guvohlikka kelganlardan biri: «Agar odilman, desangiz bu qizni eng oliy jazo - otishga hukm qiling, hukmni xalq oldida ijro eting. Noqobil farzandlar bundan o'rnak olsin!» - dedi. O'lim jazosiga loyiq ko'rilyotgan qiz otaning yolg'iz farzandi ekan. Onadan yosh yetim qolibdi. Qizining baxtini o'ylab, ota boshqa uylanmabdi. Qizini orzu-havas bilan kuyovga uzatibdi. Xastalanib, shifoxonaga yotganida nafsiga banda qizi ota nomidan qalbaki hujjatlar tayyorlab uyni sotib yuboribdi. Ota shifoxonadan qaytsa-ki, uy yo'q... Qolgani sizga ma'lum. Albatta sud bu farzandni o'limga hukm qilmaydi.

Tovlamachiligi uchun bir necha yilga qamar yoki ayoligini e'tiborga olib, ozodlikdan shartli ravishda mahrum qilar. Lekin Allohning jazosi qattiq bo'ladi. U farzandni sud o'limga hukm qilmasa ham u allaqachon o'lgan, tirik o'likka aylangan. Uni endi yer yutishga ham hazar qiladi. Esini yig'ib tavba qilsa qildi, bo'lmasa oxirati tamoman kuyadi. U-ku, tavba qilar, ammo ota rozi bo'larmikin undan?

Endi avvalgi voqeaga qaytsak: rivoyat qiladilarkim, bir kishi Hajga bormoqchi bo'ldi. Ammo keksa onasini yolg'iz tashlab ketishga ko'zi qiymadi. «Ustozga boraman, nima desalar shu», deb hazrati shayx Abu Hozimi Madaniy huzurlariga keldi. Shayx hazratlari uxlayotgan edilar. Uyg'onib dedilarki: «Ushbu dam tushimda Payg'ambarimizni (alayhissalom) ko'rdim. Dedilarki: «Hajga ketmoqdan ko'ra ona haqqini saqlamoq senga yaxshiroqdir.» Sen onangning rizosini istaki, Allohning rizosi shundadir.

«Jannat onalar oyog'i ostidadir», mazmunli hadisi sharifni eshitmagan odam yo'qdir. Ammo uning ma'nosini hamma ham bilavermasa kerak. Onasini yolg'iz tashlab, mushriklar bilan urushga otlangan yigitni Rasululloh (s.a.v.) qaytarib, shunday deganlar. Ya'ni, jannatga tushish uchun jihodda jon berib, shahidlik martabasiga yetish shart emas. Onangning xizmatini qilib, roziligini olsang bas, shu topgan savobing senga jannat yo'lini ochadi, deyilmoqchi. Onasini bir emas, yuz marta Hajga olib borib, boshqa payt ko'nglini ranjituvchilar shu hikmatlar mag'zini chaqib ko'rsalar yomon bo'lmas.

Allohning insonga baxsh etgan ilk ne'mati - ota-ona muhabbati bo'ladi. Shu sababli ham Yaratgan o'z bandalaridan ota-onaga muhabbatli bo'lishni talab etadi. Avvalgi bobdagi fikrimizni davom ettirsak - Allohga bo'lgan Ishq bilan ota-onaga bo'lgan muhabbat o'zaro bog'langan. Ya'ni birinchisi bo'lmasa - ikkinchisi ham yo'q (yoki aksincha). Kishi millati yoki dinidan qat'i nazar Yaratganni seva olsa o'z ota-onasini xorlab qo'ymaydi.

Chunki bu o‘rinda «sevish» Alloh buyrug‘ini bajarish bilan ifodalanadi.

«Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi unga qiynalib homilador bo‘lib, qiynalib tuqqandir. Unga homilador bo‘lish va uni (sutdan) ajratish (muddati) o‘ttiz oydir. Endi u qachon voyaga yetib, qirq yoshga to‘lganida: «Parvardigorim, meni Sen menga va ota-onamga in‘om etgan ne‘matingga shukr qilishga va O‘zing rozi bo‘ladigan yaxshi amallarni qilishga muvaffaq etgin va O‘zing men uchun zurriyotimda ham yaxshilik qilgin (ya‘ni farzandlarimni ham ahli solih bandalarindingdan qilgin). Albatta men Senga (qilgan barcha gunohlarimdan) tavba qildim va albatta men musulmonlardandirman». (Ahqof, 15.)

Izoh shulkim: mazkur oyati karimada har bir inson ota-onaga yaxshilik qilishga buyurilyapti. Bir savol tug‘ilishi mumkin: «Nega Qur'onda bot-bot ota-onaga mehr-muruvvat ko‘rsatish vojib ekanligi uqtiriladi-yu, farzandlarga mehribonlik qilishga buyurilgan oyatlar deyarli uchramaydi. Kalomullohni sinchiklab o‘qib, o‘rgangan kishigina undan bu savolga javob topa oladi. Ma‘lumingizkim, Qur'onda biron behuda so‘z yoki jumla yo‘qdir. Alloh taolo mo‘‘min-musulmonlarni komil inson qilib tarbiyalash uchun qaysi farmonini necha marta takrorlashni lozim deb bilgan bo‘lsa, shuncha marta nozil qilgan. Negaki, Yaratgan o‘z bandalarining jismoniy jihatlaridan ham, ruhoniya xususiyatlaridan ham juda yaxshi ogohdir.

Masalan, u Zot ota-onaga, xususan onaga o‘z farzandlariga nisbatan shunday mehr ato etganki, ona uchun eng og‘ir, hatto tahlikali davr bo‘lgan homiladorlik va ko‘z yorish davri hamda chaqaloqni emizib, tarbiyalash yillari ota-ona hayotidagi eng baxtli damlardir. Binobarin, ota-onani (albatta ular agar insoniy ma‘naviyatdan ajrab, vaxshilik darajasiga tushib ketmagan bo‘lsalar) farzandiga yaxshilik qilishga buyuraverishning o‘zi ortiqcha ishdur. Ammo farzandlar esa yoshliklariga borib yoki o‘zlarining oldilaridagi o‘g‘il-qizlari bilan ovora bo‘lishib, ortlaridagi ota-onalariga beparvo bo‘lib qolishlari mumkin. Shuning uchun Qur'on farzandlarni tez-tez ota-ona oldidagi burchlarini ado etishga da‘vat qiladi.

Otaning farzandga mehri-muhabbati cheksizdir, chunki u farzandini o‘z suratidan ko‘chirilgan nusxa, deb anglaydi. Zotan, otaning tasavvuri to‘g‘ridir. Farzand otaning bir juz‘i, suratda, xulq-atvorda unga o‘xshaydi. Shuning uchun ota farzandi tarbiyasiga diqqat qiladi. O‘zi istagan fazlu kamolni farzandiga berishga, uni o‘zidan ko‘ra ham mukammal qilib yetishtirishga g‘ayrat qiladi. Shu maqsad yo‘lida har qanday mashaqqatga bardosh beradi. Farzandi haqida xalqdan: «Tarbiya qilgan otasiga rahmat!» degan olqishni eshitsa, sevinadi. Farzandi orqali ko‘zlagan maqsadiga yetishni istaydi, nevara, evaralar ko‘rib, naslining davom etishini orzu qiladi. Bu o‘rinda otaning o‘g‘il ko‘rganda quvonishi sababiga izoh berib o‘tsak: albatta ota uchun qiz farzand ham o‘g‘il farzand ham bir xilda suyumli. Ikkovi ham Alloh bergan ulug‘ ne‘mat sanaladi. Ammo o‘g‘il farzand nasl-nasabni davom ettiruvchi bo‘lgani uchun ham otada alohida quvonch uyg‘onadi. Quvonch sababini qizlarni kamsitishda deb anglamaslik kerak. Chunki Islomda bolalarni ajratish, ya‘ni birini ko‘proq ikkinchisini kamroq yaxshi ko‘rish durust hisoblanmaydi. Bashir ibn Sa‘d (r.a.) o‘z o‘g‘illari Nu‘mon ibn Bashirni ko‘tarib Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga keldilar-da: «Yo Rasulalloh! Men shu o‘g‘lim No‘‘monga falon-falon narsalarni berdim, siz shunga guvoh bo‘ling», - dedilar. Shunda Rasululloh (s.a.v.): «Barcha bolalaringga ham shunday narsalarni berdingmi?» - deb so‘radilar. Bashir: «Yo‘q, faqat No‘‘monning o‘zigagina berdim», - degan edilar, Rasululloh (s.a.v.):

«Shunday qilgan bo‘lsang, men bunga guvoh bo‘la olmayman, boshqa odamlarni guvoh qil», - dedilar. Keyin: «O‘zingning farzandlaringning hammasi senga bir xilda yaxshilik qilishlarini xohlaysanmi?» - deb so‘radilar. U kishi: «Albatta shunday bo‘lishini xohlayman», - degan edilar, Rasululloh (s.a.v.): «Unday bo‘lsa, No‘monning o‘zigagina berib, boshqalarini mahrum qilishing durust emas», - dedilar. Imom Buxoriy hazratlari «mazkur hadisdagi Rasulullohning (s.a.v.) «Men bunga guvoh bo‘lmayman», degan so‘zlaridan «boshqalar guvoh bo‘lgan taqdirda bolalaringdan bittasiga berib, boshqalariga bermasang ham bo‘laveradi», degan ma‘noni anglamaslik kerak», - deb izoh beradilar. Agar biz mazkur tarbiyaga amal qilmasak, qariganimizda «Bitta ota o‘nta bolani boqishi mumkin, bitta otani o‘nta bola boqa olmaydi», degan hikmatga ro‘para kelib qolishimiz hech gap emas. Ziyrak bola o‘ziga nisbatan akasi yoki ukasi ko‘proq erkalatilayotganini sezadi va bu sezgi uning qalbida og‘riqli iz qoldiradi. Ulg‘ayganida ham bu og‘riq uni tark etmaydi. O‘sha og‘riq unga «ota-onam buni ko‘proq yaxshi ko‘rardi, ana endi o‘sha yaxshi ko‘rganlari ko‘proq qarasin», degan xato fikr asosida yashaydi. Afsusli yeri shuki, bu xatolik keyinchalik avloddan avlodga o‘taverishi ham mumkin.

Farzandning hayotiga sabab bo‘ladigan birinchi quvvat - ona jismidagi qondir. Chaqaloq shu qondan oziqlanib, hayotini saqlaydi. («Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi» degan maqolni «Qon bilan kirgan jon bilan chiqadi» deganimiz to‘g‘riroq bo‘ladi.) Bola birinchi so‘zni onadan eshitadi va undan o‘rganadi. Shuning uchun ham biz «ota tili» demay «ona tili» deb sifatlaymiz. Bolani o‘stirishda, tarbiya qilishda otaga qaraganda ona ko‘proq hissa qo‘shadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yosh bolalar otadan ko‘ra onaga ko‘proq mayl etadilar. Ulg‘ayganlaridan keyin ham sirlarini avvalo onaga aytib, maslahat so‘raydilar. Ona farzandi uchun o‘zini fido qilishga tayyor turadi. Muoviya ibn Hayyida (r.a.) aytadilar: «Rasulullohdan (s.a.v.) «Ey Rasulalloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo‘ladi?» - deb so‘radim. «Onangga», - dedilar. Men bu savolni uch marta qaytarsam ham Rasululloh «Onangga», deyaverdilar. To‘rtinchi marta so‘raganimda: «Otangga va yaqin bo‘lgan qarindoshlaringga», - dedilar. Farzandda onaning haqi otanikidan ko‘proq bo‘lishi bejiz emas, «...onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan ko‘taradi» (Luqmon, 14), degan oyati karimaga diqqat qilsak buning sababini yanada oydinroq anlaymiz. Ya‘ni ona homiladorlik paytida ham emizish davri deb belgilagan ikki yil mobaynida ham katta qiyinchiliklarni boshdan o‘tkazadi. Shoirlarning ilhomiga ham aynan shu holatlar quvvat bersa kerak. Qadimdan to shu kungacha ona madhida yozilgan she‘rlarning adog‘i yo‘q. Shulardan bitta bayt eslash vaqti yetdi: Ro‘dakiy hazratlari yozadilar:

Onangdan bosh tovlama, oshmasin dardi,

Hayot toji erur oyog‘in gardi...

Agar ona qad-qomatini bir daraxtga o‘xshatsak, farzand shu daraxtning shirin bir mevasi. Bir yigit ona qadriga yetmas edi. Ona ko‘z yoshlari unga ta‘sir etmas edi. Bir kuni ona beshikni olib, o‘g‘li qarshisiga qo‘yib dedi:

-Ey yoshlik, chaqaloqlik paytini unutgan noinsof! Mana bu beshikni ko‘ryapsanmi? Chaqaloq chog‘ingda shu beshikka mixlanib, tungi uyqularni men o‘zimga harom etdim. Beshikda yotganingda yuzingga bitta pashsha yoki chivin qo‘nsa uni quvishga imkoning bo‘lmay yig‘lar eding. Men seni xira pashshalardan asrab, beshigingni tebratar edim. Yig‘idan to‘xtamasang, seni yechib olib, bag‘rimga bosardim. Seni deb barcha mashaqqatlarga chidadim. Kuch-quvvatimni sening kamoling uchun sarf etdim. Mana endi katta bo‘lib, kuch-quvvatga to‘lding. Chaqaloqlik, bolalik, yoshlik paytlaringni

unutib qo‘yding...

Biz beshiklarni ko‘p ko‘ramiz. Ammo qachondir shu kabi beshikda yotganimizni, onamiz tunlari bedor alla aytib chiqqanlarini o‘ylab ko‘ramizmi? Agar o‘ylamasak, eslamasak, unda noinsof farzand ekanmiz. U holda uyimiz to‘riga beshik suratini chizdirib, ostiga «Unutma!» degan xitobni yozib qo‘yganimiz lozimdir?

Bir birodarimizning hikoyalari g‘oyat ta‘sir qilgan edi, shuni siz, azizlar bilan baham ko‘rmoqchiman:

-Hayit arafasida onam bilan birga bozorga tushdik. Niyatinga ko‘ra, eng avval onajonimga yangi maxsi olib berdim. O‘sha yerning o‘zida yangi maxsini kiydirib qo‘ydim. Keyin kavushlarini ham yangiladim. So‘ng taglik-patak olib kelib kavushlariga soldim. Keyin Turkiyada ishlab chiqarilgan yangi paypoq ham olib berdim. Onajonim turayotganlarida «endi ro‘mol olib bersam, bosh-oyoq sarpo qilgan bo‘larkanman», deb hazillashdim. Onam “ha, ha” deb kulib qo‘ydilar. Gap-so‘zlarimizni eshitib turgan maxsido‘z “Onaxon, bu yigit o‘g‘lingizmi?” deb so‘radilar. “Ha”, dedilar onam. Shunda maxsido‘z “Hozir juda ulug‘ ish ro‘y berdi. Rozilik bilan shunday jilmaydingiz-ki, mana shu kulgingiz o‘g‘lingiz uchun yeru osmonning gulga to‘lganidan ham yaxshiroq bo‘ldi. Dunyoda Allohga iymon keltirgandan keyin ota-onaning xizmatini qilib, dilini xushnud etishdan ulug‘roq ish bormi?! Ko‘rib turibmanki, o‘g‘lingiz xizmatigizni sidqidildan qilyapti, men bu ishlarga qiyomatda guvohlik beraman, hozir shu yerda farzandingiz haqqiga duo qiling, chunki shu soatda Allohning dargohi ochiq turibdi, insha

Bu hikoya kishini o‘yga toldiradi: tasavvur qilaylik, ayni damda qancha ota-ona sovuq uylarda, sovuq yolg‘izlikdan yoki farzandlarining sovuq muomalalaridan diydirab o‘tiribdilar ekan? Qani edi, o‘sha sovuq muomalali farzandlar shu yigitdan ozginagina ibrat olishsa-yu, duogo‘ylarining qadrini bilishsa, jannatlari yo‘llarini topib olishsa.

Bitta haqiqat bor, unutmazlik kerak: kim ota-onasi duosidan mahrum bo‘libdi, jannatdan mahrum bo‘libdi. Alloh saqlasin!

Ota-onaning farzandga mehri fitratida - yaralishida bor, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Bunday mehri biz hatto jonivorlarda ham ko‘ramiz. Dalada kuzatgan edim: ona sovliq bog‘langan. Qo‘zichoq o‘ynab yuribdi. Bir mahal o‘zidan kattaroq qo‘zi bilan suzishmoqchi bo‘ldi. Bundan sovliq bezovta bo‘lib ma‘rayverdi. Arqondan qutilishga urindi. Qo‘zisi biqinidan bir-ikki zarba yeb yiqilgach, sovliq qattiq siltandi-da, arqonni uzdi. Bu holatni «ona mehri arqonni uzdi», deb sifatlasak ham bo‘lar. Siz yuvosh ko‘ringan mushukning bolasini olishga urinib ko‘ring-chi, talamasmikin?

Onalarga xos bo‘lgan mehr faqat o‘z farzandlariga atalmagan. Ular begonalarga, hatto din va millatini farqlamay mehr ko‘rsatadilar. Deylik, bir musofir siznikida qo‘noq ekanida xastalanib qoldi. Albatta siz uning holidan xabar olasiz. Ammo onangiz yoki buvingiz sizdan ko‘ra ko‘proq achinadilar. Davolash uchun zarur hamma choralarni bajaradilar. Musofir minnatdorlik belgisi sifatida hadya bersa olmaydilar, shunday emasmi? Bu ham ona qalbidagi mehrdan.

O‘tgan asrning yetmishinchi yillarida o‘zbek kinochilari Hamza haqida ko‘p qismli bir fil‘m ishladilar. Yolg‘onga asoslangan bu bema‘ni tomosha Moskva televideniesida ham

ko'rsatildi. Shu tomoshada bir voqea bor: Hamzaning rus xotini homilador bo'ladi. O'zbek ayollari uni o'rab olishib qiynashadi... Bu fojiani ko'rib dahshatdan seskanib ketdim. Dahshat o'zbek ayollarining zulmida emas, dahshat yolg'onning ekranda bu qadar uyatsizlarcha aks etishida edi. Men o'sha paytda Moskvada, rus adiblari bilan dasturxon atrofida o'tirgan edim. Yer yorilmadi, yerga kirib ketmadim. Hamkasblarga bu voqeaning tuhmatdan iborat ekanini aytmogga chog'langanimda ulardan biri mushkulimni oson qildi: «Homilador ayolni faqat aqldan ozgan erkak qiynashi mumkin. Aqldan ozgan ayol ham homiladorga bunaqa zulm qilmaydi», dedi. Bu voqeani eslashimdan maqsad: fitratida mehr bo'lgani uchun onalardan zulm kutmaymiz.

Ammo... Qani edi, hayotda shu «ammo» bo'lmasa... Hayotda farzandidan kechuvchi nopok onalar ham bor, onalik huquqidan mahrum qilinuvchilar ham bor. Jamiyat faqat o'z nafi uchun yashayotgan, aroqxo'r yoki fohishalarni «ona» degan sharafli nomdan mahrum qiladi. Ayrimlar bolani tug'ib

so'ng undan yuz o'giradilar. Ayrimlar esa bolani tug'ilmasidan avval o'ldiradilar. Buni tibbiy tilda «abort» deyishadi, biz «qotillik» desak to'g'ri bo'ladi. Otasini o'ldirganlar «padarkush» deyiladi, farzandini o'ldirganlar-chi? «Farzandkush»mi? Afsuski farzandkushlarga bu hayotda, bu jamiyatda jazo yo'q. Qiyomatdagi jazo esa tayin. Farzandini o'ldiruvchilar yoki kechuvchilar o'z gunohlarini, aniqroq aytsak buzuqliklarini berkitish uchun shunday yovuzlikni amalga oshiradilar. Johiliyat zamonida arablar ko'p farzand ko'rsalar «boqa olmaymiz», deb o'ldirar ekanlar. Alloh bunday bandalarga qarab: «...bolalaringizni qashshoqlikdan (qo'rqib) o'ldirmangiz. Biz sizlarni ham ularni ham rizqlantiramiz», deb amr qiladi. Bu oyati karima faqat o'tmish arablariga emas, bugun «abort» deb atalmish qotillikdan qaytmayotgan ayollarga ham taalluqli. Ana shunday iymonsiz ayollarga Sahl ibn Hanzaliyaning (r.a.) so'zlarini ibrat sifatida eslatsak: u zot hech farzand ko'rmagan ekanlar. Allohga munojot qilib der ekanlarki: «Alloh taolo menga chala tug'lsa ham bir farzand bersa-yu, keyin uni rahmatiga olsa va men farzand dog'iga sabr etib, shunga Allohdan bo'ladigan savobni umid qilsam, bu men uchun butun dunyodan va undagi hamma narsalardan ham yaxshiroq bo'lar edi...»

O'tgan asrning oltmishinchi yillarida bir she'r ancha mashhur edi. Sharq afsonasi asosida yozilgan bu she'r hatto to'ylarda ham o'qilardi. Afsuski, keyin-keyin unutildi. She'rning mazmuni bilan qisqa tarzda bo'lsa-da, tanishsak:

Ko'p nasldan naslga o'tgan bir afsona bor,

Yolg'iz ona va o'g'il yashar edi baxtiyor.

Balog'at yoshiga yetgan yigit kunlardan bir kun go'zalga oshiq bo'lib o'zini yo'qotadi. Qiz yigitning sevgi izhorini eshitib: Qiz dediki yigitga: Sevging bo'lsa haqiqat, shuni albat qilib kel: onangning yuragini menga olib kel! ...yigit bo'ldi sarsari, to'rt tomonga yugurdi, cho'ldan topib bir hayvon yuragini sug'urdi! Shoshib, bo'lib umidvor, yo'llarda oqizib qon, yana qiz qarshisida bo'lgan edi namoyon. Qiz anoyilardan emas ekan, yigitning nayrangini fahmlabdi-da: qiz o'shqirdi va dedi: keltirmabsan menga keragini, ket, ko'rinma ko'zimga, keltirmasang menga onangning yuragini! Yigit yana sarsari kezadi.

Oxiri onaga bo'lgan muhabbatidan qizga bo'lgan sevgisi ustun chiqadi-da, ona ko'ksiga

xanjar uradi. Yurakni sug'urib oladi. ...yo'lda ketarkan, oyoqlari chalishdi va mehribon onaning yuragi tushdi yerga. Shunda sho'rlik onaning yuragi kirdi tilga va dedi qarshisidagi o'g'liga: «Jonim bolam, yomon yiqilmadingmi? Qaragin, sog'mi taning, et-beting?...» ...Shunda yigit taxta bo'lib qotib qoldi, Qancha yugursa ham qizga yetolmay yotib qoldi...

Ota va onaning bolaga bo'lgan mehri ilohiy tarzda qalbga singdirilgan bo'lsa-da, bu mehrni quvvatlantirish uchun Rasulullohning axloqlaridan ibrat olishimiz lozim.

Darro ibn Ozibdan (r.a.) rivoyat qilinishicha, u kishi: «Men Rasulullohning (s.a.v.) imom Hasanni yelkalariga mindirib: «Ey Rabbim! Men bu nabiramni sevaman, Sen ham uni sevgin!» deb kelayotganlarini ko'rgan edim», - dedilar.

Anas ibn Molik (r.a.) aytadilar: «Hazrati Oishaga (r.a.) bir bechora xotin tilanib keldi. Oisha unga uchta xurmo bergan edilar, u yonidagi ikki bolasiga bittadan xurmo berdi-da, bittasini o'zi uchun olib qoldi. Bolalar xurmolarini yeb bo'lishib, yana onalariga umid bilan qarashdi. Ona qo'lida ushlab turgan xurmoni ikkiga bo'ldi-da, bolalariga uzatdi. Rasululloh (s.a.v.) kelganlarida Oisha bu voqeani ul janobga aytib bergan edilar, Sarvari koinot (s.a.v.) dedilar: «Sen bunga nima uchun ajablanasan? Ikki bolasiga marhamat, mehr-shafqat qilgani uchun Alloh taolo ham unga marhamat qiladi».

Mazkur hadisning mag'zini chaqsak, Alloh taoloning marhamati deyilganda Uning ajri, ya'ni, ota-onaning qariganida farzandlari tufayli ko'radigan rohati-farog'ati nazarda tutilgan, degan ma'no chiqadi.

Hazrati Oisha onamiz (r.a.) aytadilar: «Rasululloh huzurlariga bir a'robiy kelib: «Sizlar yosh bolalaringizni o'pasizmi? Bizlarda bunday odat yo'q», - dedi. Rasululloh (s.a.v.):

«Alloh taolo sening ko'nglingdan rahmatini tortib olgan bo'lsa, uni men qanday qilib sening ko'nglingga joylay olaman», - dedilar.

Ta'kid sifatida ostiga chizib qo'yilgan so'zlarga e'tiborimizni qarataylik, shunda oz bo'lsa-da uchrab turadigan ayrim ota yoki onalarning o'z farzandlariga nima uchun bemehr ekanliklarining sababini anglaganday bo'lamiz: demak Yaratgan Rabbimiz ularning ko'nglidan rahmatni tortib olib qo'ygan ekan. Bundaylar kelajakda qanday ajr olishlarini o'ylab ko'risharmikin? Yo'q, o'ylashmasa kerak. Chunki rahmat tortib olingan ko'ngillarda iymon bo'lmaydi. Faqat iymonsiz odamgina o'z farzandidan kechadi. Yetimxonalaridagi tirik yetimlarning ota-onalarini «ota» yoki «ona» deyilmish sharaflil nom bilan atashga til ham hazar qiladi.

Rivoyat qilurlarkim, hazrati Umar (r.a.) bir mo'tabar odamni shahar hokimi etib tayinlamoqchi bo'ldilar. Kotib farmonni yozishga kirishgan onda bir go'dak kirib amiralmusliminning tizzalariga chiqib, o'tirib oldi. Xalifa bolakayni o'pib, erkaladilar.

Hokimlikka tayinlanayotgan kishi buni ko'rib:

-Bu go'dak o'z o'g'lingizmi? - deb so'radi.

-Yo'q, bu bir kambag'alning farzandi. Ota-onasi vafot etgan. Bolani o'z tarbiyamga olganman, - dedilar hazrati Umar.

U kishi xalifaning muloyim qalbli, shafqat, marhamatli ekanliklariga ajablanib, dedi:
-Mening o'nta farzandim bor. Men o'z bolalarimni ham erkalab, o'pmayman. Bolalarim meni ko'rishganda zirillab turishadi. Ota shunday bo'lishi kerak emasmi?

Xalifa bu so'zlarni eshitib, yozilgan farmonni olib yirtib tashladilar-da dedilar:
-Bu odamni hokim etib tayinlashni istamayman. O'z farzandlariga toshko'ngil bo'lgan odam xalqqa qanday manfaat yetkazishi mumkin?

Afsuslarkim, oramizda «bola otadan qo'rqib, zirillab turishi kerak», degan noto'g'ri qoidaga rioya qiluvchilar ham topiladi. Agar umr bo'yi bolalarini shunday tutishga intilgan odam vafot etsa, farzandlari «qutulganimizga shukr», deyishmasmikin?

Yana sharaflil hadislarga qaytsak:

Abu Hurayra (r.a.) aytadilar: «Rasululloh bir kuni nabiralari imom Husaynni o'pdilar. Bu vaqt huzurlarida Aqra' ibn Hobis o'tirgan edilar. U kishi: «Mening o'nta bolam bor, ulardan bittasini ham men o'pagan emasman»,- dedilar. Janobi Rasululloh (s.a.v.) unga qaradilar-da, dedilar: «Marhamatli bo'lmagan kishiga Alloh taolo ham marhamat nazari bilan qaramaydi».

Bugun o'z farzandlariga mehr berolmaganlar qariganlarida xorlansalar boshqalardan o'pkalanmasliklari kerak bo'ladi.

Ko'rdikki, ota-onaning farzand oldidagi burchi ham ulug' ekan. Bolani dunyoga keltirib qo'ygan bilan ish bitmaydi. Ota-onaning farzandlariga ilm va yaxshi axloq tarbiyasini, xususan badan tarbiyasini ham berish, jismonan chiniqtirish, xususan suzishni o'rgatish kabi vazifalari bor. Ota-ona bolani odobli, axloqli qilib voyaga yetkazganlari uchungina olqishga sazovor bo'ladilar. Ota-onaning burchlari haqida gap ketganda, farzandga chiroyli ism qo'yish mas'uliyatini, voyaga yetganda uylantirish (kuyovga uzatish) vazifasini vaqtida bajarishlari shartligini ham ta'kidlab o'tishimiz lozim. Ba'zan eshitib qolamiz, ayrim ota-onalar turli bahonalar bilan bu vazifani galga solaveradilar. Oqibatda o'g'il nikohsiz uylanib oladi, qiz homilador bo'lib qolganini aytishdan boshqa chorasi qolmaydi. Bunday bo'lishdan Alloh saqlasin! Ota-onalik burchini to'g'ri ado etganlarni Alloh turli balolardan va malomatlardan, benomusliklardan asraydi. Agar ota-ona o'z burchini bajarmasa oxiratda farzandning da'vo qilishi ham aytilgan. Da'vo nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Gunoh daftari to'lib toshgan odam ota-onasi yoqasiga yopishib deyishi mumkinki: «Yo Rabbim, men bu ota-onamga da'vogarman. Menga Islomni o'rgatmadi. Meni teatrqa yubordi, litsey, kollejga yubordi, masjidga yubormadi. Chet tilni o'rgatdi, Qur'oni Karimni o'rgatmadi. Amerikada o'qitdi, ammo «la ilaha illolloh»ni o'rgatmadi. Halol-haromni anglatmadi. Shuning uchun men senga qullik qila olmadim. Bular aybdordir...» Shunday bo'lishidan barchalarimizni Alloh saqlasin! Ayrim bandalarning esa o'lganidan keyin nufuzi ko'tarilib qolar ekan. Shunda u ajablanib: «Ey Rabbim, bu darajamning ko'tarilishi nimadan hosil bo'ldi?» deb so'raydi. Shunda Alloh tomonidan ma'lum etilar ekanki: «Ey bandam, orqangda qolgan bola-chaqalaringning sen uchun qilgan istig'forlarining natijasidir». Alloh barchalarimizga shunday ajr nasib etsin!

Qiyomatda buning aksi ham bo'lishi mumkin ekan. Abasa surasida ta'kid etilganki, ayrim insonlar qiyomatda ota-onasidan qochar ekan. «Ularga munosib xizmat qilmadim, endi haqlarini talab qiladilar», deb qo'rqib, iztirobga tushar ekan. Ana shu iztirobning

oldini olish uchun kishi hayotlik davrida harakatini qilib qolishi kerak. Olimlarimiz bu mavzuda suhbat yuritganlarida Isro surasidagi oyati karimani albatta tilga oladilar. Biz ham bu an'anadan chetda qolmaylik:

«Rabbing faqat Uning o'zigagina ibodat qilishingni va ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga «uff» dema,

ularga ozor berma va ularga yaxshi so'z ayt. Ikkovlariga mehribonlik ila hokisorlik qanotingni pastlat va «Rabbim, alar meni kichiklikda tarbiya qilganlaridek, ularga rahm qilgin», deb ayt».

Bu amr Allohning qat'iy va o'zgarmas buyrug'i. Bu buyruqni bajarish ixtiyoriy emas, balki har bir bandaning burchi. «Uff» so'ziga bog'liq ikki ma'no bor: 1. Ota-onaga yomon so'z aytib, behurmat qilmaslik. Misol uchun: ota-ona ish buyurganda «uff, tinch qo'ymas ekansizda», yoki «uff, shu gaplaringiz ham jonimga tegdi» yoki «uff, sizga hech tushuntirib bo'lmas ekanda» kabi norizolikni ifoda etishni Yaratgan bizga man etyapti. 2. Ishdan charchab qaytdingiz, yoki ko'nglingiz bir nimadan g'ash. O'zingizcha «uff» deb qo'ydingiz. Bilmaysizki, shu «uff»ingiz bilan ota-onangiz qalbini tilib yubordingiz. Ularning «bolam og'ir sinovga tushibdi», deb ozorlanganlarini anglamadingiz.

Endi ular kunlab, balki oylab ko'zlarigizga termilib, parishonlik bulutining ko'tarilishini kutadilar. Siz o'zingizga uchragan pashshaday tashvishni birgina «uff» bilan fil holatida kattalashtirib ota-onangizga uzatdingiz. Demak, biz ota-onamizni tashvishimizga sherik qilmasligimiz kerak ekan. Farzand ota-onaning huzurida o'zini qanchalik hokisor tutsa, shuncha yaxshi.

Alloh buyuradiki, «...nimaniki xayr-ehson qilsangizlar ota-ona, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar va musofirlarga qilingizlar». Ehsonga loyiqlar orasida ota-ona bekorga birinchi zikr qilinayotgani yo'q. Kishining o'zidan keyingi haqdori ota-onasi bo'ladi. Ota-onasini muhtoj qo'yib, ulardan boshqalarga ehson qilishdan nima foyda bor? Qishloqlardan birida bu voqeaga guvoh bo'lgan edik. Birodarimiznikida mehmonda edik. Qo'shnisi ehsonga taklif etdi. Chiqdik. Juda ko'p mehmon aytilgan ekan. Biz hovlida, tut daraxti soyasidagi so'ridan joy oldik. Ro'paramizda oshxona, uning yonida bir pastak hujra bor edi. Agar o'sha hujradan xasta ovoz chiqmasa unda odam yashashiga ishonmas edim. O'sha hujraga ko'p tikilayotganimni sezgan birodarim «u yerda sohibi ehsonning volidolari yashaydi, bir oz xastalar», deb izoh berdi. Men «mehmonlarga joy hozirlash uchun kattaroq uydan bu hujraga vaqtinchalik olib chiqilgandir», degan o'yda edim. Ammo ehson yakuniga yetgunicha ham birov u hujradan xabar olmadi. Bir piyola issiq choy yoki bir burda issiq non olib kirmadi. Shundan so'ng birodarimdan «doim shu uyda yashaydilar mi?» deb so'rashga majbur bo'ldim. Birodarim qo'shnisining sirini ochayotganidan hijolat bo'libmi, asta «ha», deb qo'ya qoldi, boshqa izoh bermadi. Boshqacharoq izohga hojat ham yo'q edi. Bu tez-tez uchraydigan voqea emas. Biz ham vahima qilmoqchi emasmiz. Lekin bu dahshatdan (ha, aynan dahshat, aynan yovuzlik deymiz) ko'z yuma olmaymiz. Aqlni lol qoldiradigan darajada ehson dasturxonlariga mehmonlarni chorlaganlari holda otalari yoki onalariga o'zlarining eski kiyimlarini kiyintirib qo'yadiganlar ozmi yo ko'pmi?

Bir birodarimiz ko'zida yosh bilan aytib edi: otasi xasta ekan. Katta akasi aqiqa

marosimiga tayyorlanayotgan ekan. Bizda bunaqa odat ko'p uchraydi. «Otam (yoki onam) ko'rib qolsinlar», deb to'y yoki boshqa marosimni tezlatamiz. Bu albatta yaxshi niyat. Ammo bu niyat ortida «otam (yoki onam) o'lib qolsa to'yim qolib ketadi (yoki to'yga ataganlarim azaga ishlatilib ketadimi) degan hadik ham bo'ladi, buni yashirmaylik. Xullas, birodarimizning akasi aqiqa dasturxoniga olinajak ne'matlarni ro'yxat qilib o'tirganida xasta ota «quyultirilgan shirin sut ham olib kelgin», deb iltimos qilibdi. Shunda nodon o'g'il o'ylamay-netmay «Bunaqa sut hozir otliqqa yo'q, qaerdan topaman», debdi. Xasta ota indamabdi. O'sha paytda bu narsaning topilishi chindan ham qiyin edi. Ammo o'g'il otaning ko'ngli uchun «albatta topamiz», desa kifoya edi. «Xudoning marhamatini qarangki, - deydi birodarimiz, - akamning bu gaplaridan ranjib turganimda bir do'stim dadamni yo'qlab, ikkita non bilan o'sha so'ralgan shirin sutdan olib keldi. «Mana, dada, so'raganingiz, ochib beraymi?» deb so'radim. Dadam bankani qo'llariga olib xuddi go'dak boshini silaganday silardilar-da, «keyin ochasan», dedilar. Aqiqadan so'ng dadam hushlarini yo'qotdilar va ko'p o'tmay bu foniy dunyoni tark etdilar. Ayollar dadam istagan quyultirilgan shirin sutni ochib, shirinliklar pishirib ma'raka dasturxoniga qo'ydilar...»

Shunga o'xshagan voqealar oz bo'lsa ham uchrab turadi-ki, undan ko'z yummoqlik musulmon bolasiga xos emas. Ota-onalarini izzat qiluvchilarni hayotda ko'p uchratamiz va bundan ko'ngillarimiz shodlanadi. «Mening farzandlarim ham shunday solih bo'lsin», deb niyat qilamiz. Niyat qilishimiz albatta yaxshi, ammo shuning o'zi kifoya emas. Farzandning olijanob, fazilatli bo'lishi faqat uning nasl-nasabiga ham taalluqli bo'lib qolmaydi.

Qadimda o'g'rilarning qo'llari kesilganini eshitganmiz. Shunday o'g'rilardan biri ushlanib, jazoga hukm qilinganda bir qizcha podsho huzuriga kelib tiz cho'kib, yig'laganicha o'tinib so'rabdi:

-Otamni jinoyatlari uchun qo'llarini kesishga buyurgansiz. Bilaman, hukmingiz adolatli.

Lekin otamning mendan kichik yana to'rt farzandlari bor. Onamiz kasalvandlar, bizlarni boqa olmaydilar. Agar otamizning qo'llarini kestirsangiz, hammamiz ochdan o'lamiz. Bizlarga rahm qiling, otamizning qo'llarini kestirmang. Agar qo'l kesmaslikning boshqa iloji bo'lmasa, u holda otamning qo'llari o'rniga mening qo'limni kesa qoling.

Podsho bu gapni eshitib, kichkinagina qizning ota-onasiga muhabbati bu qadar ulug'ligidan hayratda qoldi. Qizni sinamoq maqsadida unga:

-Mayli, otang qo'li o'rniga sening qo'lingni kestiraman. Qo'lingni bugun emas, ertaga kesishadi. Ertagacha yaxshilab o'ylagin, keyin yana pushaymon yeb yurmagin, - dedi.

Ertasi kuni jazo maydonida yana odam to'plandi. Qizning otasini keltirdilar. Qiz ham hozir bo'lib, otasiga dedi:

-Otajon, sira qo'rqmang, men podshoga «Otamning qo'llari o'rniga mening qo'limni kestiring», deb yalindim. Iltimosim qabul bo'ldi. Hozir mening qo'limni kesib, sizni ozod qilishadi.

Qiz shunday deb, kundaga qo'lini qo'ydi. Bu holatdan podsho ham, to'planganlar ham ko'z yoshi to'kdilar. Qizning otasi ozod etildi. Ota-bolaga iltifotlar ko'rsatildi. Podshoning amri bilan jazo maydonidagi kunda olib tashlanib, uning o'rniga bir marmar tosh tiklandi-da, bu so'zlar o'yib yozildi:

«Bir yoshgina qiz otasining qo‘li o‘rniga o‘z qo‘lini fido etishni istadi. Shu qizdek farzandga ega bo‘lgan ota-ona qanday baxtiyordir...»

Bu marmar tosh farzand mehriga qo‘yilgan o‘ziga xos ramziy haykaldir. Hayotda hech yerda bunday haykal yo‘q. Ammo ota-ona farzandidan ozginagina mehr ko‘rsa ham unga o‘z qalbi to‘ridan bitta haykal tiklaydi. Bu haykalning nomi - shukronalik. Ota-onasini rozi qilgan farzandga esa Tubo (jannatlardan biri yohud undagi bir daraxt nomi) nasib bo‘lishi, Alloh taolo umrini ziyoda etishi haqida sharafli hadisda marhamat qilinadi. Hazrat Navoiy ta‘birlari bilan aytilsa - «Hurmati volidayn - farz ayn». Ota-onani hurmatlash - bajarilishi o‘ta zarur amaldir.

Abdulloh ibn Umar (r.a.) Taysala ibn Miyosdan «Do‘zaxdan qo‘rqib jannatga kirishni xohlaysanmi?» deb so‘radilar. «Albatta xohlayman», dedilar Taysala. «Ota-onang tirikmi?» - deb so‘radilar. «Otam vafot etganlar, ammo onam borlar», dedilar Taysala. Shunda Abdulloh ibn Umar dedilarki: «Katta gunohlardan o‘zingni saqlaganingdan keyin onangga qattiq gapirmasang, uning ob-ovqatini berib tursang, albatta jannatga kirasan», - dedilar.

Agar e‘tibor qilsak, bu hikmatning asosi ham «Jannat onalar oyog‘i ostidadir», hadisi sharifi ekanini anglaymiz.

Rivoyat qiladilarkim, Marvon ibn Hakam Madinadan bir joyga safarga ketganlarida o‘z o‘rnilariga Abu Hurayrani qoldirib ketardilar. Abu Hurayra Zul-Hulayfada turib, o‘zlari bir xonada, onalari esa boshqa xonada yashardilar. Abu Hurayra qachon o‘z xonalaridan tashqariga chiqadigan bo‘lsalar, onalarining eshigi oldiga kelib salom berardilar-da: «Meni yoshligimdan tarbiyat qilganingiz uchun sizga Alloh taoloning rahmati bo‘lsin», - der edilar. Onalari ham u kishining salomlariga javob qaytarib: «Katta bo‘lganingda menga yaxshilik qilayotganing, roziligimni olayotganing uchun senga ham Alloh taoloning rahmati bo‘lsin», der edilar. Abu Hurayra tashqaridan qaytib kelganlarida ham ona-bola o‘rtasida shu muomala takrorlanardi.

Ey ko‘ngil! Bu go‘zal muomala senda ham bormi? Bor bo‘lsa, umring armonsiz o‘tajak. Yo‘q bo‘lsa-chi? Avval aytgin: nima uchun yo‘q? O‘ntagina so‘zni aytishga tiling nima uchun aylanmaydi? Senga nima to‘sqinlik qiladi? Ehtimol onangni qaymoq bilan boqishga puling yo‘qdir. Qaymoq so‘zing-chi? Asal sotib olishga puling yetmas, ammo asal kabi totli duo uchun nimang yetishmaydi?

Ne shodki, bizning yurtimizda ota-onasini hurmat qiluvchilar ko‘p. Kamina istiqomat qiluvchi «Ilg‘or» mahallasida Yaponiya mamlakatidan kelgan bir yosh olim ijtimoiy tadqiqot olib bordi.

U mahalladagi barcha marosimlarda ishtirok etishga harakat qildi. Uning ziyrak fahmi farzandlarning ota-onalarini beqiyos tarzda hurmat qilishlarini anglabdi. Bir kuni u bilan suhbat chog‘ida dunyoga mashhur yapon adiblarining asarlaridan gap ochdim. -Ha, Yaponiya ulug‘ yozuvchilarga boy mamlakat. Mening yurtim ilm-fanda ham ilgarilab ketgan, - dedi u. - Ammo har bir xalq ilm-fanda yoki adabiyotda xuddi shunday, balki bundan ham a‘loroq yutuqqa ertami-kechmi erishishi mumkin. Lekin sizning xalqingiz erishgan boylikka hamma ham erisha olmaydi. Ayniqsa hozirgi kunlarda,

hamma narsa ilm-fan taraqqiyoti mezoni bilan o'lganib, ma'naviy olamdan uzoqlashilayotgan asrda qiyin, g'oyat qiyin. Men farzandlarning ota-onalariga mehribonligini nazarda tutyapman. Bu men uchun yangi olamday tuyulyapti. Chunki men bu olamni yo'qotganman. Hozir ota-onam xasta. Akam qo'shni orolda yashaydi. Lekin bir necha oylab kelib ko'rolmaydi. Kelsa, ishdan qoladi. Ishdan qolsa, vazifasidan haydaladi...

Yaponiyalik mehmon shunday deb xo'rsinib, ko'ziga yosh olgan edi...

Ota-ona orasida ba'zan kelishmovchiliklar ham bo'lib turadi. Masalan ota-ona bir ish buyursa farzand bu ishni to'g'ri hisoblamay rad etishi mumkin. Bunda ham albatta ota-onaning ko'ngli ranjidi.

Sa'd ibn Abi Vaqqos dedilar: «Alloh taolo Qur'oni Karimdan to'rt oyatni mening haqimda tushirdi. Onam: «Sen Muhammaddan ajralmaguningcha men hech narsa yemayman ham, ichmayman ham» deb qasam ichgan edilar. Shunda Alloh taolo: «Agar ular (ya'ni ota-onang) seni o'zing bilmagan narsalarni Menga sherik qilishga zo'rlasalar, u holda ularga itoat qilma, Ularga (garchi kofir bo'lsalar-da), dunyoda yaxshi muomalada bo'lgin» (Luqmon surasi,15.), deb buyurdi.

Shayxlar debdilarkim: «Voliduka - robbuka», ya'ni otang - parvardigoringdir. Deyilmish bu ma'nodan shirk ko'rilmaligi, aksincha, «tarbiyachi Allohga itoat etganing kabi ota-onaga ham itoatda turgin», deyilmish ma'noni uqmoq joiz. Allohning inson tarbiyasiga oid amrini bolaga eng avvalo ota-ona yetkazadi. Bu o'rinda «robbuka» - tarbiyachi ekaniga ishora hamda mas'uliyat yuki ham anglashilsa durust bo'lar. Xalqda «Hakim ota» nomi bilan mashhur zotlardan Hakim Sulaymon «ota - qodiri qayyum, ona - roziqi marsum», degan ekanlar. Ya'ni ota Allohning abadiy qudrat egasi sifatiga, ona esa Allohning barcha jonzotga rizq beruvchi sifatiga o'xshatilyapti.

Atodin xato kelsa ko'rma xato,

Savob bil xato qilsa dog'i ato.

Atoning xatosini bilgil savob,

Seni yuz balodin qutqarg'ay Xudo.

Turkigo'y shoirlardan Adib Ahmadning bu nasihatini yodlab olsak-da, otamiz yoki onamizga betgachoparlik bilan gap qaytarishga chog'laganimizda eslasak, balki ularning ko'nglini og'ritib qo'yishdan saqlanarmiz.

Ibrohim Xalilullohning otalari but yo'nuvchi usta Ozar edi. Ibrohim alayhissalom otalarini butparastlikdan qaytarish uchun nasihat qilgan vaqtlarida nido keldikim, ta'zim va muloyimlik bilan nasihat qilg'il. Va Yusuf alayhissalom otalari Ya'qubga (alayhissalom) xatolik bilan odobsizlik qilganlari uchun boshqa payg'ambarlardan yetmish yildan keyin jannatga kirishga hukm etildilar. Yusuf alayhissalom qanday odobsizlik qilibdilar ekan? Otalari bilan ko'rishayotganlarida otdan tushmay so'rashgan ekanlar! Nuhning (alayhissalom) o'g'illari Xom ham odobsizligi tufayli otaning duoyibadiga uchradi: rangi qora bo'lib, uning naslidan payg'ambarlik uzildi. Xom

qanday odobsizlik qilib edi? Nuh alayhissalom kemada uxlab yotganlarida shamol ko'tarilib, uyat joylari ochilib qolganini ko'rib kulgan edi!

Payg'ambarlarki ota-ona huzurida itoat etar ekanlar, bizning itoatimiz xususida so'z bo'lishi mumkin emas. Hadisi sharifda ta'kid etilganidek, agar ular biz - farzandlarga «dunyodan kech», deyishsa ham hurmatlari uchun buyruqlarini ijro qilishga majburlamiz. Jannat yo'li shudir. Afsuskim, oramizda jannatga ishonmaydiganlar ham topiladi.

Ularga deymizki, ota-ona roziligini ololmasangiz shu dunyoning o'zidayoq jabr ko'rasiz. Avvalo, ota-onasini xorlagan odamni jamiyat izzat qilmaydi. Bu odam jamiyat nazaridan qoladi va bundan ortiq xorlik bo'lmas. Qolaversa, yana takror aytamiz, o'zining farzandlari ham uni xorlaydi. Xorlanib, azoblanib tezroq o'lishni istaydi. Lekin Alloh unga o'lim bermaydi. Ana shunday xorlangan odamlar bizlarga o'rnak bo'lishlari kerak.

Rasul alayhissalom minbarga chiqayotib, bir qadam tashlab «omiyn» dedilar. Ikkinchi qadam tashlab yana «omiyn» dedilar. Uchinchi qadamni bosganlarida ham «omiyn» dedilar. Minbardan tushganlarida sahobalar «Yo Rasulalloh! Xutba o'qish uchun minbarga chiqayotib nima sababdan uch marta «omiyn» dedingiz?» - deb so'rashdi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): «Men minbarga chiqayotganimda Jabroil alayhissalom kelib «onasi va otasi hayotlik vaqtida yoki bulardan biri hayot bo'la turib, ularning roziligini olib, jannati bo'la olmagan va bu imkoniyatni boy bergan farzandning burni yerga ishqalsin!» - dedilar. Men ham «omiyn» dedim» - dedilar.

Bundan murod: bir farzandning onasi va otasi yoki ulardan biri hayotligida ularga xizmat qilib, duosini ololmasdan, jannati bo'lolmaganlarning holiga voy, degan ma'no bor.

«Holi voy» bo'layotganlarni ko'rmaymizmi? Yoki ko'rib ko'rmaganga olamizmi? Qaynona-kelin mojarosini hal etish uchun hovlini bo'lib olgan farzandlar yo'qmi oramizda? «Ota-onam bolaligimda menga yaxshi qarashmagan» deb nolib yuruvchi noshukrlar-chi? Sovet davrida bolalar va yoshlar uzoq yillar mobaynida otasini sotgan oqpadar Pavlik Morozov misolida tarbiya qilingan edi. Ana shu ahmaqona tarbiyaning dog'lari butunlay yuvildimi?

O'tgan asrning o'ttizinchi yillaridan misol: qarib qolgan otaning bir o'g'il va bir qizi bor. O'g'ilning turmushi to'kin, jamiyatdagi mavqei ham balandroq. Qizining oilasi bir amallab kun ko'radi. Ota xastalanib kasalxonaga tushganida bu farzandlarning mehr-oqibati aniq ko'rinadi. O'g'il ishda band ekanligini bahona qilib kam keladi. O'g'ilning mehri shunday bo'lgach, oilasiniki qanday bo'lardi? Qiz esa kunda ikki-uch qatnaydi. Shunda ota qo'llarini baland ko'tarib qizni duo qiladi. Qiz ketgach, joni uziladi. O'sha duo - otaning roziligi edi. Alloh ham undan rozi bo'ldi. O'g'ilning oilasidan baraka ko'tarila boshladi. Boshiga ko'p tashvishlar tushdi. Qariganida farzandlari yonida bo'lsa ham, sutga ivitilgan bir qoshiq nonni og'ziga tutguvchi mehribon topilmadi. Kasalxona farroshining qo'lida jon berdi. Farrosh musulmonlik qoidalarini bilmagani sababli jag'lari, oyoq-qo'llari bog'lanmay, g'assolni ham ancha qiynadi. G'assol qancha urinmasin, jag' ochiqligicha ketdi. Qizning oilasi esa kundan kun yashnay berdi. Qiz keksalik yoshiga yetganida, xastalanganida farzandlari qo'llarida ko'tarib yurganlarini o'zim ko'rdim. Jon berishlari ham mo'jiza kabi yuz berdi. Farzandlari davrasida, gaplaridan adashmay, yaxshi nasihatlar qilib, bir nafas bilan yengilgina jon berdilar. Ikkinchi misolga o'tishdan oldin diqqatimizni bir narsaga qarataylik: shu kunlarda, shu

daqiqalarda ham kimning otasi yoki onasi shifoxonada yotgandir. Ularni yo‘qlab har kuni boryapmizmi? Bilishimiz joizkim, ularga doktorning dorisi emas, bizning issiq yuzimizni ko‘rish davodir. Kunda bir boramizmi? Nima uchun ikki marta bormaymiz? Borganda ham necha daqiqa o‘tiramiz? O‘n daqiqami yo yarim soatmi? Ha... biz ishga band odamlarmiz. Ishimiz ko‘p. Endi diqqat qilaylik: ishimiz ko‘p, ammo ota-onamiz ko‘p emas. Bittagina! Bugungi ishni ertaga bajarsak ham bo‘ladi. Bugungi majlisga kirmaslik ham mumkin. Biroq, ota-ona g‘animat, bugun ko‘rgani kelolmasangiz ertaga issiq yuzlarini emas, sovugan jasadlarini ko‘rishingiz mumkin. Har nafas g‘animat, har daqiqa g‘animat. Diydor onlarini qo‘ldan chiqarsangiz to o‘lguningizcha armonda yashaysiz. Qiyomatda qanday holda diydor ko‘rishasiz? Jannatda jam bo‘lasizmi ota-onangiz bilan yoki do‘zaxda armon o‘tida yonasizmi?

Azizim, ehtimol shu satrlarni o‘qiyotganingizda otangiz yoki onangiz shifoxonadadirlar. Alloh ularga shifo bersin. Siz esa... qo‘lingizdagi kitobni qo‘ying. Ularning huzurlariga boring, duolarini oling. Ehtimol ota-onangiz sog‘dir (hamisha sog‘ bo‘lsinlar), ammo boshqa mahallada yoki boshqa shaharda yashashar.

Siz ham kitobni qo‘ying, ularni yo‘qlashga shoshiling. Boshqa shaharda bo‘lishsa qo‘ng‘iroq qiling, yoki ikki og‘iz shirin so‘zingizni oq qog‘ozga tushurib yo‘llang. Bu ham savob.

Bir xonadonda chol-kampir yolg‘iz qolishgan. Holbuki, bu xonadon avval gavjum edi. Shu xonadonda yetti farzand tug‘ilib o‘tdi. To‘ylar qilindi. Bu xonadon egasining onasi bo‘lardi. Keksa kampir ancha aziyat chekardi. O‘g‘il onasini ochiqdan ochiq behurmat qilardi. Unga qarab nabiralar ham buvilarini xorlashardi. O‘g‘il onasiga «sen meni bolaligimda yetimxonaga bergansan! Buni hecham kechirmayman», deb da‘vo qilardi. Ona o‘zini oqlamasdi, faqat ko‘z yoshi to‘kardi. Tarixdan ma‘lum, o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillarida g‘oyat og‘ir qahatchilik bo‘lgan. Ko‘chalarda ochdan o‘lganlar qalashib ketgan. O‘shanda ona beva qolib, o‘g‘lini o‘limdan saqlab qolish uchun yetimxonaga berishga majbur bo‘lgan. Keyinchalik turmush qurgach, farzandini yana bag‘riga olgan. Shunday bo‘ldiki, kampir so‘nggi umrini hasratda o‘tkazib, o‘g‘lidan norizo ketdi. Tilga chiqarib «sendan rozimasman» demagan bo‘lsa-da, har holda o‘g‘lini, kelinini, nabiralarini xayrli duo qilmadi. Va buning oqibati tez kunlarda ko‘rindi. Ajablanarli tomoni shuki, bugun qarilik yoshida yolg‘izlikdan qiynalayotgan bu chol-kampir, yo‘qlab kelganlarga hasrat daftarini ochadilaru ammo nima sababdan bunday xorlikka duch kelganlarini mulohaza qilib ko‘rmaydilar.

Ha, ota-onaning duosi bilan kishi oliy martabalarga yetishadi yoki aksincha, xorlanishi ham mumkin. Hayotiy misollarimizni hadisi sharif bilan quvvatlantirsak:

Mazkur hadis Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.):

-Bibi Maryamning o‘g‘illari hazrati Iso alayhissalom bilan Jurayjga so‘zlagan boladan bo‘lak hech bir bola beshikdaligida gapirgan emas,-dedilar.

Sahobalar: «Yo Rasulalloh, Jurayj va unga so‘zlagan bola kim edi?» deb so‘rashganida, Rasululloh bu rivoyatni aytib berdilar:

-Jurayj o‘zining doimiy ibodati bilan mashg‘ul rohib bo‘lib, uning ibodatxonasi atrofida bir podachi sigirlarini o‘tlatib yurar edi. Shu ibodatxona yaqinidagi qishloqda yashovchi bir xotin podachi yoniga kelib-ketib turardi. Jurayj bir kuni ibodat bilan mashg‘ul ekanida

onasi kelib chaqirdi. Jurayj onasining ovozi eshitdi, ammo ibodatni davom ettirayinmi buzib, javob qilayinmi deb o'yladi. O'ylanib-o'ylanib, ibodatini buzmay, onasiga javob qaytarmadi. Onasi ikkinchi, uchinchi marta ham chaqirganida javob bo'lmagach, «Alloh taolo seni fohisha xotinlarga yo'liqtirsin», - deb duoyibad qilib, iziga qaytib ketdi. Oradan ko'p o'tmay o'sha podachi yoniga kelib-ketib turadigan xotin bola tug'ib qo'ydi. Uni buzuqlikda ayblab podshoh huzuriga keltirib so'roq qilishganda «Bu bola ibodatxonadagi rohibdan bo'lgan», - deb tuhmat da'vosini qildi. Buni eshitgan podshoh g'azablanib, «rohibning ibodatxonasi buzilsin, o'zi bu yerga keltirilsin!» deb amr qildi. Buyruqqa asosan ibodatxona buzilib, Jurayjning qo'llari arqon bilan bog'lanib keltirildi. Jurayj yo'lda kela tur

-Xo'sh, menga ayt-chi, qo'llaringni bog'lab olib kelayotganlarida g'azablanish o'rniga nima uchun kulding? - deb so'radi.

-Yuz bergan voqeani ko'zim bilan ko'rib kulgim keldi. U ham bo'lsa, onamning menga qilgan duoyibadlari edi, - Jurayj shunday deb bo'lib o'tgan voqeani so'zlab berdi.

Endi bayon etilajak hadisni Abdulloh ibn Avf (r.a.) Anas ibn Molikdan (r.a.) rivoyat qiladilar:

«Rasululloh (s.a.v.) yonlarida Suffada edik. Hijrat qilgan bir ayol Rasuli akramning huzurlariga keldi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) uni ayollar yoniga, o'g'lini esa bizning yonimizga yubordilar. Oradan ko'p o'tmay, ayolning o'g'li vaboga chalinib, vafot etdi. Sarvari olam (s.a.v.) yigitning ko'zlarini yumganlaridan so'ng, uni yuvish uchun tayyorgarlik ko'rayotganimizda menga:

-Ey Anas! Bor, onasiga xabar qil, - dedilar.

Onasiga xabar berdim. Onasi kelib, o'likning oyoq uchi tomoniga o'tirdi va farzandining sovub qolgan oyoqlarini ushlab duo qildi:

-Allohim! Men o'z xohishim bilan musulmon bo'ldim. Sening diningga kirdim. Butlarga sig'inishni tark etdim. O'z xohishim bilan Senga yukindim va Payg'ambaringni sevdim. Allohim! Meni balo-musibatlarga duchor qilib, butparastlarni sevintirma va toqatim yetmaydigan ushbu musibatni menga yuklama...

Allohga qasamki, ayol duo qilib bo'lar-bo'lmas, o'likka jon qaytdi, bola oyoqlarini qimirlatib, ko'zlarini ochdi. Rasululloh (s.a.v.) vafot etgunlariga qadar ham u yigit tirik edi...»

Ota-ona hayotlik choqlarida ularning roziliklarini olish - Allohga va Uning Rasuliga bo'lgan sevgining bir zarrasi. Yana bir zarrasi esa ularning vafotlaridan so'ng xayrli duolar bilan eslash. Namoz o'quvchilar ota-onalarini kunda besh mahal yodga oladilar, Allohdan mag'firat so'rab, duo qiladilar. Benamozlar esa turli kundalik tashvishlar bilan band bo'lib ularni unutadilar. Yana bir muammo: ayrimlar otalari yoki onalari vafot etishganda «bizning xilxonamiz falon yerda», deb uzoq qabrisonlarga olib borib dafn etadilar. Oqibatda otalari yoki onalari qabrlarini yilda ikki marta - hayit bayrami kunlaridagina ziyorat qiladilar. Agar o'zlari yashaydigan mahalla (yoki qishloq) qabrisoniga qo'ysalar, mahalladagi janozada ishtirok etish bahonasida ham ziyorat qiladilar.

Yaqinda bir maktabning muallimasi ibratli voqeani hikoya qilib berdi:

Ma'lumimgizkim, hozir bola birinchi sinfga chiqishdan oldin muallimlarning suhbatidan o'tadi. Bu bilan bolaning ongi, zehni darajasi aniqlanadi. Xullas, bir bolaga rasmni ko'rsatib: «Bu nima?» deb so'rashadi. Bola javob beradi: «Bu bo'g'irsoq». Boshqa rasmni ko'rsatib so'rashadi: «Bu nima?» Javob beradi: «Bu tulki». Yana so'raydilar. Ammo bola javob o'rniga xuddi kattalarday deydiki: «Mendan bunaqa mayda-chuyda narsalarni so'ramang. Siz Payg'ambarimizning, alayhissalom hayotlarini so'rang, aytib beray». Muallimlar noiloj «aytib ber», deyishadi. Bu yerda asosiy gap muallimalarning bilmagan ilmini bola bilishida emas. Asosiy murod - bu bola ulg'ayganida ota-onasini xorlab qo'ymaydi. Ota-onasi o'tgandan keyin ham duoda bo'ladi. Farzandiga Islom alifbesini o'rgatgan ota va ona va dunyo oxiratlari uchun ikki muazzam saroy tiklab qo'yibdilarkim, unda yashash ularga muborak bo'lsin.

Abu Usayd (r.a.) hikoya qiladilar:

«Biz Rasululloh (s.a.v.) huzurlarida edik. Shu vaqt bir kishi kelib: «Yo Rasulalloh! Ota-onamning hayot vaqtlarida qilgan yaxshiliklarimdan tashqari ularning vafotidan keyin yana nima qilsam shu yaxshiligim davom etadi?» - deb so'radi. Rasululloh (s.a.v.) unga dedilar:

-To'rtta narsani qilib yursang, ularga qiladigan yaxshiliging davom etavergan bo'ladi. Ularning birlamchisi - ota-onang haqlariga duo qilasan va gunohlarini kechirmakni Alloh taolodan so'raysan. Ikkilamchisi - ularning nasihat va shar'iy vasiyatlarini amalga oshirasan. Uchlamchi - ularning do'stlarini hurmatlaysan va to'rtlamchi - qavm-qarindoshlar bilan ular tufayli qaror topgan qarindoshlik aloqalarini uzmayсан.

Bu mavzuda aytaman desak, hikmat ko'p. Biroq, Alisher Navoiy hazratlaridan bir necha bayt o'qimasak, ko'nglimiz o'rniga tushmaydigan ko'rinadi:

Biri erur makrumati volidayn,
Bilki munung qilmog'idur farzi ayn.
Bu ikining xidmatini bir bil,
Har necha ifrot esa, taqsir bil.

Deyilmoqchikim: Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish; buni bajarish uning uchun majburiyatdir (shartdir). Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil.

Boshni fido ayla, ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Ikki jahoningg'a tilarsen fazo –
Hosil eti ushbu ikisidin rizo.

Deyilmoqchikim: Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol!

Tun-kunungga aylagali nur fosh,
Birini oy angla, birisin quyosh.
So'zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo'yma qadam tashqari.
Bo'lsun adab birla bori xidmating,
Xam qil adab "dol"i kibi qomating.

Deyilmoqchikim: Tunu kuningga nur berib turgan birlarini oy deb bil, ikkinchilarini esa quyosh. Ularning so‘zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma. Hamma xizmatni sen adab bilan bajar, “adab” so‘zidagi “dol” harfi kabi qomatingni ular huzurida eg.

Ming yillar mobaynida yaratilgan kitoblarda ota-onani izzatlashga doir nasihatlar qilingan. Bu nasihatlarning mualliflari ko‘p bo‘lgani bilan ma’nolarida farq kam. Shu bois mazkur bobni o‘n birinchi asrda yashagan Amir Unsurulmaoliy Kaykovusning Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan nasihatlar bilan yakunlashni ma’qul topdik.

-Ey farzand, bilg‘ilkim, aql yuzasidan farzandg‘a ota-onani hurmat qilish vojibdur, nedinkim uning asli ota va onadur. Ota va onani nima uchun hurmat qilurman deb ko‘nglingg‘a kelturmag‘il, bilg‘ilki ular sening uchun o‘limg‘a ham tayyor turadurlar.

Har farzandki, oqil va dono bo‘lsa, hech vaqt ota va onaning mehr haqqini ado qilmoqdin xoli bo‘lmag‘usidir. Ota-ona farmonbardordur. Bu farmonbardorlikda ham ish bo‘lg‘ay va ham farmon bo‘lg‘ay. Ota-onaning ishi seni parvarish qilmoqdur va farmoni senga yaxshilik o‘rgatmoqdur. Ey farzand, shul vajdin ota-onangni sag‘al ham ranjitmag‘il.

Ota-onaning hayoqiga din nuqtai nazaridan rioya qilmasang ham, aql yuzidan, muruvvat yuzidan rioya qil va ko‘rg‘il: ota-ona aslida seni jon va dil bila parvarish qilmishlar. Agar ular haqida kamchiliklar qilsang, taqdir ko‘rguzsang, sen hech yaxshilikka sazovor emasdursan, nedinkim har kishi aslning yaxshilig‘in bilmasa, o‘zganing ham yaxshilig‘in bilmag‘usidir. O‘z farzanding sening haqingda qanday bo‘lishin tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo‘lg‘il, nedinkim sen ota-onangga nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o‘xshaydur. Daraxtni har qancha yaxshi tarbiyat qilsang, mevasi shuncha yaxshiroq va shirinroq bo‘lur. Ota-onaga izzat va hurmatni qancha ko‘p qilsang, ularning duolari shuncha tezroq mustajob bo‘lur.

Zinhor meros olmoq hirsu bila ota-onang o‘limini tilamag‘ilki, ularning rizqi bila sening rizqing yetishur. Ota-onaning o‘limini tilamag‘il, chunki ota-ona o‘lmay yursalar ham rizqing yetishaveradi, nedinkim, rizq taqsimlangandur va u har yo‘l bila vosil bo‘lur. Ro‘ziy nasiba uchun o‘zingni ko‘p ranj-mashaqqatga qo‘ymag‘il, bul nasiba ranj va azob-uqubat bila ziyoda bo‘lmag‘usidir.

Qur'oni Karimda va hadisi shariflarda buyurilgan amallar asosida aytilgan mazkur nasihatlariga itoat etgan holda umr kechirishni barchalarimizga Alloh nasib etsin!

Endi duoga qo‘l ochaylik:

-Yo Allohim, yo Rabbim! Gunohlarimizni afv et. Kimniki otasi yoki onasi yoki ikkovlari hayot bo‘lsa, ularning umrlariga-rizqlariga baraka ber. Dardmandlarining dardlariga davo ber. Farzandu nabiralari baxti iqbolini ko‘rish saodatini nasib ayla. Farzandlarini go‘daklik chog‘ida qanday rahm va shafqat bilan tarbiya etgan bo‘lsalar Sen ham ularni shunday shafqating bilan panohingda asra. Haq yo‘lingdagi ota-onalarning farzandlari haqqiga qilgan xayrli duolarini dargohingda qabul va maqbul ayla. Haq yo‘lingdan adashganlar orasidagi ota-onalarga hidoyat ber. Ota-onasini o‘zingning bayting - Ka’batulloh ziyoratiga olib bormoqni niyat qilib yurgan farzandlarning niyatlarini amalga oshir. Otalari yoki onalari, yoki ikkovlari bilan yonma-yon yurib, «labbayka!»ni aytib

Haj ibodatlarini solih ravishda amalga oshirmoqlarini nasib ayla. Ota-onalarining qadriga yetmay yurganlarning qalbini yumshat, ko‘zlarini och, insofu tavfiq va hidoyat ber. To qiyomatga qadar tug‘ilib, yashovchi zurriyodlarni bizlar yo‘l qo‘ygan xato va gunohlardan asrab, ota-onalarga izzatda bo‘luvch

Kimning otasi yoki onasi yoki ikkovlari bu foniyl dunyodan boqiy dunyoga rihlat qilishgan bo‘lishsa ularni mag‘firatingga ol. Ularning izidan qilinayotgan duolarni dargohingda maqbul ayla. Ularning tavbalarini va ular uchun farzandlar qilayotgan tavbalarni ham qabul etib to qiyomatga qadar qabr azoblaridan asra. Qiyomatda O‘zing «bandam!» deb, a‘mol nomalarini o‘ng qo‘llaridan olmoqliklarini nasib ayla, janob rasuli akram Muhammadning (s.a.v.) shafobatlarini nasib etib, O‘zingni jamolingni ko‘rish baxtini ber. Kimki burchini solih farzandlar qatorida ado eta olmagan bo‘lsa, kimki otasi yoki onasini yoki ikkovini ko‘nglini ranjitgan bo‘lsa-yu, endi nadomatlar chekayotgan bo‘lsa, ularning ham tavbalarini qabul etib, lutfi karaming bilan gunohlarini kechir. Qiyomatda volidaynga ochiq yuz bilan ro‘para kelishlarini va jannatda birga qovushishlarini nasib ayla. Omiyn ya Rabbal-olamiyn!